

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**«OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI» kafedrasи**



**YOG`LARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIK**

**USKUNALARI  
fanidan**

# **O'QUV USLUBIY MAJMUA**

Bilim soxasi: 300 000 - Ishlab chiqarish texnik soha

Ta'lif sohasi: 320 000 – Ishlab chiqarish texnologiyasi

Ta'lif yo'nalishi: 5A321001 - Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi (yog`larni qayta ishlash texnologiyasi bo`yicha)

**NAMANGAN – 2020 yil**

Ushbu ma`ruza matni NamMTI «Oziq-ovqat texnologiyasi» kafedrasining 2020 yil \_26\_avgust (\_1\_-sonli bayonnomma) va NamMTI ilmiy-uslubiy kengashining 2020 yil 29-avgust (1- sonli bayonnomma) majlislarida ko'rib chiqilgan va chop ettirishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi                    Hamdamov A. – OOT kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:            Sattarov T. – NamDU «Kimyo» kafedrasi dotsenti,  
texnika fanlari nomzodi  
Qanoatov X. – NamMPI “Oziq-ovqat texnologiyasi”  
kafedrasi dotsenti,    texnika fanlari nomzodi

## MUNDARIJA

1-MA`RUZA: YOG`LARNI RAFINATSIYA QILUVCHI USKUNALAR

2-MA`RUZA: MOYLARNI QURITISHI VA OQLASH USKUNALARI

3-MA`RUZA: YOG`LARNI DOG`LASH USKUNALARI

4-MA`RUZA: YOG`LARNI GIDROGENLASH USKUNALARI

5-MA`RUZA: VODOROD ISHLAB CHIQARISH USKUNALARI

6-MA`RUZA: KATALIZATOR ISHLAB CHIQARISH USKUNALARI

7-MA`RUZA: MARGARIN TAYYORLASH USKUNALARI

8-MA`RUZA: YOG`LARNI PARCHALASH VA GLITSERIN OLISH  
USKUNALARI

9-MA`RUZA: YOG` KISLOTALARINI DISTILLYATSIYA QILISH  
USKUNALARI

10-MA`RUZA: SOVUN TAYYORLASH USKUNALARI

## **1-MA`RUZA: YOG`LARNI RAFINATSIYA QILUVCHI USKUNALAR**

***Reja:***

1. YOglarni uzluksiz rafinatsiyalashda kullaniladigan separatorlar.
2. Uzluksiz ishlaydigan tindirgich-ajratgich.
3. Davriy ravishda ishlaydigan neytralizator.

YOg`larni va moylarni ular bilan ergashib yoruvchi aralashmalardan tozalash rafinatsiya deyiladi.

Rafinatsiya yordamida yog`lar va moylarni ovqatda turli texnik maqsadlarda ishlatish mumkin. Moylar tarkibidagi aralashmalar turli-tumanligi sababli rafinatsiya bir necha ketma-ket bajariladigan operatsiyalarning kompleksidan iboratdir. SHu jixatdan rafinatsiya jarayoni fizik, kimyoviy, fizkimyoviy metodlarni o`z ichiga oladi.

Rafinatsiyaning fizik jarayonlari bu tindirish, tsentrifugatsiya va filtratsiyadir. Moylarni tindirish katta xajmlardagi idishlarda, uzoq muddatda bo`ladi. TSentrifugalash maxsus separatorlarda, filtratsiya esa filtrpresslar, vakuumfiltrlar va funda sistemali filtrlarda boradi.

Rafinatsiyaning kimyoviy metodlari: sulfat kislota yordamida rafinatsiyalash, gidratatsiya qilish, ishqor yordamida rafinatsiyalash, gossipolni ajratish, rang beruvchi moddalarni oksidlashdan iboratdir.

Fizkimyoviy metodlar esa adsorbsion rafinatsiya, dezodoratsiya, distillyatsiya xamda selektiv erituvchilar yordamida rafinatsiya qilishdan iboratdir.


Xar bir usul va jarayonning bajarilishida o`ziga xos jixoz va uskunalar ishlatiladi. O`simlik moylaridan fosfatidlarni gidratatsiya qilib ajratib oluvchi uskunalar ishqor bilan moylarni rafinatsiya qiluvchi uskunalarga o`xshashdir. Gidratatsiya va rafinatsiya qilish uchun aralashtirgichlar, separatorlar, quritish apparatlari ishlatiladi. Aralashtirgichlar turlicha bo`lib kurakchali, diskli va pichoqli bo`ladi. Bu aralashtirgichlarning asosiy vazifasi rafinatsiya qilinayotgan yog` va moylarni ishqor eritmasi, limon va fosfat kislotasi yoki yovish uchun kerak bo`lgan kondensat bilan intensiv aralashtirish uchun xizmat qiladi.

Separatorlar esa yog` va moylar yuqorida komponentlar bilan aralashtirilgandan so`ng xosil bo`lgan soapstok va boshqa suvda eriydigan va suvli fazaga o`tib qolgan maxsulotlarni ajratish uchun xizmat qiladi.

Gidratatsiya va rafinatsiya qilingan yog` va moylar suvli eritmalar bilan kontaktda bo`lganligi uchun tarkibida suv qoladi. SHu qoldiq suvni uchirib ioborish uchun quritish apparatlaridan foydalaniladi.

Rafinatsiya jarayonining sifati va tezligi moy va ishqor eritmasining intensiv va qisqa muddat ichida aralashishiga ko`p jixatdan bog`liqdir. Ayniqsa paxta moyini rafinatsiyalash uchun bu xolat alovida axamiyatga egadir. SHu tufayli xozirgi kunda paxta moyini rafinatsiya qilishda tez oqimli purkovchi reaktor-turbulizator (struyniy reaktor-turbulizator) ishlatiladi (12-rasm).

## Tez oqimli reaktor-turbulizator.



12-rasm. Tez oqimli reaktor-turbulizator.

1-reaktoring korpusi; 2-soplo; 3-ishqor eritmasi kiruvchi shtutser; 4-qabul qilish kamerasi; 5-alarashtirish kamerasi; 6-turbulent-injektorli diffuzor; 7-perforatsiyalangan trubka; 8-alarashma chiqadigan shtutser; 9-moy kirituvchi shtutser.

**Vazifasi:** Reaktor turbulizator moy va ishqor eritmasini aralashtirish jarayonini intensifikatsiyalash uchun xizmat qiladi.

Reaktor-turbulizator - bu aralashtirgich xisoblanib 1-korpusda 2-soplo joylashgan. Korpusga 9-shtutser joylashgan bo`lib, undan rafinatsiya qilinadigan moy beriladi. 3-shtutserdan ishqor eritmasi kiradi. 2-soplidan chiqayotgan moy oqimi katta tezlik bilan 4-qabul qilish kamerasidan o`tib, 5-alarashtirish kamerasida xam nixoyatda katta tezlik bilan xarakatlanadi. Natijada 4-qabul qilish kamerasi atrofida vakuum xosil bo`ladi va ishqor eritmasi 3-shtutser orqali so`riladi. Kerak bo`lsa ishqor eritmasi o`lchovli nasos yordamida xam berilishi mumkin. Moy va ishqor eritmasi katta tezlikda 5-kamerada aralashib 6-turbulent-injektorli diffuzorga kiradi va bu erda kesimning keskin kengayishi va torayishi xisobiga aralashma intensiv turbulent xarakatda yanada kuchliroq aralashadi. 7-perforatsiyalangan trubkaning oxiri yopiq yasalgani uchun moy-ishqor aralashmasi yana bir bor qorishib diametri 10-12 mm bo`lgan teshiklar orqali chiqib, 8-shtutserga o`tadi. Natijada qisqa vaqt ichida neytrallanish reaktsiyasi tugaydi.

**Afzalligi:** Nixoyatda kompakt, nixoyatda intensiv aralashish xisobiga neytrallash reaktsiyasi mukammal yo`z beradi.


### Texnik ko`rsatkichlari

Unumdorligi	22m <sup>3</sup> /soat moy
Almashtiriladigan soploning kesimi diametri	19, 20,5, 22 mm
Diffuzor teshiklari diametri	10-12 mm
Reaktoring massasi	70 kg
Gabaritlari	12010*270 mm

## Uzluksiz ishlaydigan tindirgich-ajratgich

**Vazifasi:** Rafinatsiya qilingan moydan soapstok va suvli fazani zichliklarning farqi xisobiga ajratib beradi.

Ma`lumki moyning zichligi soapstoklarnikidan va suvda eriydigan barcha gidrofil moddalarning eritmasi zichliklaridan kichikdir. Mana shu farq xisobiga moyni soapstokdan va suvda qolgan komponentlardan ajratish mumkin. Sanoatda bu jarayon tindirgich-ajratgichda (13-rasm) bajariladi.



Uzluksiz ishlaydigan tindirgich-ajratgich.

1-korpus; 2-korpusli qopqoq; 3-rafinatsiyalangan moy kollektori; 4-rafinatsiyalangan moyni xar bir kameradan chiqaruvchi trubka; 5-moy, soapstok va suvli faza kiruvchi shtutser; 6-tarqatish kamerasi; 7-tortuvchi boltlar; 8-tayanch; 9-liok-o`tkich; 10-soapstok va suvli faza chiqadigan shtutser; 11-apparatni bug` bilan purkash shtutseri; 12-namuna olish kranlari uchun shtutserlar; 13-markaziy taqsimlovchi truba; 14-sirtqi truba; 15-юqori flanets; 16-quyi flanets; 17-tindirish zonasasi; 18-rafinatsiyalangan moy zonasasi; 19-moy, soapstok va suvli fazani markaziy taqsimlovchi trubadan tarelkalar orasidagi tindirish zonasiga o`tkazuvchi trubka; 20-rafinatsiyalangan moyni tarelkalar orasidagi zonadan sirtqi trubaga o`tkazuvchi teshik; 21-ustki konusli tarelka (shu kameraga nisbatan); 22- ostki konusli tarelka; 21a- ustki konusli tarelka (ostki kameraniki); 23-mazkur kameradan moyni chiqarib yoboruvchi teshik; 24-ostki kameradan moyni chiqarish uchun trubka; 25-to`sinq.

Uzluksiz ishlatiladigan tindirgich-ajratgich vertikal tsilindrik apparat bo`lib konusli tag va 2-ust qopqog`i bor. Qopqoq 1-tsilindrik korpusga flantsli biriktirma yordamida biriktirilgan. Tindirgich ichida 6-taqsimlovchi kamera bo`lib, xar biri aloxida ishlaydi.

Taqsimlovchi kameralar 7-tortuvchi boltlar yordamida bir-biriga maxkam tortib biriktirib qo`yilgan. Eng ostki kamera bekig` yasalgan. Tindirgich kameralarining yig`ilgan paketi apparat ichida 8-tayanchga o`rnatalgan. Moy va soapstok aralashmasi apparat ichiga 5-shtutser orqali kiradi. 4-trubkalar ventiller, nazorat fonarlari va namuna olish kranlari bilan ta`minlangan bo`lib xar bir

kamerada ostidagi 23-teshik ustida turadi va moyni aloxida-aloxida olib chiqib 3-kollektorga yigadi.

6-taqsimlovchi kamera 13-markaziy va 14-sirtqi trubalardan iborat bo`lib, bu trubalar 15 va 16 flanetslar yordamida tutashtirilgan. 14-sirtqi trubaga ikkita konusli tarelka payvandlangan. Rasmda 21-tarelka yoqori, 22-tarelka quyi deb belgilangan. Quyi 22-tarelka va ostki kameraning yoqori 21-tarelkasi orasidagi bo`shliq 17-cho`ktirish kamerasi bo`lib ishlaydi.

Yoqori va quyi tarelkalar orasidagi bo`shliq 18-ajratilgan moy zonasini bo`lib xizmat qiladi. Apparatning unumdoorligi tindirgichning tarelkalari soni va diametriga bog`liq.

Ishchi xolatida tindirgichning ichki xajmi moy bilan to`la turadi. Moy, soapstok aralashmasi 5-shtutser orqali 19-trubka orqali qiya tarelkalar oralig`iga beriladi. Soapstok, zichligi katta bo`lganligi uchun, tarelka zonasida cho`ka boshlaydi. Moy, zichligi kamroq bo`lganligi uchun cho`kma ustida yig`ila boshlaydi (17-cho`ktirish zonasasi), tarelkaning oxirida uning gardishi aylanib o`tib, 18-ajralgan moy zonasida yoqoriga xarakat qiladi va 20-teshik orqali xalqasimon xajmga o`tadi. Bu erdan moy 23-teshik orqali 24-trubkaga, so`ng 4-trubkaga o`tib 3-kollektorga yig`iladi. Bu erdan moy yoqish va quritishga jo`natiladi.

25-to`sinq soapstokning moyga aralashib ketishiga yo`l qo`ymaydi.

10-shtutser orqali soapstok uzlucksiz chiqarib turiladi.

**Afzalliklari:** Moyni soapstokdan ajratish darajasi yoqori.

**Kamchiligi:** Uskunaning geometrik o`lchamlari katta.

### Texnik ko`rsatkichlari

Unumdoorligi	75 t/sut moy
Tarelkalarning umumiyo yoqasi	63 m <sup>2</sup>
Kameralar soni	12
Apparatdagi xarorat	60-65 <sup>o</sup> S
Apparatning materiali	St.3 zanglamaydigan, X18N10T, sayqallangan
Gabaritlari	2930*7900 mm
Massasi	8460 kg


### DAVRIY NEYTRALIZATOR

Davriy neytralizatorda gidratatsiya va neytralizatsiya jarayonini olib borish mumkin. Respublikamizdagi zavodlarda davriy neytralizatorning 10 va 20 tonnali xajmdagilari qo`llanadi.

**Neytralizator** moydagi erkin yog` kislotalarni neytrallash uchun ishlataladi. Apparat vertikal tsilindrishimon shaklli 5-korpusdan iborat bo`lib, konussimon 3-taglikka ega. Apparatning asosiy organi 14-panjarali aralashtirgich bo`lib, u 12-valga mushtumsimon mufta yordamida ulangan. Aralashtirgich 8-elektrovdvigatel va 9-reduktor yordamida 25 – 120 ayl/min tezlikda aylanib turish imkoniyatiga

ega. Namokob eritmasi va aniq kontsentratsiyali ishqor eritmasi apparatga 10-voronka-dush va val bilan birga aylanadigan 11-purkagichli qurilma orqali beriladi. Neytralizatsiya jarayonini nazorat qilish va effektiv ravishda olib borish uchun apparat 1- termometr, 2-ximoya klapani, moyni xaydash uchun 4-sharnirli truba, maxsulotni isitish uchun 3-bug` g`ilofi, 6-chig` iriq (lebyodka), 7-richag va misdan yasalgan 15-reyka bilan ta` minlangan.

Sanoatda qo`llaniladigan neytralizatorlarning sig`imi  $8,4; 15,7$  va  $33,1\ m^3$  tashkil qilib, yoklanayotgan maxsulotning miqdori –  $5, 10$  va  $20\ t$  bo`ladi. Ko`rsatib o`tilgan apparatlarning qizdirish yozasi  $8,0; 11,8$  va  $23,0\ m^2$ , ish unumdorligi esa moyning kislota soni va salomasning namligiga qarab  $10\ t$  dan  $80\ t/kun$  gacha bo`lishi mumkin.



Нейтрализатор:

- 1-термометр;
- 2-химоя клапани;
- 3-буг учун гилоф;
- 4-шарнирли труба;
- 5-корпус;
- 6-чирик;
- 7-ричаг;
- 8-электродвигател;
- 9-редуктор;
- 10-воронка – душ;
- 11-айланадиган пуркагичли курилма;
- 12-вал;
- 13-мушумсимон муфта;
- 14-панжараали аралаштиргич.



#### Davriy neytralizatorning texnik xarakteristikasi

№	Ko`rsatkichlar	Neytralizatorning maxsul dorligi, t		
		5	10	20
1.	To`liq xajmi, $m^3$	8.4	15.7	33.1
2.	Diametri, m	2.0	2.3	3.2
3.	Balandligi,m	2.35	4.65	5.35
4.	Isitish юzasining tipi	Rubashka (kuynakli)	Rubashka (kuynakli)	Rubashka (kuynakli)
5.	Isitish uzasining o`lchami, $m^2$	11.8	23.0	8.0
6.	Elektrodvigatelning mo`gnosti, kvt	2.8	7.0	1.7
7.	SHarnir trubasining diametri, mm	100		
8.	SHarnir trubasining uzunligi, mm	3200		

#### Davriy neytralizatorning qisqacha ishlashi:

Buning uchun neytralizatorning ichiga  $2/3$  qismiga yog` to`ldirilib, asta aralashtirib turganda ishqorning o`lgancha ishga eritmasini quyaboshlaydi. Bu

vaqtida paxta moyining ichidagi erkin yog` kislotalari gossipol bilan o`iovchi natriy ishqori reaktsiyaga kirishadi:



Natijada erkin yog` kislotalarining Na -li tuzi va gossitolyat natriy xosil bo`ladi. Keyin reaktsion massaning xaroratini 65-70° gacha ko`tariladi. Maqsad xosil bo`lgan soapstok zarrachalarini kattalashtirish va tindirishgichda soapstokdan neytrallangan yog`ni yaxshi ajralishini ta`min etishdan iborat. Soapstok to`la tindirilgandan keyin, soapstokni pastki shtutser orqali tushirib ioboriladi, neytrallangan paxta moyi esa sharnir trubkasi va shtutser orqali keyingi jarayonlarga ya`ni iovish va quritish jarayonlariga ioboriladi.

### Tayanch so`z va iboralar.

Rafinatsiya, tindirish, tsentrifugalash, gidratatsiya, adsorbsion rafinatsiya, soapstok, reaktor-turbulizator, soplo, tindirgich-ajratkich, suvli faza, markaziy taqsimlovchi truba, tindirish zonasasi, kollektor.

### Takrorlash uchun savollar.

1. YOg`larni rafinatsiya jarayoni deb nimaga aytildi?
2. Rafinatsiyaning kimyoviy usullari nimalardan iborat?
3. Tez oqimli reaktor-turbulizatorning sxemasi va tuzilishini tushuntiring. Uning afzalligi nimalardan iborat?
4. Uzlusiz ishlaydigan tindirgich-ajratkichning vazifasi, tuzulishi va ishlashi qanday bo`ladi?
5. Neytralizatorning tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.

## **2-MA`RUZA: MOYLARNI QURITISHI VA OQLASH USKUNALARI**

### **Reja:**

1. Rafinatsiyalangan moylarni kuritish kerakligi.
2. Kuritish va oklash uskunalarini.
3. Davriy ravishda ishlaydigan kuritish-okartirish uskunasi.
4. Uzluksiz ravishda ishlaydigan vakuum-kuritish uskunasi.

YOg`larni va o`simlik moylarini ishqor yordamida neytralizatsiya qilingandan keyin bu yog` va moylarni albatta iovish kerak, chunki ularning tarkibida soapstok qoldiqlari bo`ladi. YOg`larning iovish jarayoni issiq suv bilan 75-80 °S da olib boriladi. IOvilgan moy va yog`larning tarkibida 0,5 dan 0,8% gacha suv bo`lishi mumkin. SHuning uchun iovilgan yog` va o`simlik moylarini albatta quritish kerak bo`ladi. YOg` tarkibida suvning miqdori kam bo`lganligi sababli, u moy tarkibida 100°S dan yoqorida erigan xolatda bo`ladi. SHuning uchun iovilgan yog`larni vakuum ostida va xarorati 95°S dan yoqori bo`lgan shrotda olib borilali. Quritilgan yog`ning tarkibida suvning miqdori 0,05%- dan oshishi mumkin emas. Rafinatsiya qilingan yog`larning gidrogenizatsiya qilish uchun va margarin, qandolat yog`larini olish uchun foydalaniлади. Bu yog`larni rangiga juda katta e`tibor beriladi, ya`ni ular rangsiz bo`lishi kerak. SHuning uchun bunday yog`lar va moylar adsorbent yordamida rafinatsiya qilinadi. Adsorbsiyali rafinatsiyadan maqsad moylarning tarkibidagi rang beruvchi moddalardan tozalash. YOg`-moy sanoatida bunday usulni oqlash usuli deyiladi. YOg`larni oqlash usuli vakuum ostida olib boriladi, chunki oqlash jarayonida yog`lar xavodagi kislород yordamida oksidlanishi mumkin.

YOg`larni oqlash va quritish uchun quyidagi uskunalar qo`llaniladi.

1. Surunkasiga ishlaydigan vakuum-quritish.
2. YOg`larni adsorbentli suspenziyasini tayyorlash uchun aralashshtirgich.
3. Gorizantal va vertikal tipdagisi vakuum oqartirgich.

### **Vakuum-qurutgichlarning tuzilishi va ishlashi.**

Vakuum – quritgich iovilgan yog` va moylarni quritish uchun xizmat qiladi. Vakuum-quritgich tsbindirsimon vertikal xolatdagi uskuna bo`lib, u sferik qopqoqdan va taglikdan tashkil topgan bo`lib, flanets yordamida birlashtirilgan. Uskuna ishining yoqori qismida koltsosimon qurilmaga tomchi ajratgichi o`rnatilgan. Tomchi ushlagich bir qancha bir xil elementlardan tashkil topgan, o`lchamlari 35x35x2 yoki 40x40x2 mm. Elementlar 1 qator yoki 2 qator qilib joylashtirilgan. Unda suv bug`i bilan xavo aralashmasi o`z xarakatini ko`p marta o`zgartiradi. Elementlar yozasini bir-biridan uzoqligi 17 mm. Vakuum-quritgichni pastki qismida tayanchlar yordasida koltsosimon tarelkalar va kozeroklar o`rnatilgan bo`lib, ularning vazifasi yog` tomchilarining yo`lini uzaytirishdan iboratdir. YOg`ni vakuum-quritgich ichiga uchta farsunka yordamida purkaladi, yog` esa forsunkalarga uch ta truba yordamida beriladi.

Vakuum-quritgichda vakuum to`rt pog`onali elektr bloki yordamida xosil qilinadi.

Qarash oynasi yordamida forsunkadan yog`ni purkash jarayoni kuzatiladi.

Quritilgan moy vakuum-quritgichdan pastki ictutser yordamida chiqib ketiladi.

Vakuum-quritgichning pastki qismidagi yog`ning satxini bir xil ushlab turish uchun satx moslamasi qurilmasidan foydalaniлади.

Texnik ko`rsatkichlari:


1. Unim dorligi 3,5-6,25 t/soat
2. YOg`ni boshlangg`ich namligi 0,2-0,8%

3. YOg`ni quritgichdan keyingi namligi 0,05% dan katta bo`lmasligi kerak.
4. YOg`ni uskuna ichidagi xarorati 85-90°S
5. Qoldiq bosim 20-40 mm simob ustuni (2-4 kPa)
6. Xajmi V-1,625 m<sup>3</sup>
7. Purkagichdagi yog`ning bosimi – 0,3 Mpa
8. Purkagichni teshigi 4,5,6,7,8 mm
9. Balandligi – 3400 mm.
10. Diametri – 900 mm.
11. Massasi – 1370 kg.

### **Vakuum quritgich**


Vakuum – quritish deaeratsiya apparati:  
 1 – taglik; 2 – yog`ni o`lchash oynasi; 3 – to`sinqcha;  
 4 – tarelka; 5 – tayanch; 6 – raz`yom; 7 – patrubka (naycha); 8 – xalqa; 9 – qaytargich; 10 – korpus; 11 – qopqoq; 12 – shtutser; 13 – ko`rish uchun oyna; 14 – fereunkalar; 15 – vakuum metr; 16 – miqdor regulyator; 17 – termometr; 18 – zmeevik; 19 – tayyor maxsulotni chiqarish shtutseri.

### **Gorizontal vakuum-oqartish apparati.**



### **Gorizontal tipdag'i vakuum-oqartish uskunasi tuzilishi va ishlashi.**

Gorizontal tipdag'i vakuum-oqartish uskunasi tsbindrsimon uskuna bo`lib, suv bug`i ko`ylagi bilan jixozlangan bo`lib, uning yoqori qismida ko`pik va tomchi ajratgichlar joylashgan. Oqartilgan moylar asosan margarin maxsulotlari tayyorlash uchun xizmat qiladi. Vakuum-oqartish uskunasi 2 ta lapastli meshalka bilan jixozlangan bo`lib. U gorizontal valga o`rnatilgan. Uskunaning yoqorigi qismida yog`ni kirish va moyli adsorbentni kirishi uchun shtutserlar joylashtirilgan, xamda ko`rish oynasi xam bor. YOg` va moylarni oqartirish jarayoni 90-95°S da olib boriladi. Oqartirish vaqtiga 30 minut vavakuum ostida olib boriladi. Uskunaning ichidagi qoldiq bosim 50-60 mm simob ustunini tashkil qiladi ya`ni Si sistemasida esa 5-6 kPa ni tashkil qiladi. Uskuna ichidagi meshalka 30 minut davomida ishlab turadi. Oqartish jarayoni tugagandan keyin vakuum nasos to`xtatiladi.



Moylarni tugal oqlash apparati:

1 – separatorli qaytargich; 2 – юqorigi patrubok; 3 – purkagich; 4 – xavo chiqishi uchun patrubka; 5 – kondensat chiqishi uchun patrubka; 6 – loyqa yog` chiqishi uchun patrubok; 7 – suspenziyani chiqazish uchun patrubok; 8 – poplavkali satx o`lchagich; 9 – bug` ko`ylagi; 10 – bug` kirishi uchun patrubok; 11 – suspenziya uchun naycha.

Oqartirilgan moy bilan adsorbent aralashmasi filterpressga berilib moydan adsorbent ajratiladi.

$$D=2100 \text{ mm}$$

$$L=5500 \text{ mm}$$

$$t=90-95^{\circ}\text{S}$$

$$R_{\text{qoldq bosim}}=50-60 \text{ mm simob ustuni.}$$

Aralashtirish vaqt – 30 minut.

### **“Tayanch” so`z va iboralar**

Quritish, oqlash, vakuum-quritish, aralashtirgich, satx moslamasi, sferik qopqoq, flyanets, xalqasimon tayanch, tomchi tutgich, tarelka, suv bug`i g`ilofi, plastinali filtr, vakkum-oqlash uskunasi, oqlangan moy.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Moylarni quritish va oqlash apparatlarining turlari.
2. Vakuum-quritgichning tuzilishi va ishlashi.
3. Gorizontal vakuum – oqartirish apparatining tuzilishi va ishlash printsipi..

### **3-MA`RUZA: YOG`LARNI DOG`LASH USKUNALARI**

#### **Reja:**

1. Dezodorizatsiya jarayoni va uning qo`llanilishi.
2. Davriy va uzlusiz usulda ishlaydigan dezodoratorlar.
3. De-Smet dezodoratori.
4. Deaerator va separator-tomchiyiggich.

Rafinatsiya jarayonining oxirgi bosqichi dezodoratsiya xidsizlantirishdir, uning maqsadi --yog`dagi noxush ta`m va xidni yukotish.

Bu ta`m va xidni yog`da murakkab moddalar aralashmasini xosil qiladi. Bu moddalarga quyimolekulali yog` kislotalari (kaprinovaya, kaprinovaya va x.k. ), alifatik uglevodorodlar, tabiy efir moylari, aldegidlar, ketonlar, oksi kislotalar va x.k. kiradi.

Xidsizlantirish vaqtida zaxarli silikatlar xam yukotiladi.

Xidsizlantirish jarayoni moxiyati: --- xidsizlantirish jarayoni 3 bosqichdan iborat: suyoqlik qatlqidagi aromatik moddalarni bug`lanish qatlamiga utishi; aromatik moddalarning bug`lanishi; bug`lanish qatlamanidan bug`langan moddalar molekulalarini yukotish.

Xidsizlantirish samaradorligi aromatik moddalar tarkibi va uchuvchanligiga bog`liq va jarayon temperaturasiga xam bog`liq.

Temperaturaning ko`tarilishi bilan aromatik moddalarning uchuvchanligi va bug`larning tarangligi oshadi. Agar temperatura juda yoqori bo`lsa, bu xolda yog`larning polimerizatsiyasi va kosidlanishiga olib keladi. Temperatura 250° S dan oshsa, yog`lar termik parchalanadi.

Aromatik moddalarni xaydashda temperaturani pasaytirish uchun xidsizlantirish jarayoni vakuum ostida o`tkir bug` ta`sirida olib boriladi.

Iste`mol qilishga mo`ljallangan yog`larni sifati dezodoratsiya jarayonini to`liq va kamchiliksiz olib borishga xam bog`liqdir. SHuning uchun dezodoratsiya yog`larni tozalashdagi asosiy jarayonlardan biridir. YOg`larni dezodoratsiya qilishdan maqsad, yog`larni xid va ta`am beruvchi moddalardan tozalashdir. Bu moddalar quyidagilardan iborat: metilketonlar, metilkarbinollar, aldegidlar, erkin yog` kislotalari va to`yinmagan uglevodorodlar. IOqoridagi moddalar moylarga yaxshi eriydi, xamda yoqori molekulyar massaga va past bug` bosimiga egadir. Uchuvchan moddalarning bug` bosimlari yog` kislotalarining bug` bosimiga yakin.

Uchuvchan moddalarning va yog` kislotalarning miqdori kamligi va bug` bosimini pastligi uchun ularning eritmalar ideal eritmalar xisoblanib ularning bug` fazasi Dalton konuniga buysunadi.

YOg`lardagi individual uchuvchan moddalarning va ozod yog` kislotalarning miqdori aniq bo`lmaganligi uchun xisoblashda, suyoqlik fazasi (yog`) ikkita komponentdan tashqil topgan deb kabo`l qilinadi, ya`ni uchglitserid va erkin stearin kislotosi. SHuning uchun stearin kislutaning kamayishi buyicha jezodoratsiya jarayoni nazorat qilinadi.

Tajribaga qoraganda dezodoratsiya qilingan yog`da stearin kislotasini miqdori 0.02 % -gacha bo`lsa, u xolda yog` xidsizlangan xisoblanadi.

Юqori sifatli dezodoratsiya qilingan yog` olish uchun umumiyl talablardan tashqari (юqori xarorat, past vakuum) quyidagi talablarga rioya qilish kerak:


1. Dezodoratsiya vaqtida юqori xaroratda yog`ni iloji boricha uzoq vaqt ushlash kerak emas.
2. YOg`larni, dezodoratsiyadan oldin deaeratsiya ya`ni xavosizlantirilishi shart.
3. YOg`larni qizdirganda, dezodoratsiya vaqtida va sovutish paytida namli xavo bilan kontaktda bo`lishidan saqlash kerak.
4. Dezodoratsiya tamom bo`lgandan keyin, uskunalar tuxtatilsa ulardan yog` bushatilishi va barcha qismlari юvib tozalanishi kerak.

YOg`larni dezodoratsiya qilish uchun turli dezodoratorlar ishlataladi:

- 1.Davriy (uzlukli) dezodoratorlar.
- 2.Uzluksiz ishlayditgan dezodoratorlar (De-Smet, Pinch-Bamag, Ole).

Davriy xidsizlantirish jarayonida xarorat  $170\text{-}210^{\circ}$  S bo`lsa, uzluksiz jarayonda esa  $230^{\circ}$  S gacha bo`ladi. Apparatlardagi qoldiq bosim 5 mm simob ustuniga teng bo`ladi. Vakuum xosil qilish uchun ko`pbosqichli bug`ejektorlar (bug`ejektor vakuumli nasos) ishlataladi.

### **Davriy dezodoratorning tuzilishi va ishlashi.**



Davriy usulda ishlaydigan dezodorator:

1 – kolrus; 2 – bug` uchun zmeevik; 3 – lrok; 4 – bug` uchun zmeevik; 5 – kirish uchun kamera; 6 – elliptik qopqoq; 7 – yon tomondagi shtutser; 8 – tindirgich; 9 – yog` uchun shtutser; 10 – olti dona vertikal spiral zmeevik; 11 – bug` uchun shtutser; 12 – olti dona kamera; 13 – dezodoratni quyish shtutseri; 14-18 – dona gorizontal forsunkali xarakatlanadigan qurilma.

Davriy dezodorator vertikal tsindralsimon uskuna bo`lib, sferik knopka va tagdan tashkil topgan. Davriy dezodoratorning юqori qismida suxorparnik (4),

tomchi ajratgich (5), qarash oynasi 6 joylashgan bo`lib, suxoparnikka konussimon shtutser (7) o`rnatilgan. SHu konussimon shtutser orqali yomon xid va ta`m beruvchi uchuvchi moddalar uchib chiqib ketadi. Uchuvchi moddalarni dezodaratsiya jarayoni vaqtida kondensatsiya bo`lmasligi uchun davriy dezodoratsiyaga mo`ljallangan moyni qizdirish, dezodaratsiya vaqtida moy xaroratini bir xilda ushlab va dezodaratsiya qilingan moyni sovutish uchun xizmat qiladi.

Tashqi zmeevik (10), qo`shimcha zmeevik (11) davriy dezodoratorning юқори qismida joylashgan moylarni qizdirish uchun xizmat qiladi. Bu esa dezodaratsiya jarayoni vaqtida ajralib chiqqang uchuvchan moddalarni bug`larini kondensatsiya bo`lmasligi sharoit yaratadi. Dezodoratorning pastki qismida joylashgan suv bug`i uchun mo`ljallangan barabtyor esa dezodaratsiya qilinayotgan moyni intensiv aralashtirishga va dezodaratsiya jarayonidagi xaroratni normal xolatda ushlab turishi uchun xizmat qiladi. Dezodorator uglerodli po`latdan tayyorlangan bo`lib, yog` bilan uchrashadigan devorning ichki юзаси esa zanglamydigian po`lat listi bilan qoplangan bo`ladi.

### **Dezodoratorning texnik ko`rsatkichlari.**

Unumdoligi	18-25 t/sut
To`liq xajmi	12,5 m <sup>3</sup>
Ishchi xajmi	5,4 m <sup>3</sup>
Tashqi diametri	2024 mm
Devor qalinligi	10 mm
TSlindr qismining balandligi	3500 mm
To`liq balandligi	5850 mm
Zmeeviklar soni	6 ta
Umumiy issiqlik almashish юзаси	35,4 m <sup>2</sup>
Dezodoratorning massasi	5012 kg

### **Ish rejimi**

Xarorati	170-210°S
Dezodoratorga qoldiq bosim (1,0-1,2 Kpa)	10-12 mm, sim.ust.
Dezodorator vaqtisi: o`simlik moylari uchun salomas uchun	3 soat
	2 soat
Suv bug`ining xarorati	210°S
1 gr dezodaratsiya qilingan yog` uchun suv bug`ining sarf bo`lishi	95 kg/g
Suv bug`i elektoriga sarflanadigan bosim	0,6
	133 kg/g

## Mpa bo`lgan suv bug`ining sarf bo`lishi

Suv bug`i elektorini sovutish uchun sarflanadigan  
suv miqori.

10 m<sup>3</sup>/g

### **DAVRIY DEZODORATORNING ISSIQLIK XISOBI.**

Davriy dezodoratorning issiqlik xisobini bajarish uchun issiqlik naima bilan kiradi va nima bilan chiqishini bilish kerak.

Issiqlik rafinatsiya qilingan yog` bilan kiradi. Dezodoratsiya qilingan moy uchib chiqqan uchuvchi moddalar bilan dezodoratordan chiqadi.

Rafinatsiya qilingan moyni dezodoratsiya jarayoniga yoborishdan oldin qizdirish uchun sarf bo`ladigan issiqlik miqdori quyidagi formula yordamda xisoblanadi.

Bu erda : dezodoratsiyaga yoborilayotgan moyning vaqt birligidagi miqdori  
(unumdorligi) kg/soat

- Rafinatsiya qilingan moyning issiqlik sig`imi (kJ/kg °S)

Moyning issiqlik sig`imini xaroratga qarab jadvaldan topiladi.


Dezodoratsiya qilingan moy bilan chiqayotgan issiqlik miqdori quyidagi formula yordamida xisoblanadi:

Uchib chiqayotgan uchuvchi moddalar (ya`ni stearin kislotasi) bilan chiqayotgan issiqlik miqdori quyidagi formula yordamida xisoblanadi:

Bu erda: -uchib chiqqan uchuvchi moddaning miqdori (kg/soat)  
- uchuvchi moddaning issiqlik sig`imi (kJ/kg °S)

### **De-smet dezodoratorining tuzilishi va ishlashi.**

De-Smet sistemasidagi dezodorator yog` va moylarni dezodoratsiya qilishda qo`llaniladi. Bu dezodorator sektsiyali kubdan 1-uskunaning pastki qismi va tsilindrsimon vertikal kolonnadan 2-yoqori qismidan tashkil topgan. TSilindrsimon korpus va qopqoq ikki qatlamlı devordan tashkil topgan bo`lib, u vakuum qo`ylagini xosil qiladi, bu esa juda xam kam issiqlikni yo`qolishini vujudga keltiradi. Dezodoratorning tashqi devori yomshoq po`latdan qilingan bo`lib, ichki devori esa zanglamaydigan po`latdan yasalgan. Dezodoratorning tsilindr qismini ichida 38 dona vertikal xolatda plastinkalar 7 o`rnatilgan. Bu plastinkalar zanglamaydigan po`latdan qilingan bo`lib, yog`ning iopqa va bir xil plyonkasini xosil qilish bilan bir qatorda yog`ni suv bug`i juda yaxshi uchrashishini tashkil qiladi. Tashqi qizdiruvchi zmeevik 3 uchuvchi moddalarning bug`larini kondensatsiya bo`lmasligini tashkil qiladi.



Узлуксиз усулда  
ишлайдиган дезадоратор:

- 1-пастки куб кисми;
- 2-ўртадаги цилиндр кисми;
- 3-киздириш учун змеевик;
- 4-бош қисми;
- 5-кўриши ойнаси;
- 6-пуркагич;
- 7-пластиналар;
- 8-буғ инжекторлар;
- 9-куйиши трубаси;
- 10-пастки змеевик

Dezodoratorning юқори тайландрилган сув буг`и билан moy uchrashib, birlamchi dezodoratsiya jarayoni bo`ladi. Dezodoratorning pastki qismi zanglamaydigan po`latdan yasalgan bo`lib konussimon tagdan va qopqoqdan tuzilgan. Dezodoratorning pastki qismi 1 то`сиqlar yordamida 7-ta simmetrik sektorlarga bo`linadi, bundan bittasi markaziy, qolgan 6-ta yon devoriga joylashgan. Xar bir sektorning ichida сув буг`ли injektor joylashgan bo`lib, u bir vaqtida teshik bo`lib, u orqali dezodoratsiya bo`layotgan yog` va moylar bir sektsiyadan ikkinchi sektsiyaga o`tadi. Faqat birinchi va oltinchi sektsiya orasidagi to`sida teshik bo`lmaydi. YOg`lar bir sektsiyadan ikkinchi sektsiyaga o`tishi bilan yog`ning dezodoratsiya bo`lish darajasi oshib boradi va oxirgi sektsiyasidan qutulish trubasi 9 orqali to`liq dezodoratsiya bo`lgan moy chiqib keyingi jarayonlarga iboriladi.

### Texnik ko`rsatkichlari


Unumdarligi	80 t/sut
Dezodoratorning ichida yog`ni o`tish vaqtি	25 min
To`liq xajmi	8.13 m <sup>3</sup>
Юқори qismini xajmi	4.10 m <sup>3</sup>
Pastki qismini xajmi	4.03 m <sup>3</sup>
YOg`ning sachratgichdan kirayotgan	
Vaqtidagi bosimi	1.0 Mpa
Qoldiq bosim (0.2-0.3 KPa)	2-3 mm.rt.st.
Kub	
Pastki qismining diametri	2400 mm
TSilindr qismini diametri	910 mm
Xarorat	220-240°S

### Deaerator (xavosizlantirgich) – issiqlik almashtirgichning tuzilishi va ishlashi

Moylarni uzluksiz ishlaydigan texnologik sxemada dezodoratsiya qilinganda, ularni birlamchi qizdirish va deaeratsiya qilish xam uzluksiz olib boriladi. Bunday uskunani deaerator – teploobmennik deb atashadi. Deaerator-teploobmennikda bir vaqtida dezodoratsiya qilingan yog` sovutiladi xam chunki yog`larni teploobmennikda qizdirish dezodoratsiya qilingan yog`ni issiqligi xisobiga olib boriladi.

Deaerator-teploobmennik tsilindrishimon korpusdan va sferik qopqoq bilan sferik tagdan iborat. Uskunaning ichida юзаси 55 m<sup>2</sup> bo`lgan zmeevik o`rnatilgan bo`lib u

yog`ni qizdirish uchun xizmat qiladi. Deaeratorni yoqori qismida patrubok bo`lib, u orqali yog` kirib purkagich yordamida purkaladi.



3.16-rasm. Dearerator issiqlik almashtirgich:

1 – taglik; 2 – tsilindr apparat; 3 – zmeevik; 4 – jelob; 5 – elliptik qopqoq; 6 – purkagich; 7 – xavoni chiqarish uchun shtutser.

Uskunaning pastki qismida kuzatish oynasini o`rnatish uchun, deaeratsiya qilingan yog`ni chiqishi, dezodoratsiya qilingan moyni kirishi va chiqishi uchun patruboklar o`rnatilgan.

Dearerator-teploobmennikda xavosizlantirish jarayonini olib borish uchun 7-purkagich orqali rafinatsiya qilingan moy 4-zmeevik yozasiga purkaladi (sochiladi). Zmeevik esa dezodoratsiya qilingan yog` bilan isitiladi. Buning uchun 1-patrubok orqali dezodoratsiya qilingan moy 220-240°S xarorati bilan zmeevikga beriladi. Natijada zmeevik qizib, o`z yozasiga sochilgan yog`ni qizdiradi va uni xavosizlantiradi. Xavosizlangan moy 12-patrubok orqali dezodoratsiyaga yoboriladi, dezodoratsiya qilingan moy 120-130°S gacha sovib, 11-patrubok orqali chiqadi va keyingi sovutishga yoboriladi.

#### Texnik ko`rsatkichlar

To`liq xajmi	4.54 m <sup>3</sup>
Isitish yozasasi	55 m <sup>2</sup>
Diametri	1600 mm
Balandligi	1900 mm

#### «Tayanch» so`z va iboralar

Dezodorator, dog`lash, davriy usul, uzlusiz-usul, zmeevik, barbotyor, De-Smet dezodoratori, Dearerator.

#### Takrorlash uchun savollar

1. Davriy usulda ishlovchi dezodoratorning tuzishi va ishlashi.
2. Davriy dezodoratorning issiqlik xisobi
3. De-Smet dezodoratorining tuzilishi va ishlashi.
4. De-Smet dezodoratorining texnik ko`rsatkichlari.
5. Dezodorator – issiqlik almashtirgichning tuzilishi va ishlashi.

## 4-MA`RUZA: YOG`LARNI GIDROGENLASH USKUNALARI

### Reja:

1. Avtoklavning qo`llash soxasi, vazifasi, klassifikatsiyasi.
2. Kolonna, avtoklav tipidagi reaktorlar, gazlift, tsirkulyatsion vodorodni tozalash va kuritish uskunalarini.
3. Skrubberlar.


Qattiq yog`larga va yog` kislotalarga bo`lgan sanoat extiyojini qondirish uchun siyuq yog`lar gidrogenlanadi. Buning uchun yog` isitilib, katalizator qo`shib, vodorod bilan to`yintiriladi. Bunda temperaturani, katalizatorni va uni miqdorini o`zgartirib turli ko`rsatgichga ega bo`lgan salomaslar olish mumkin. Masalan: margarin tayyorlash uchun ovqatbop salomas, atir va kir sovun tayyorlash uchun yoqori, pasttitrli salomaslar.

Odatda gidrogenizatsiyani ancha ortiqcha vodorod bilan olib boriladi. Ortiqcha vodorod aralashmalarga ega bo`ladi. Vodoroddan 2-chi marta foydalanish uchun uni tozalash, yangi vodorod bilan aralashtirish kerak va undan keyin avtoklavga berish kerak.

Gidrogenizatsiya kukunsimon mis-nikel katalizatori ishtirokida olib boriladi. Nikel-mis qimmatbaxo metallardir. SHuning uchun ular salomasdan ajratib olinadi va regeneratsiya qilinib, yana qaytadan gidrogenizatsiyada ishlatiladi.


Agar ishlatilgan katalizator etarli aktivlikka ega bo`lsa, uni yangi katalizatorga aralashtirilib qaytadan ishlatiladi.

Gidrogenizatsiya jarayonida katalizator va vodorodni aylanishi.



Gidrogenizatsiya korxonalaridagi uskunalar vodorod olish uskunalaridan, katalizator olish va qaytarishda qo`llaniladigan uskunalardan va gidrogenizatsiya jarayonini olib borishda qo`llaniladigan uskunalaridan tashkil topadi.

## YOg`larni gidrogenlashda ishlataladigan avtoklavni tuzilishi va ishlashi.



Мойларни гидрогенлаш учун автоклав:  
а) умумий куриниш,  
б) газлифт.

- 1-корпус;
- 2-ўқ;
- 3-люк;
- 4-мотор редуктор;
- 5-подшипник корпуси;
- 6-змеевиклар;
- 7-, 10- мойни бир автоклавдан иккинчисига ўтказувчи труба;
- 8-водород барботери;
- 9-тўкиш штуцер;
- 11-ташқи труба;
- 12-ички трубка

O`simlik moylarni gidrogenlashda qo`llaniladigan avtoklav vertikal xolatdagi tsilindrsimon uskuna bo`lib, sferik qopqoq va tagdan tashkil topgan. Avtoklav kislotaga chidamli metaldan yasalgan. Avtoklav ichida 2-ta zmeeviklar sistemasi joylashtirilgan bo`lib, xar bir sistema 3-ta zmeevikdan atshkil topgan. SHu zmeeviklar sistemasidan 1-tasi o`simlik moylarini gidrogenlash jarayonidan oldin qizdirish uchun qo`llaniladi. Qizdirish bosimi 2.5-3.0 Mpa bo`lgan suv bug`i yordamida olib boriladi.

Ikkinchi zmeeviklar sistemasi esa salomasni sovutish uchun xizmat qiladi. Avtoklav ichida turbinli meshalka joylashgan bo`lib, u minutiga 60-70 aylanish qiladi. Meshalka individual motor va reduktor yordamida xarakatga keltiriladi. Zmeevik o`ramlarining diametrлari liokning diametridan kichkina bo`lganligi uchun zmeevikni sozlash va almashtirish masalalari ancha osonlashadi. Avtoklavning юқори qismidagi tayanch konstruktsiyasiga partlashga xavfsiz motor bilan reduktor joylashtirilgan. Reduktor o`qi val o`qi bilan mufta yordamida birlashtirilgan.

Avtoklavda gidrogenlash jarayonini olib borish uchun avtoklavga ma`lum miqdorda o`simlik moyi va xisoblangan miqdorda katalizatorning moyli suspenziyasini solinadi. Keyin xaroratni 220-230°С etkazilib vodorod gazini vodorod barboteri yordamida xisoblanganligiga nisbatan 2-3 marta ortiqcha beriladi. Gidrogenizatsiya jarayoni tugagandan keyin xosil bo`lgan salomasni sovutish uchun 3-chi nomerli zmeeviklar sistemasiga sovuq suv beriladi. Sovutilgan salomas katalizator bilan birgalikda filtrlash jarayoniga yoboriladi.

### Texnik ko`rsatkichlari

To`liq xajmi	12.5 м <sup>3</sup>
Ishchi xajmi	6 т
Zmeeviklarning qizdirish юзаси	20 м <sup>2</sup>

Zmeeviklarning sovutish yozasi	16 m <sup>2</sup>
Uskunadagi bosimning miqdori	5.88 Mpa
Zmeevikdagi maksimal bosim miqdori	5.88 Mpa
Elektrodvigatelning elektr quvvati	11.4 kvt
Meshalkaning aylanish soni	72.5 ayl/min
Uskunaning diametri	2200 mm
Uskunaning balandligi	2600 mm
Uskuna korpus va tagini devorini qalinligi	8 va 12 mm

Gazlift 2ta vertikal trubadan tashkil topgan bo`lib 1,2 ular avtoklavning tagigacha tushirilgan. Ichki trubani diametri 12 mm bo`lib, pastki qismi yopiq va 3ta shtyr yordamida tashki trubaga mustaxkamlangan. Ichki trubaning pastki qismida 24 dona teshiklar qilingan bo`lib, ularni diametri 2-2.5 mm.

Tashqi trubaning diametri 89 mm. Tashqi trubaning pastki qismi ochiq bo`lib, uning tagi avtoklavning tagiga 30-40 sm yotmaydi. 4-chi flanets yordamida gazlift avtoklavning tagiga 30-40 sm etmaydi.

4-chi flanets yordamida gazlift avtoklavning yoqori qismiga birlashtirilgan. Vodorod ichki truba orqali avtoklav ichiga yoboriladi. Gazlift orqali yoborilayotgan vodorodning bosimi avtoklavga barboter orqali yoborilayotgan vodorodning bosimi avtoklavga barboter orqali yoborilayotgan vodorodning bosimiga nisbatan 0.04-0.06 Mpa yoqoridir. Gazlift orqali kirgan vodorod yog` bilan aralashib, tashqi truba orqali yoqoriga ko`tarilib birinchi avtoklavdan ikkinchi avtoklavga o`tadi.

Gazlift zanglamaydigan po`latdan yasalgan bo`lib, u avtoklavdan oson chiqariladi va sozlash vaqtida boshqasini qo`yish mumkin.

Gazlift bir avtoklavdan 2-chi avtoklavga yog`larni o`tishi uchun xizmat qiladi. Bu vaqtda birinchi avtoklavning yoqori qimidan chiqib, 2-chi avtoklavning pastki qismiga tushadi. SHuday qilib gazlift yordamida gidrogenlash jarayonini surunkasiga olib borish mumkin.

### NASADKASIZ SUVLI SKRUBBER

O`simlik moylarini gidrogenizatsiya qilish jarayoni vodorod gazining xisoblangan nisbatan 2-3 marta ko`p berilganligi sababli reaktorga kirishmagan vodorod gaz o`qi bilan salomas zarrachalarini olib avtoklavdan chiqadi. Vodorod tarkibidagi salomas zarrachalarini tozalash uchun nasadkasiz va nasadkali suvli skrubberlardan foydalilanadi.

Nasadkasiz suvli skrubberning tuzilishi va ishlashi.

Nasadkasiz suvli skrubberda vodorod gazini salomas zarrachalaridan tozalash uchun 7-patrubok orqali vodorod gazi beriladi va yoqori tomon xarakat qiladi. Unga qarama-qarshi qizdirilgan suv 3-purkovingich yordamida vodorod gazi ustidan sochiladi. Natijada vodorod tarkibidagi salomas zarrachalari yoviladi va skrubberning pastki qismiga yig`iladi. Keyin 5-gidravlik zatvor ichiga kirib, 10-shtutser orqali chiqib yog` ushlagich uskunasiga yoboriladi. Gidravlik zatvorda salomas qotib qolmasligi turiladi. Gidravlik zatvordagi salomasli suvni qizdirib turish uchun 6-zmeevikka 13-shtutser orqali suv bug`i beriladi, suv bug`i esa o`z issiqligini salomasli suvga berib, kondensat xolida 14-shtutser orqali zmeevikdan chiqib ketadi.


Salomas zarrachalaridan tozalangan vodorod gazi skrubber yoqorisiga joylashgan 8-shtutser orqali chiqib quritish jarayoniga yoboriladi. 4-llok yordamida skrubberning

ichki qismi tozalaniladi va tekshiriladi. Skrubber ma`lum vaqtga to`xtagan vaqtida skrubberining ichki qsmi inert gaz yordamida produvka qilinib tozalanadi.

Skrubberning texnik ko`rsatkichlari:

Umumiy xajmi	8 m <sup>3</sup>
Diametri	1500 mm
Umumiy balandligi	4500 mm

## NASADKALI SUVLI SKRUBBER



1-skrubberning korpusi 2-nasadka 3-gaz kiradigan truba 4-gidravlicheskiy zatvor 5-portlovuchi panel 6-shag`am  
7-analiz oladigan kran (jo`mrak) 8-tozalangan gani chiqishi uchun shtutser 9-suvni kirishi uchun shtutser

### Nasadkali suvli skrubberning tuzilishi va ishlashi.

Skrubber gazlarni sovutish va yovish uchun xizmat qiladi.

Agar skrubber foydalanilgan vodorodni sovutish va yovish uchun qullaniladi.U vaqtida N<sub>2</sub> gazini sovutish bilan birgalikda, uning tarkibidagi salomas zarrachalari tozalanadi. Skrubber bir-birlari bilan tuzilishi va beriladigan suvning berish xolati bilan farq qiladi.

Nasadkali skrubber vertikal, po`latdan yasalgan tsilindr bo`lib 2 dan 4 donagacha polkalar ustiga nasadkalar vazifasini 20-25 mm qalinlikdagi tozalanmagan diskalar bajaradi yoki ramiga xalkasi. Skrubberning o`lchamlari uning unumdorligiga qarab olinadi va diametrini balandligiga nisbati 1:4 ÷ 1:5 bo`lishi mumkin. Skrubberning ichidagi yovilgan suv yog` ushlagichga gidravlik zatvor orqali yoboriladi. Skrubberning yoqori qismiga portlaydigan panel (5) shag`am (6) va proba olish krani (7) joylashtirilgan. SHu qurilmalar yordamida skrubberdan produvka qilingan gaz chiqarilib yoboriladi. Portlovchi panelning yoqori qismi yog`langan qog`oz karteni bilan berkitilgan bo`ladi. SHag`am imorat tomonidan kamida 2 metr yoqorida joylashgan bo`lishi kerak, agar satxidan 12 metrdan kam bo`lmasligi kerak.

Skrubberni normal sharoitida ishlatish uchun nasadkaga berilayotgan suv bir tekisda berilish turishi kerak. Skrubber normal sharoitida ishlangan vaqtida uning yoqori qismi sovuq bo`lishi shart. Buning uchun berilayotigan suvning xarorati 20° S dan yoqori va chiqib ketayotgan suvni xarorati esa 45° S dan yoqori bo`lmasligi kerak. IOvish uchun berilayotgan suv tarkibida skrubber devorini zaglatuvchi yoki nasadkaga o`tiruvchi chiqindilar bo`lmasligi kerak. Skrubberdan chiqib ketayotgan vodorod gazining xarorati 25°S dan yoqori bo`lmasligi shart. TSex vaqtinchalik to`xtatilgan vaqtda skrubber umumiy setdan chiqarib qo`yilmaydi va gazgolder bosimidagicha bosimda saqlanadi. Agar skrubber sozlashga to`xtalsa, u vaqtd skrubber ichidagi vodorod inert gazi yordamida produvka qilinadi yoki suv bilan to`ldiriladi. Gidravlik zatvordagi suvni chiqib ketishidagi bosim 1.5 marta ko`p bo`lishi kerak.

Skrubberning ichidagi bosimga nisbatan xar yili skrubberning ichki devori natural alif yoki asfalt laki bilan qoplansa skrubber yaxshi saqlanadi. Ishdan chiqishi kamayadi.

Texnik ko`rsatkichlari:

Diametri 2000 mm

Umumiyligi 7665 mm

### **«Tayanch» so`z va iboralar.**

Gidrogenlash, katalizator, vodorod, avtoklav, zmeeviklar sistemasi. vodorod barbotyori, salomas, nasadkasiz skrubber, nasadkali skrubber,

### **Takrorlash uchun savollar**

1. YOg`larni gidrogenlash uskunalariga nimalar kiradi?
2. Avtoklavni tuzilishi va ishlashi.
3. Avtoklavni texnik ko`rsatkichlari
4. Nasadkasiz suvli skrubberning tuzilishi va ishlashi.
5. Nasadkali suvli skrubberning tuzilishi va ishlashi.

## **5-MA`RUZA: VODOROD ISHLAB CHIQARISH USKUNALARI**

### **Reja:**

1. Vodorod gazini olish usullari.
2. Elektroliz usulida vodorod olish uskunasi.
3. Elektrolyozrlar yacheykasi. Elektrolizer FV-500.
4. Gazgolderlar xakida tushuncha.

Vodorod gazini uch xil usul yordamida olinadi:


1.metanli tabiiy gazlarni konversiya qilish

2.Temir suv bug`i usuli


3.Suvnim elektroliz qilish usuli

4.Metanli tabiiy gazlarni konversiya qilish usuli bilan vodorod gazini olingan vaqtda quyidagi reaksiya yordamida olib boriladi:

Temir suv bug`i usuli bilan vodorod gazi olingan vaqtda quyidagi reaksiya yordamida olib boriladi:



Temir (III -oksidini) qaytarish reaksiyası, bu reaksiya okis uglerod yordamida olib boriladi




Bu reaksiyalar xam 950-1000° S xaroratda olib boriladi.

Suvni elektroliz qilish yo`li bilan vodorod gazini olingan vaqtda quyidagi reaksiya yordamida olib boriladi.

Elektr toki yordamida suv parchalanadi:



Xosil bo`lgan vodorod va gidroksil ionlari katod bilan anodga tortilib, molekulyar vodorod va kislorod gazlari xosil bo`ladi:




Xozirgi vaqtda eng toza vodorod suvni elektroliz qilish yo`li bilan olinadi.

VF-80 elektrolizeri elektrolizer yacheykalaridan tashkil topgan bo`lib, unda shaxsiy xolda suvni elektroliz jarayoni olib boriladi.

### ***VF tipidagi elektrolizerning tuzilishi va ishlashi.***

VF tipidagi elektrolizerlar unumdarligi bo`yicha: VF-80, VF-100, VF-250, VF-500 larga bo`linadi. Oxirgi sonlar ularni unumdarligini ko`rsatadi. Masalan: VF-80 [m<sup>3</sup>/soat]

Filtrpress ko`rishidagi biopolyar elektrolizer (E) FV-80, siqib turuvchi boltlar (1,2) va plita (3) yordamida birlashtirilgan aloxida yacheyka (7) dan tashkil topgan. 1,2 fundamentga o`rnatilgan chinni izolyator (6) ni ustida turadi. Elektr. Toki anod dan elektrolit, diafragma yana anker bilan elektrolit orqali o`tib katod (-) ga boradi, katoddan tok elektrolit, diafragma yana elektrolit orqali keyingi bipolyar elektrodnini anodiga o`tadi. Eni markazida (16) kamera bo`lib, u tsirkulyatsiya qiladigan elektrolitni sovutishga xizmat qiladi. Elektrodlarni ramadan izolyatsiyasi paranit prokladka bilan ta`minlanadi.



ФВ-500 электролизери:

1-электролизер; 2-мослама; 3-напор баки; 4-резервуар; 5-дистиллятор;  
6-электролит тайёрлаш учун бак; 7-насос; 8-электролит тўкиш учун коробка;

Doimiy elektr toki oxirgi anod-monopolyarga beriladi, u erdan ketma-ket eni yarim yacheykalaridan o`tib katod-monopolyarga boradi, keyin markaziy kamerani shinasi orqali eni 2-chi yarmiga, anod monopolyarga o`tadi, keyin qolgan yacheykaldan o`tib, katod monopolyargacha boradi, undan vypryamitelga qaytadi. Eda x.b. O<sub>2</sub> va N<sub>2</sub> elektrolit bilan birga maxsus kanallarga o`tadi, keyin elektrolitdan ajraladi. Gaz kanallari yarmigacha elektrolit bilant to`ldirilgan bo`ladi.

Elektrolitdagi gaz va elektrolit xarakatini ko`rib chiqamiz: gaz kanallarini o`rtadagi qalpog`idan gazlar 14 va 15 kondensatorlarga o`tadi. U erda gazlar suv bilan sovutiladi, va suv bug`lari kondensatsiyalanadi, xamda elektrolit zarrachalari ajraladi. 14 va 15 dan gazlar, gaz yig`uvchilarga 11,12 o`tadi, bu erda suv qatlami orqali barbotaj bo`ladi.


Gaz yig`uvchi to`sinqin yordamida 2 ga ajratilgan idish bo`lib, past tomonida truba bilan birlashtirilgan, bu truba katod va anod bosimlarini tenglashtirib turish uchun xizmat qiladi. Gaz yig`uvchida sovutuvchi truchatkasi bor. Gaz yig`uvchidan gazlarni chiqishi uchun ishchi trubalar bor. Uni xar bir bo`limida pastki qismi suvga tushirilgan atmosfera bilan birlashtiruvchi fonarli truba 8 bor. Bu truba gazyig`uvchini tagidan 95 mm balandda bo`ladi. Gazyig`uvchidagi suyuqlikni satxi 150-300 mm. Agar gazyig`uvchini biror bo`limida gaz bosimi oshib ketsa, u xolda suvni bir qismi 2-chi bo`limga siqib chiqariladi va gazyig`uvni bo`limlaridagi bosim farqitga mos xoldagi suv satxini farqi x.b. Agar gaz bosimi yanada oshib ketsa, u xolda 8 trubani pastki qismi ochilib qoladi va gaz atmosferaga chiqib ketadi, bu xol gazyig`uvchini xar ikkala bo`limidagi bosim tenglashguncha davom etadi. Xar bir bo`limni avariya va ishchi trubalari keyingi

kommunikatsiyalar bilan shisha fonarlar orqali birlashtirilgan. Bu fonarlar elektrolitni izolyatsiya qilish va elektrolitga distillyat quyilishini ko`rib turish uchun xizmat qiladi. Avariya va ishchi trubalar o`zaro ikki yo`lli klapan bilan birlashtirilgan. U elektrolitni ishga tushirganda yoki to`xtatganda, elektrolitni atmosferaga yoki gidravlik zatvoga ulash uchun xizmat qiladi.

Elektrolitlar yoki bipolyarli bo`ladi. Unipolyar elektrolitda elektrod katot yoki anod bo`lib xizmat qiladi. Bipolyar elektrolitda esa xar bir elektrodnii xar bir tomoni katod, ikkinchi tomoni anod vazifasini bajaradi. Bipolyar elektrolit ixcham bo`ladi. SHuning uchun sanoatda keng qo`llaniladi.

$N_2$  va  $O_2$  ajralib chiqishi uchun elektrodlar orasidagi potentsiallar ayirmasi 1,23 V ga teng bo`lishi kerak. Amaliyotda gaz ajralib chiqishi uchun ko`proq kuchlarni talab qilinadi. Bu farq perenapryajenie ( $P$ ) deb ataladi. ( $P$ ) perenapryajenie qancha katta bo`lsa gaz ishlab chiqarish uchun shuncha ko`p elektr energiyasi sarf bo`ladi. Fe eng kam katot perenapryajenieni beradi. Nikel esa eng kam anot perenapryajenieni beradi. SHuning uchun elektrot sifatida ishqor eritmasi ishlatilsa, katod Fe dan, anod esa nikellangan Fe dan tayyorlanadi.

## ELEKTROLIZYOR YACHEYKASI



Elektrolizer yacheykasi.

1 – ichi bo`sh po`lat rom; 2 – katod; 3 – anod; 4 – diafragma; 5 – kanal; 6 – xalqa simon kanal; 7 – xalqa; 5a – vodorod chiqish uchun kanal 5b – kislorod chiqish uchun kanal 6a – vodorod yig`ish uchun xalqa simon kanal 6b – kislorod yig`ish uchun xalqa simon kanal

Bipolyar elektrolitda elektrolizer yacheykasi (EYA) asosiy qism xisoblanadi. EYA ni asosini diafragmali rama tashkil qiladi. Ular bir-biridan elektrolitni izolyatsiyali prokladka bilan ajratiladi. Prokladkalar orasiga elektrod vazifasini bajaruvchi yaxlit metal list 4 qisib qo`yilgan. Demak, elektrod va difragmali rama 1 EYA sini tashkil qiladi. YAcheykani ichiga polka 2 ga astbestli difragma 3


maxkamlangan. Difragmani xar ikki tomonida chetga chiqarilgan elektrodlar 5,6 lar bor. 1 ni tepe qismida katod va anod tomondarida 2 ta teshik bor, bu teshiklarni chetiga 7 truba kavsharlangan, trubani ikkinchi uchi doirasimon xalqa 8 ga ulangan, ular elektroliz yig`ilganda katod va vodorod uchun kanallar xosil qiladi. YAcheykani pastki qisimda xam shunday xalqa bor bo`lib, elektroliz yig`ilganda elektrolit eritmasi uchun kanal xosil bo`ladi. Birinchi va Ixirgi yachevkalar monopolyar anod va katod bilan chegaralangan. Oxirgi monopolyar-anodga elektr toki ulangan. Elektr toki birin ketin xar bir yacheykadan o`tib, oxirgi katod-monopolyarga keladi va vyipryamitelga boradi.

YAxlit list birinchi yacheykani katod qismini, ikkinchi yacheykani anod qismidan ajratib, turuvchi devor vazifasini bajaradi. Uni pastki qismidan ajratib turuvchi devor vazifasini bajaradi. Uni pastki qisimda teshik bo`lib, undan elektrot eritmasi o`tib turadi.

### **Texnik ta`rif.**

Unumdorlik		80m <sup>3</sup> /soat
Tozalik darajasi	N <sub>2</sub> , %	99,8-99,9
	O <sub>2</sub> , %	99,0-99,5
YAcheyka soni		80
Elektrot xarorati	°S	
KON kontsentratsiyasi	g/l	320-280
Elektrolizerdagи kuchlanish	V	184
1m <sup>2</sup> diafragmatdagi tok zichligi	A	2500

### **GAZGOLDERNI UMUMIY KO`RINISHI**



4.4-rasm. Xo`l gazgolderning sxemasi: 1 – tsilindrik kolokol; 2 – ikkinchi truba; 3 – kran; 4 – yo`naltiruvchilar; 5 – truba; 6 – basseyн; 7 – zadvijka.

### **GAZGOLDERLAR**

Gazgolderlar gazlarni saqlash va uning sifatini bir xilda ushslash uchun xizmat qiladi. Gazning yog` sanoatimizda vodorod gazini saqlash uchun xizmat qiladi.

Gaz golderlari ikki xil tipda bo`ladi: namli va quruq gaz golderlar. Gaz golderlarning bosimi o`zgaradigan va o`zgarmaydigan bo`ladi. YOg` sanoatida

vodorod gazini saqlash uchun xizmat qiladigan gaz golderlar namli gaz golderlar bo`lib, o`zgarmas va o`zgaruvchan bosimga ega.

Gaz golderlar asosan qo`ng`iroq bilan suv xovizidan va yo`naltiruvchi konstruktsiyadan tashkil topgan bo`lib konstruktsi qo`ng`iroqli yomshoq va tekis xolatda ko`tarish yoki tushurish vazifasini o`taydi.

Gaz golderlar imorat ichiga olingan va bo`lishi mumkin. Imora ichiga olingan gaz golderlar ob-xavo ta`sirini sezmaydi. Ularning qo`ng`iroqlari qor va shamol ta`sirida xam turadi. Undan tashqari korroziyaga kam uchraydi. Bunday gaz golderlar qurish uchun ko`p sarflar talab qilinadi, ammo eksplutatsiya sarflari kamdir. Imorat ichiga olinmagan ya`ni tanxo turuvchi gazgolderlarda eksplatsion sarflar ko`proq bo`lsa xam, qurishi uchun sarflar kamdir. YOg` sanoatida vodorod gazini saqlash uchun tanxo turuvchi gazgolderlardan foydalaniladi.

Gazgolderlarning suv xavzalari metaldan yoki jelezobetondan tayyorlangan bo`lishi mumkin. Jelezobetondan yasalgan suv xavzasasi qurish uchun ko`p mabdag` talab qilsa, eksplatsion sarflar kam bo`ladi. Metaldan yasalgan suv xavzasini qurish uchun sarf kam bo`lsa, eksplatsion sarflar ko`pdir. Gazgolderning qo`ng`riq`i, xar doim po`latdan yasalgan bo`ladi.

Gazgolderlarni ishlatish uchun, uning suv xavzasiga suv to`ldiriladi, keyin vodorod gazi elektroliz tsevidan 7-tuvak va gaz gaz kiruvchi truba (3) orqali qo`ng`iroqning ichiga vodorod gazi kiradi. Ko`ng`irq to`lgan sari suv xavzasidagi suv 9-signal trubasi orqali chiqib turadi. Qo`ng`irq vodorod gazi bilan to`lish darajasiga etganda signal beriladi va gazni kelishi to`xtatiladi.

Vodorod gazini sarflash vapqtida vodorod gazi 4-truba va 7-tuvak orqali avtoklav tseviga ioboriladi. Vodorod gazini sarflanishi bilan qo`ng`iroq pastga tusha boshlaydi va pastki nuqtasiga yaqinlashgan vaqtida signal bo`ladi . SHu vaqtida gazni sarfini to`xtatish kerak, Vodorod gazi sarflangani sari suv xavzasini ichiga suv tusha boshlaydi.

### **«Tayanch» so`z va iboralar.**

Gidrogenlash, katalizator, vodorod, avtoklav, zmeeviklar sistemasi. vodorod barbotyori, salomas, nasadkasiz skrubber, nasadkali skrubber,

### **Takrorlash uchun savollar**

6. YOg`larni gidrogenlash uskunalariga nimalar kiradi?
7. Avtoklavni tuzilishi va ishlashi.
8. Avtoklavni texnik ko`rsatkichlari
9. Nasadkasiz suvli skruberning tuzilishi va ishlashi.
10. Nasadkali suvli skruberning tuzilishi va ishlashi.

## **6-MA`RUZA: KATALIZATOR ISHLAB CHIQARISH**

## USKUNALARI

### Reja:

1. Karbonat tuzlarini oladigan reaktor.
2. Asosiy mashina-kurilmalar tarkibi.
3. Kukunli katalizatorni olish, yovish va kuritish uskunalari.
4. Mikrotegirmon.


### KATALIZATORLARNI QO`LLASH VA QAYTARISH JARAYONIDA QO`LLANILADIGAN USKUNALAR.

Katalizatorlarni olish va qaytarish jarayonida ishlataladigan uskunalar quyidagilar:


1. Nikel va mis karbonat tuzlarini olish uchun qo`llaniladigan reduktor.
2. Katalizatorni quritishda ishlataladigan purkovchi minorali qurilma.
3. Katalizatorni maydalashda ishlataladigan mikrotegirmon.
4. Katalizatorni qaytarishda qo`llaniladigan reduktor.

Ioqorida qayd qilingan uskunalarning tuzulishi va ishlashi bilan tanishamiz.

Nikel va mis karbonat tuzlarini olish uchun 10% li  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NiSO}_4$ ,  $\text{CuSO}_4$  eritmalaridan foydalanamiz. Buning uchun reaktorning ma`lum qismi 10%-li  $\text{NiSO}_4$  va  $\text{CuSO}_4$  eritmalarini beriladi. SHu reagentlar o`rtasida kimyoviy reaktsiya boradi.



Karbonat nikeli va mis tuzlarini oladigan reaktor.




1-apparatning korpusi 2- apparatning korpusi tagi 3- apparatning silliq qopqog`i  
4- aralashtirgich 5-suv bug`i bilan xavo uchun barometr 6- elektrovdvigatel bilan  
reduktor 7-ko`pikni o`chiruvchi qurilma 8-xavo va suv bug`larini tortuvchi truba 9-  
nikel va mis korbonat tuzlarini chiqishi uchun shtutser. 10-quloq (lana)

Quyidagi reaktsiya 40°S da olib boriladi, natijada suvda erimaydigan nikel va mis korbonat tuzlari xosil bo`ladi. Ni va Cu korbonat tuzlarini olishda qo'llaniladigan reaktor po`latdan yasalgan tsilindr simon uskuna bo`lib, silliq qopqoqdan va konussimon tagdan tashkil topgan reaktorning ichki qismiga kislotaga chidamli bo`lgan plita yopishtirilgan. Apparat ichiga parrakli meshshalgka joylashtirilgan bo`lib, uning юқори qismiga ko`pik o`chiruvchi qurilma o`rnatalilgan. Parrakli meshalka elektrodvigatel va reduktor yordamida xarakatga keltiriladi. Reaktorning pasitki qismiga suv, bug` va xavo uchun barabayor joylashtirilgan.

**Katalizatorni quritishda qo`llanadigan purkovchi minorali quritgichning tuzilishi va ishlashi.**

Purkovchi minorali quritgich yordamida katalizatorni quritgan vaqtimizda qurigan katalizator tuzlari mayda dispers xolatdagi poroshok bo`lib, ularni maydalash talab etiladi.



## Катализаторни қуритиш учун пурковчи минорали қурилма


- 1-куритгичнинг девори;
  - 2-катализатор суспензиясини нормал бериб турувчи қурилма;
  - 3- сачратиб берувчи диск;
  - 4-мотор билан редуктор;
  - 5-катализаторни йигувчи механизм;
  - 6- чангни ушлаб қолувчи фильтр;
  - 7-шнек, йигувчи;
  - 8-аралаштиргич.

Minorali purkovchi quritgichning ishlash printsipi quyidagicha : 90-93% li namlikka ega bo`lgan katalizator tuzining suspenziyasi quritish kamerasining yoqori qismida normal xolatda berib turuvchi qurilma kamerasining yoqori qismidan normal xolatda berib turuvchi qurilma (2) yordamida kamera ichidagi sachratib beruvchi disk ustiga beriladi. Sachratuvchi disk minutiga 3-7 ming tezlik bilan aylanadi. Natjada katalizator suspenziyasi kamera xajmi bo`yicha sachratiladi. Sachratuvchi disk elektromotor va reduktor (4) yordamida xarakat keltiriladi. Katalizator suspenziyasining xarakatiga qarama-qarshi xolatida calorifer yordamida qizdirilgan issiq xavo bilan katalizator suspenziyasi uchrashgan vaqtda quritish jarayoni davom etadi. Foydalanilgan issiq xavo katalizator zarrachalarini o`zi bilan olib yoqoriga ko`tariladi va chang ushslash filtriga kiradi. Chang ushslash filtrida xavo katalizatori zarrachalaridan tozalangandan keyin atmosferaga chiqib ketadi. Katalizator zarrachalari esa filtrning pastki qismiga yig`iladi. Quritish kamerasida qurigan katalizator kameraning pastki qismiga tushadi va yig`uvchi mexanizm (5) yordamida 7-yig`ish shnegiga uzatiladi va 8-meshalkaga tushadi. Meshalkadan katalizatorning moyli suspenziyasi tayyorlanib qaytarish jarayoniga yoboriladi.

## Purkovchi minorali quritgichning texnik ko`rsatgichlari:

1	Unimdorligi	1543kg/sutka
2	Diametri	5000 mm
3	Balandligi	5500 mm
4	Sachratgich diskning aylanish tezligi	3-7 ming
5	Katalizator suspenziyasining bolang`ich namligi	90-93%
6	Qurigan katalizatoning namligi	10%
7	Qizdirilgan xavoning xarorati	100-120°S

### MIKROTEGIRMON



1 – mikrotegirmonning devori; 2 – rotor; 3 – bolg`a; 4 – rotoring o`qi; 5 – bronevaya plita; 6 – ta`minlovchi shnek; 7 – katalizatorni normal xolatda berib turuvchi shiber; 8 – setka; 9 – saqlovchi panjara; 10 – bunker; 11 – setka razmeri 0,5 mm dumaloq bo`lmaganini o`lchami 0,6x8 mm; 12 – ishber; 13 – xalqa; 14 – yig`uvchi banka; 15 – filtr.

### **Katalizatorlarni maydalashda qo`llaniladigan mikrotegrmonlarning tuzilishi va ishlashi.**

Tez aylanuvchi rotor va sharnir yordamida qatiqlangan bolg`alar maydalagichga mikrotegrmon deb ataladi. Mikrotegrmonda katalizatorning maydalanishi uning ezilish, chaqilishi va oz miqdorda tiynalish xisobiga boradi. Bu jarayon katalizator zarrachalarining bog`ochlarning bronevoy plitaga va zarrachalarning bir-biriga urilishi xisobiga boradi. Tanishayotgan mikrotegrmon sakkiz bolg`ali mikrotegrmon deb ataladi. Maydalagichning devori cho`yandan yasalgan bo`lib, uning ichida rotor bolqalar bilan birgalikda aylanadi. Bolqalar rotor o`qiga maxkamlangan. Mikrotegrmon devorining pastki qismida diametri 0,5

mm teshiklar joylashgan. Rotor aylangan vaqtida katalizator tushadigan bunker orqali xavo so`riladi. Uchib ketayotgan xavo esa katalizatorning mayda zarrachalari bilan birgalikda 15-filtrga yo`naladi va xavo katalizator zarrachalaridan tozalanib atmosferaga chiqib ketadi. Maydalangan katalizator esa 11-setka orqali o`tib, shibr (zaslonka) (12) yordamida bak-yig`uvchiga uzatiladi.

### **Mikrotegrmonning texnik ko`rsatgichlari**

1.	Unimdonligi	1000 kg/soat
2.	Rotoring aylanish tezligi	4300 ayl/min
3.	Elektromotoring quvvati	19 kVt
4.	Elektromotoring aylanish soni	1450 ayl/min
5.	Gabarit o`lchamlari	MxLxH=1550x1825x2175
6.	Massasi	1000 kg
7.	Maydalanish darajasi	1 sm <sup>2</sup> da 10200 dona teshigi bor setkadan 95%-katalizator moddasi o`tadi

### **«Tayanch» so`z va iboralar.**

Katalizator, katalizatorni qaytarish, reaktor, quritgich, mikrotegrmon, quritish kamerasi, maydalagich, retorta.

### **Takrorlash uchun savollar.**

5. Katalizatorni olish va qaytarishda ishlataladigan uskunalar nimalardan iborat?
6. Nikel va mis karbonat tuzlarini oladigan reaktorni tuzilishi va ishlashi.
7. Purkovchi minorali quritilgichning tuzilishi va ishlashi.
8. Mikrotegrmonning tuzilishi va ishlashi.

## **7-MA`RUZA: MARGARIN TAYYORLASH USKUNALARI**

### ***Reja:***

*Uskunalar klassifikatsiyasi.*

*Tanklar va ivitish vannalari. Pasterizatorlar.*

*Margarin maxsulotlarini dozalash uskunalari.*

*Emulsiyalash va gomogenlash uskunalari. Aralashtirgich. Emulgator. Gomogenizator. Ammiakli sovitgich-kristallizator.*

Margarin zavodlarida margarin, oshpazlik (kulinar) va qandolat (konditer) yog`lari ishlab chiqariladi.

Retseptura bo`yicha margarin tarkibiga ko`pgina komponentlar kiradi va ularni aralashmasi 2 xil bo`ladi. Birini faqat yog`lardan iborat bo`lgan qismini yog`li faza, 2 chisini suv-sut fazasi deyiladi. Fazalar aralashtiriladi, emulsiya xosil qilinadi, sovutiladi va kristallizatsiya qilinadi, margaringa ma`lum oragnoleptik sifat ya`ni konsistentsiya, qattiqlik, ta`m, ma`za va xid berish uchun.

Oshpazlik va qandolat yog`larini tarkibida suv yoki sut bo`lmaydi, lekin ayrim qo`shimchalar qo`shiladi.

#### Uskunalarni klassifikatsiyasi

Margarin tayyorlash uskunalarini quyidagicha klassifikatsiyalarini:

1. Faza va komponentlarni tayyorlash uskunalarini
2. Emulsiya xosil bo`lgan va gomogenizatsiyalarini
3. Sovutish va kristallizatsiyalarini
4. Tovar ko`rinishini berish

#### Sutni saqlash va qayta ishslash uskunalarini

Sut margarinni asosiy komponentlaridan biri xisoblanadi Uni pasterizatsiya qilinadi va ivitiladi (skvashivanie).

### PASTERIZATORLAR.

Sutni ichidagi mikroblarni yo`q qilish ya`ni xarakatsizlantirish issiqlik ta`sirida olib boriladi. Buning uchun sutni ma`lum vaqt ichida 63-85°S gacha isitish kerak. SHu yo`lni ya`ni isitish natijasida mikroblar o`ldirish (xarakatsizlantirish) birinchi marta Paster tomonidan bajarilgan. SHuning uchun shu jarayonni pasterizatsiya deb atalgan.


Pasterizatsiya jarayonini 2 xil xaroratda olib borish mumkin.

5. Qisqa vaqt ichida pasterizatsiya qilish bu jarayon 90-95°S da va 15-20 minut davom etadi.
6. Uzoq muddatli pasterizatsiya, bu jarayon 65-75°S da olib borilib, 30 minut shu xaroratda ushlab turiladi.

Xozirgi vaqtida yog`larni qayta ishslash korxonalarida sutni plastinkali va turbali pasterizatorlar yordamida pasterizatsiya qilinadi.

Odatda 90-95° S da pasterizatsiya qilib, 20-30 min ushlab turiladi.

### PLASTINKALI PASTERIZATOR



Plastinali pasterizatorning ishlash sxemasi:

1 – nasos; 2 – boyler; 3 – regeneratsiya sektsiyasi; 4 – pasterizatsiya sektsiyasi; 5 – suv bilan sovutish sektsiyasi; 6 – nomokob bilan sovutish sektsiyasi; 7 – avtomatik klapon; 8 – saqlagich; 9 – tozalagich seperator; 10 – me`yoriy bak; 11 – regulyator; 12-sut nasosi.

Plastinkali pasterizatorda sutni kam pasterizatsiya, xam sovitish jarayoni olib boriladi. Pasterizator shtampovka qilingan zanglamaydigan po`latdan yasalgan tug`ri burchagqli plita (1) dan tashkil topgan. Plita tanasida ariqchalar yasalgan bo`lib, uni yig`gan vaqtida kanallar xosil bo`ladi va shu kanallar orqali pasterizatsiya qilinadigan sut ioradi. Plitalar umumiyligi stadinaga (2) yig`iladi va ularni bir biriga ikkita siquvchi boltlar (3) va (4) chi chaykalar yordamida maxkamlab qo`yiladi. Plastinkalar orasiga rezinali prokladkalar qo`yiladi. Plastinkali pasterizatorni yig`gan vaqtimizda 4ta sektsiya xosil bo`ladi.

Sektsiya:

A- pasterizatsiya qilingan sut vodoprovod suvi bilan sovutiladi

B-pasterizatsiya jarayoni boradi

V-yangi sut pasterizatsiya qilingan sut yordamida qizdiriladi

G-pasterizatsiya qilingan sut yax suv yordamida 8-10°gacha sovutiladi.

Agar pasterizatsiya qilingan sut tezda qayta ishlash jarayoniga yoborilmasa, u vaqtida pasterizatsiya qilingan sut –sektsiyasida yax suv yordamida 8-10°S gacha sovutiladi. Pasterizatsiya qilinadigan sut nasos yordamida 0.3-0.35 Mpa bosim ostida uzatiladi. Pasterizatorning to`g`ri yig`ilganligini tekshirish uchun u orqali soviq suv o`tkaziladi. Keyin pasterizatorning b-sektsiyasiga bug` va sut beriladi. Pasterizatsiya jarayoni dastlab to`liq maxsuldarlik bilan bormaydi. Qachon pasterizatorda xarorat kerakli nuqtaga ko`tarilgandagina pasterizator to`liq unum bilan ishlaydi. Pasterizatsiya jarayoni tugagandan keyin pasterizator suv bilan yoviladi. Pasterizatorni yovish va tozalash jarayonlari pasterizatorni sochilgan yoki yig`ilgan xolatlarida olib borilishi mumkin. Pasterizator sochilgan bo`lsa uning plastinkalarining yozasi  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmasi yordamida tozalanadi. Agar pasterizator yig`ilgan bo`lsa nisbati 1:150 bo`lgan azot kislotasi va suv aralashmasi bilan tozalanadi, ya`ni shu eritma nasos yordamida pasterizator orqali 30-40 minut


davomida o`tkaziladi. Keyin pasterizator suv bilan ювилиб, yana u orqali 50° S gacha isitilgan 1:150 nisbatdagi NaOH va suv eritmasi 30-40 minut davomida o`tkaziladi. Keyin suv bilan ювилиди. Pasterizator bir xaitada bir marta echilib uning xolati kuzatiladi. Pasterizatorning ishlab chiqarish unumdorligi (ICHU) 3000, 5000 kg/soat bo`lishi mumkin.

O`lchamlari: h=1420mm ; L=2050mm; a=880mm.

### Trubali pasterizatorlar.


Xozirgi vaqtida sutni pasterizatsiya qilish uchun sanoatda trubali pasterizatorlar keng qo`llanilmoqda. Bular P8-OUV nomli avtomatlashtirilgan qurilma va PT-5 markali trubali pasterizatorlardir.

PT-5 trubali pasterizator 2 ta gorizontal teploobmennikdan iborat bo`lib, ularni ichida trubalar joylashtirilgan. Xar bir teploobmennikda sut bordi-keldi xarakat qiladi. Pasterizatsiyaning temperaturasi 110-120°S



1-teploobmenniklar 2-trubalar

### Sutni (kvasil) ivitish vannasi



5.8—расм. Ивitiш ваннаси:

- 1-корпус; 2-буғ-сув кўйлаги; 3-труба-маятникли аралаштиргич; 4-кран;
- 5-электродвигател; 6-харакатга келтирувчи механизм; 7-қопқоқ; 8-даста.

Kvasil vannasi (KV) sutni uvitish uchun xizmat qiladi. Uvigan sut margarin tarkibini yaxshilaydi va margaringa sariyog`ga o`xshash ta`am va xid beradi. Bundan tashqari qatiq margarinni saqlash muddatini oshiradi.

Kvasil vannasidagi xarorati 26-28°S cha etkanda unga tomizg`i qo`shiladi, aralashtiriladi va shu xaroratda 10-12 soat tinch qoldiriladi. Uvigan sutni kislota soni 60-65°T ga etgandan keyin uni 8-9°S gacha sovitilib, to foydalanguncha shu xaroratda saqlanadi.


Kvasil vannasi quyidagi qismlardan iborat: korpus, sutni isitish yoki sovitish uchun xizmat qiladigan g`ilof, rezervuarni ichiga mayatnikli meshalka (tebranuvchi meshalka) (2) joylashtirilgan, u Kvasil vannasini silliq qopqog`i yoniga o`rnatilgan krivoship-shatunli mexanizm (6)yordamida xarakatda keltiriladi. Kvasil vannasi yarim tsilindr ko`rinishda bo`lib ichki qismi misdan (qalinligi 0.9-1.5 mm) yasalgan, misni ustki qismi oziq-ovqat qo`rg`ashini bilan qoplangan (futirovka qilingan). Kvasil vannasi tashqi devori 2.5-3 mm qalinlikdagi po`lat listlardan yasalgan. Mayatnikli meshalka trubali konstruktsiyali bo`lib, ichki qismi bo`shliq va 2ta kolektorga biriktirilgan. Trubalar suv yoki tuzli eritma xarakat qiladi. Mayatnikli meshalka zanglamaydigan po`latdan iborat bo`lib minutiga 8-15 silkinish qiladi. Meshalkaning aylanish burchagi 150°, motorning quvvati 0.5-1 kVt. Sutni sovitish uchun meshalkani trubasiga yoki Kvasil vannasini g`ilofiga suv yoki tuzli eritma beriladi. Kvasil vannasi xajmi 2m<sup>3</sup>, balandligi 947 mm va kengligi 1070 mm.

Sutni uvitish uchun Kvasil vannasidan tashqari RCH-OTM, TUM markali tanklar xam ishlatiladi.

#### **Tanklarning texnik ko`rsatkichlari.**

Markasi	RCH-OTM-2	RCH-OTM-4
Foydali xajmi, l	2000	4000
To`liq xajmi	2150	4250
Ichki diametri, mm	1310	1700
Izolyatsiya qalinligi,mm	32	32
El.dvigatel quvvati	1.1	1.1
Meshalka xarakati, ayl/min	23	23
Tashqi diametri,mm	1427	1827
Balandligi	2350	2630

#### **MARGARIN EMULSIYASINI TAYYORLAYDIGAN ARALASHTIRGICHNING TUZILISH VA ISHLASHI**



#### 5.10-расм. Арапаштиргич:

1-электродвигател; 2-редуктор; 3-муфта; 4-узатманинг рамаси; 5-қопқок; 6-компонентларни киритиш учун патрубок; 7-термометр; 8-коргич; 9-корпус; 10-сув күйлаги; 11-эмулсия чиқадиган патрубок; 12- кия таглик; 13-суяңчик (тиргаклар); 14-тўкиш крани; 15-штутцер; 16-қайтаргичлар


Aralashtrigich margarin komponentlarining xaroratini tenglashtirish va birlamchi (yirik) emulsiya olish uchun xizmat qiladi.

Aralashtirgich vertikal tsilindsimon uskuna bo`lib, kislotaga chidamli po`latdan yasalgan, silliq qopqoq va tagdan tashkil topgan. G`ilof emulsiyani xaroratini bir xil ushlab turish uchun xizmat qiladi. Meshalka emulsiyani intensiv aralashtiradi.

## Texnik ta`rifi

Xajmi foydali 2.4 m<sup>3</sup> N-3442 mm L -2035 mm D – 1550 mm  
Meshalkani aylanma soni 59 ayl/min  
Quvvati el.dvigatel 7.5 kVt

## VOTATORNI ISHCHI TSILINDRINI TUZILISHI VA ISHLASHI



5.13-расм. Ўта совутқыч (вотатор):

а-умүмий күриниши, б-цилиндрлар блоки.

- а) 1-вотаторнинг ғилоғи (станица); 2-цилиндрлар блоки; 3-совутиш системаси;  
б) 1-пичоклар; 2-ичи бўш вал; 3-ички цилиндр; 4-ташқи цилиндр.

Sovitgich-vatator margarin emulsiyasini maydalash va sovitish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonlar ketma-ket ulangan 3 ta yoki 4 ta ishchi tsilindrlarda amalga oshiriladi va xar xil issiqlik rejimlarida olib boriladi.

Votatorning ishchi tsilindrlari juda muxim uzellardan biri bo`lib xromlashtirilgan uglerodli po`latdan tayyorlangan. TSilindrni ichidagi g`ovak val

zanglamaydigan po`latdan yasalgan va (3) va (4) o`qlar orqali podshipnik yordamida votator korpusiga maxkamlangan. G`ovak valni ichiga 36-40°S li suv beriladi, natijada val qiziydi va unda margarin emulsiyasi qotib qolmaydi. Valga 12 dona pichoq shpilka yordamida o`rnatilgan. Pichoqlar valga juda qattiq qilib biriktirilmagan bo`lib, ular gorizontal va vertikal xolatlarni egallashlari mumkin. Pichoqlar ishchi xolatida valni aylanishi vaqtida markazdan qochma kuch ta`sirida tsilindrni ichki yozasiga zich yopishib, sovigan emulsiyani bir tekisda qirib oladi. Ishchi tsilindr suyuq ammiak yordamida sovitiladi. Ammiak nasos yordamida vatatorning bug`latish kamerasiga (6) yoboriladi, uni ustida izolyatsiya (8) (50 mm qalinlikda) bo`lib, izolyatsiyani usti po`lat listlar bilan qoplangan (7). Sovitish tsilindrini ishi pichoqlarni valga qaysi xolatda o`rnatilganiga bog`liq. Agar pichoqlarni ishchi yozasi bilan tsilindrni devori orasidagi oraliq ko`payib ketsa emulsiya tsilindr yozasidan sidirib olinmaydi, aksincha pichoqlar tsilindr yozasiga qattiq tegib tursa ortiqcha ishqalanish vujudga keladi, bu esa elektr quvvatini ko`proq sarf bo`lishiga olib keladi, axmda pichoqlar bilan tsilindrni tezroq ishdan chiqaradi.

### **Texnik ta`rifi**

Vatatorni ishlab chiqarish unumdorligi	2500-2800 kg/soat
Soviqni sarfi	76560 Vt
Emulsiyani kirishdagi xarorati	38-40°S
Emulsiyani chiqishdagi xarorati	12-14°S
Emulsiyani ishchi tsilindr ichidagi bosimi	2.4 Mpa
Pichoqlarni aylanish tezligi	550 ayl/min
Emulsiyani tsilindr dan o`tish vaqtি	14-16 sek
El.dvigatel quvvati	22 kVt
O`lchamlari:	
L – 2138 mm	
A -2100 mm	
H -2080 mm	
Vatator tsilindr larining sovitish yozasi	1.07 m <sup>2</sup>
Ishchi tsilindr larining xajmi	0.009 m <sup>3</sup>
Ishchi tsilindr larining diametri	0.101 m
Valning diametri	0.082 m
TSilindrni uzunligi	1.12 m

### **8-MA`RUZA: YOG`LARNI PARCHALASH VA**


### **GLITSERIN OLISH USKUNALARI**

Reja:

1. Avtoklavlar

2. Bosim kamaytirgich
3. Glitserinli suvni buglatish kurilmasi.
4. Isitgich va separator-kontsentratorning tuzilishi va ishlashi.
5. Glitserinni distillyatsiya kilish uskunalarini.

YOg`larni gidroliz qilish yoki parchalash deb, glitseridlarni suv bilan reaktsiyaga kirishib, glitserin va yog` kislotalarini xosil bo`lishiga aytiladi. Reaktsiyaning umumiy ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:



Bu reaktsiya printsipli xarakterga ega bo`lib, aslida gidroliz bosqichma-bosqich boradi (3 bosqichda) va oraliq moddalar –mono, diglitserid xosil bo`ladi. Uchglitseriddan nazariy jixatdan 10,47% glitserid xosil bo`ladi va neytral yog`dan qancha glitserid xosil bo`lishi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$X=0,0547 \text{ K, \%}$$

Bu urda K-yog`ni sovunlani koefitsienti


YOg`larni parchalash reaktivsiz va reaktivli (kontaktli) usullarda olib boriladi. Reaktivsiz usul sanoatda keng tarqalgan bo`li, yoqori xarorat ( $220-225^\circ\text{S}$ ) va bosim (20-25 atm) da olib boriladi. Reaktivsiz usulni davriy va uzlusiz olib borilganda xam assosiy uskunala va bosim pasaytrgich kiradi.

### **YOG`LARNI PARCHALASH UCHUN AVTOKLAV.**

Avtokla yog`larni parchalash uchun xizmat qilib, bu jarayon natijasida glitserinli suv va yog` kislotalari xosil bo`ladi. YOg` kislotalari yoqori xaroratda juda aggressiv ta`sir qilgani uchun avtoklav

Kislotaga chidamli bo`latdan yasalgan. Avtoklavni xamma ichki detallari xam kislotaga chidamli bo`latdan tayyorlangan. Avtoklavni tashqi yozasi 150 mm qalinligi izolyatsiya bilan qoplangan. YOg` va suv avtoklavni tagigacha etadigan (2) truba orqali kiradi. SHu truba orqali birinchi glitserinli suv chiqariladi. YOg` kislotalari va 2chi glitserinli suv (2) trubaga paralel qilib tushirilgan va avtoklavni tagiga 0,7 m etmaydigan truba orqali siqib chiqariladi. Trubani avtoklavni tagiga etmasligi 1,3t glitserin suvni qolishini ta`minlaydi va bu 1-davr parchalanishi uchun ishlatiladi. (3) truba orqali yoqori bosimli bug` beriladi. Uni oxirida barbatyor (4) bor, ochiq bug` uchun. (5) truba orqali (7) diframa orqali avtoklavdan soatiga 200 kg ga yaqin bug` chiqarib turiladi. Avtoklavni to`ldirish paytida xavo (9) krandan chiqarilib yoboriladi. Sovutish paytida xuddi shu kran orqali avtoklavga xavo beriladi. Avtoklav qopqog`i ustida suxoparnik (7) bor va avtoklav tayanchlar ustiga o`rnatilgan. Avtoklav kislotaga chidamli bo`latdan yasalgan namunaolgich bilan ta`minlangan. Uni yordamida 0,5-1,0 l suyoqlik olsa bo`ladi.

Parchalash jarayoni tamom bo`lgandan so`ng avtoklav ichidagi moddalar bosim pasaytirgichga yoboriladi.



YOg`larni parchalash uchun avtoklav.


1 – avtoklavning to`liq payvandlangan tsilindrik korpusi ustki va ostki sferik qopqoqlari bilan; 2 – yog` va kondensat beriladigan trubka; 3 – yoqori bosimli bug` beriladigan trubka; 4 – sferik qopqoqdagi tuynuk (liok); 5 – yog` kislotalari va ikkilamchi glitserinli suv siqib chiqariladigan trubka; 6 – bo`shtishi shtutseri; 7 – tayanch oyoqlar; 8 – termoizolyatsiya; 9 – rezbali biriktirish muftalari; 10 – nazorat oynasi.

#### **Texnik ta`rif**

To`la xajmi	10 m <sup>3</sup>
Ish xajmi	8,2 m <sup>3</sup>
Diametri	1600 mm
Balandligi	6480 mm
Massasi	7200 kg
Ishlab chiqarish quvvati	12 t/sutka
Ishchi bosimi	2,5 Mpa
Avtoklavdagi xarorat	225°S

## LABIRINTLI BOSIM PASAYTIRGICH

Юқори xароратли гидролиз максулотлари реактordan чиқайотгanda юқори xароратга va босимга eга bo`лади. YОg` kislotalari va glitserinni qayta ishlash odatda past xароратда va босимда оlib boriladi. Masalan: labirintli босим pasaytirgichda. Bu apparat tsbindrsimon idish bo`lib, sferik qopqoq va tagdan iborat.



Сополи босим туширгич:

- 1-корпус;
- 2-конуссимон труба;
- 3-сопло;
- 4-томчи ажратгич;
- 5-буғ чиқариш трубаси;
- 6-туйнук;
- 7-штуцер;
- 8-манометр учун штуцер;

Босим туширгич–иссиқлик алмаштиргич:

- 1-цилиндрик корпус;
- 2-ёғ кислоталари змеевиги;
- 3-глицеринли сув змеевиги;
- 4-буғ чиқиш трубаси;
- 5-змеевик.

Apparat kislotaga chidamli po`latdan yasalnag bo`lib, muxofaza klapani, manometr, ikkilamchi bug`ni chiqarish uchun truba bilan jixozlangan.

Apparatni ichiga, bir-birini ichida turuvchi va diametri 105-186 mm bo`lgan maxsus kengaytiruvchi labirintlar (3), (4), diametri 14 mm bo`lgan sopol (2) joylashtirilgan.

Xosil bo`lgan bug`lar qaytargich orqali o`tib, (7) shnekdan chiqib ketadi. Ajralgan suyuqlik balandligi 350 mm bo`lgan (5) truba orqali quyib olinadi, xosil qilingan gidravlik zatvor yog` kislota lari va glitserinli suv bilan suv bug`ini chiqib ketmasligi ta`minlaydi. Apparat 0,12 Mpa bosimda ishlashga mo`ljallangan.

### Texnik ta`rifi

Diametri	1100 mm
To`liq balandligi	1450 mm
To`liq xajmi	1,4 m <sup>3</sup>
TSlindr qismini balandligi	1,2 m

Avtoklavda chiqayotgan maxsulotlar birin ketin xajmi kattalashgan labirintlardan o`tadi va ularni xarorati xamda bosmim pasayadi, bunda katta miqdorda suv bug`i xosil bo`лади.

## GLITSERIN ISHLAB CHIQARISH USKUNALARI. ISITGICH


Texnik glitserin qayta ishlab, undan distillangan, kimyoviy toza, dinamit va tibbiy maqsadlarga ishlataladigan glitserinlar olinadi. Iqoridagi glitserinlarni olish uchun Ruimbek va Skot tipidagi texnologik uskunalardan foydalaniladi.

Ruimbeka tipidagi texnologik sxemada asosiy uskunalar isitgich bilan disstillyatsion kubdir.

Isitgich tslindrsimon uskuna bo`lib, elipssimon qopqoqdan tashkil topgan. Isitgich ikki qismidan iborat bo`lib, ular fdyanets yordamida birlashtirilgan. Apparatni pastki qismida 3 ta tslindrsimon zmeevik joylashtirilgan bo`lib, ularni qizdirish uchun bosimi 0,3-0,4 Mpa ga teng bo`lgan suv bug`i beriladi. Qizdirish jarayonini olib borish uchun 5-chi shtutser orqali texnik glitserin berilib 90°S gacha isitiladi. Qizdirish natijasida xosil bo`lgan suv bug`i (8) shtutser orqali chiqib kondensatorga yoboriladi. Qizdirish jarayoni vakuum ostida olib boriladi. Ko`rish oynasi (6) orqali jarayon kuzatiladi. Isitgichni tashqi lozasi izolyatsiya bilan qoplangan.

Isitgich 2 ta trubali reshyotkadan diametri 55/50 bo`lgan trubalardan, ularni isitish lozasi 30 m<sup>2</sup>, yuqoriga

va pastgi galovkalardan tashkil topgan. Korpusda to`lqin forma kompensator (2) bor. Iqorigi boqa flanets yordamida trubali reshyotkaga birlashtirilgan. Qaytaruvchi shit bug` suyuqlik aralashmasini keng patrubok (9) toion yo`naltiriladi. Pastki boshcha konus formasiga ega va u pastki trubali reshetkaga birlashtirilgan. Bu boshchada tsirkulyatsiya trubasini, glitserinni kirishi va chiqishi uchun shneklar bor. Isitgich korpusida bug` uchun (6), kondensat uchun (7), muxofaza klapani uchun (5) shneklar bor. Apparatni eritma tegadigan qismi qizil misdan, trubali reshyotkalar esa latundan tayyorlangan.



### Glitserin isitkich:

1 – tsilindrik korpus; 2 – isitilgan va qisman quritilgan glitserin chiqadigan shtutser; 3 – isituvchi zmeeviklar; 4 – ostki qopqoq; 5 – glitserin kiritiladigan shtutser; 6 – nazorat oynasi; 7 – elleptik qopqoq; 8 – bug`lar chiqadigan shtutser.

### Texnik ta`rif

Diametri	700 mm
Balandligi	3970 mm
Isitish iozasi	30 m <sup>2</sup>
Unumdorligi 86% li glitserin uchun	56 kg/soat
Bug` bosimi	0,4-0,8 Mpa

Bug` suyoqlik xarorati	110-115 °S
Ishlab chiqish quvvati	400-450 kg/soat
Ishchi xajmi	1,0 m <sup>3</sup>
Diametri	700 mm
Balandligi	2800 mm
Isitish yozasi	4,5-6 m <sup>2</sup>


### BUG`LATGICH – KONTSENTRATOR

Bug`latgich – kontsentratator flanets bilan birlashtirilgan ikki qismidan iborat. Pastki konus qismida stakan bo`lib, u aylanma bo`shliq xosil qiladi. Bug`suoqlik aralashmasi korpusga tangensial o`rnatilgan (1) shnek orqali kiradi, natijada u aylanma zarakat qiladi. Ajralib chiqqan bug` lairint tipidagi tomchiajratgich orqali apparatdan chiqib ketadi. Glitserin bug`latgich – kontsentratorni pastki qismida yig`iladi (16) stakan qirg`og`idan oshib unga quyiladi va tsirkulyatsiya trubasiga o`tadi. Bu truba isitgich bilan birlashtirilgan.

1-isitgichni birlashtiradigan shnek 2-bug` chiqishi uchun shnek 3-taomchi ajratuvchi 4-ko`rish oynasi 5-namuna olgich uchun shnek 6-manometr uchun shnek 7-tsirkulyatsiya trubasi uchun shnek 8-muxofaza klapani uchun shnek 9-satx ko`rsatuvchi uchun shnek 10-zichlik regulyatori uchun shnek 11-termometr uchun shnek 12-suoqlik berish, regulyatr uchun shnek 13-tutqichdan qaytuvchi suoqlik uchun shnek 14-glitserinni chiqishi uchun shnek 15-luk 16-quyilish stakani

#### Texnika t`rif


Diametri	1000 mm
N	3779 mm



“Руимбек” қурилмасининг технологик схемаси.

1-иситкич; 2-дистилляция куби; 3-хаво конденсаторлари; 4-концентратор; 5-йифувчи баклар; 6-, 7-, 8- сув конденсаторлари; 9-конденсат йигтич; 10-вакуум насос; 11-гудрон йигтич; 12-насос; 13-насос; 14-конденсат йигтич.

## GLITSERIN UCHUN DISTILLYATSION KUB



Glitserin uchun distillyatsiya kubi:

1 – tsilindrik korpus; 2 – zmeeviklar; 3 – ochiq bug` beruvchi vertikal trubka; 4 – satx ko`rsatgich shisha trubka o`rnatish uchun shtutser; 5 – xoch shaklli barboter; 6 – nazorat lioki; 7 – elittik qopqoq; 8 – tomchiqaytargich zont; 9 – nazorat oynasi.

Distillyatsion kub texnik glitserinni distillyatsiya qilish uchun ishlataladi. U tsilindrsimon uskuna bo`lib, elliptik tagdan (13) va qopqoqdan tashkil topgan. Uni ko`rpusi uglerodli po`latdan tayyorlangan, ichki qismida 2 ta tsilindrsimon zmeevik bo`lib, ular qo`zg`almas o`qqa bir-birini uzatishga joylashtirilgan. Bu zmeeviklar glitserinni qizdirish uchun xizmat qiladi. Bunda bosim 1,4-1,5 Mpa bo`lgan suv bug`idan foydalilanadi. Kubning pastki qismiga krestsimon barbatyor (5) joylashgan bo`lib, unga markazga joylashgan vertikal xolatdagi (3) orqali bosimi 0,05 Mpa bo`lgan ochiq suv bug`i beriladi. Ochiq bug` glitserinni intensiv aralashtirish bilan bir qatorla uni xaroratini 170-180°S da ushlab turishga yordam beradi. Liok (6) kubni sozlash va tozalashga xizmat qiladi.

Distillyatsiya jarayonini olib borish uchun (4) shtutser orqali xarorati 90-100°S bo`lgan texnik glitserin beriladi, zmeevik yordamida 170-180°S gacha qizdiriladi. Barbatyordan beriladigan ochiq bug` jarayonni tezlashtirib, xaroratni biday saqlab turadi. Distillyatsiya vakuum ostida olib borilib, qoldiq bosim 0,15-0,2 kPa (15-20mm sim. ust.) ga teng. Distillyatsion kub uning pastki qismida 15%

xajmni gudron egallaguncha ishlab turadi, bu esa 3-4 kunni tashkil etadi. Undan keyin kub gidrondan bo`shatiladi. Keyingi distilyatsyani boshlashdan oldin kub issiq suv bilan yaxshilab yoviladi.

### **Texnik ko`rsatkichlari**

To`la xajmi	3,8 m <sup>3</sup>
Ishchi xajmi	1,5 m <sup>3</sup>
Isitish yozasi	11 m <sup>2</sup>
Diametri	1500 mm
Balandligi	3060 mm
Ishlab chiqish quvvati	400-450 kg / soat

### **«Tayanch» so`z va iboralar.**

Parchalanish, avtoklav, labirintli bosim tushurgich, glitserinli suv , isitgich, bug`latgich-kontsentrator, distillyatsiya, distillyatsiya kubi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. YOg`larni parchalash avtoklavning tuzilishi va ishlashi.
  2. Labirintli bosim pasaytirgichning tuzilishi va ishlashi.
  3. Glitserinni isituvchi uskunaning tuzilishi va texnik tavsifi.
  4. Bug`latgich-kontsentratorning tuzilishi va ishlashi.
- Glitserinni distillyatsiya qiluvchi distillyatsiya kubining tuzilishi va ishlashi.

## **9-MA`RUZA: YOG` KISLOTALARINI DISTILLYATSIYA QILISH USKUNALARI**

Reja:

1. Distillyatsiya jarayonining nazariy asoslari.
2. Isitgich kuritgichning tuzilishi va ishlashi.
3. Uzluksiz ishlovchi distilyayatsiya kubi


YOg` kislotalarini neytral yog`dan, sovunlanmaydigan oksikislotalardan va boshqa aralashmalardan tozalash uchun distillyatsiya qilinadi. YOg`ni qayta ishlash korxonalarida yog` kislotalari oddiy xaydash usuli bilan kub va kondensator yordamida distillyatsiya qilinadi.

YOg` kislotalarini oddiy xaydash quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1. Suv bug`ini ishlatilishiga qarab,
  - a) ochiq suv bug`ini kiritmasdan
  - b) ochiq suv bug`ini kiritib
2. Xomashyo bilan ta`minlash va kub qodig`ini tushirib olish bo`yicha:
  - a) davriy usul
  - b) uzluksiz usul

YOg` kislotalarini distillyatsiya qilish qurilmalari asosiy va yordamchi uskunalardan tashkil topgan bo`ladi. Asosiy uskunalarga davriy va uzluksiz ishlaydigan distillyatsiya kublar kiradi. Qo`shimcha uskunalarga esa vakuum xosil qiladigan, isitadigan, nazorat qiluvchi priborlar, deaeratorlar, idishlar, tomchi tutqichlar, nasoslar va trubaprovodlar kiradi.

### **YOG KISLOTALARI UCHUN ISITGICH-QURITGICH**



YOg` kislotalari isitgich – quritgich.

1-korpus; 2-elliptik qopqoq; 3-rashig xalqali nasadka; 4-kuzatish oynasi; 5-sferik qaytargichlar; 6-zmeviklielementlar; 7-vertikal to`sqliar; 8-apparatni osti; 9-tsilindrik tirkala kameralar; 10-yog` kislotalarini kiritish shtutseri; 11-ochiq bug` uchun saplo; 12-yog` kislotalarini chiqarish shtutseri.

Xozirgi vaqtida soapstokdan olingan yog` kislotasini distillyatsiya qilish uchun «Komsomolets» liniyasidan foydalilanadi. Uni unumdarligi 14, 18 va 28 t/sutkada. SHu liniyaga kiradigan asosiy uskunalarga quydagilar kiradi: isitgich-quritgich, distillyatsiya uchun kub, kondensator, yog` kislotalarini iovish uskunasi.

JOqorida qayd qilingan uskunalarni tuzilishi va ishlashini ko`rib chiqamiz.

Isitgich quritgich yog` kislotalarini namligini yo`qotish va ularni 100° S dan 140-150°S gacha qizdirish uchun xizmat qiladi. U tsilindrsimon uskuna bo`lib, elliptik qopqoqdan (2) va tagdan tashkil topgan. Isitgich-quritgichning patski qismida 3ta tashqi kameralar (9) o`rnatilgan bo`lib, ular aylanmasiga simmetrik xolatda joylashtirilgan. Kameralarni ichiga zmeevikli qizdirish elementlari (6) o`rnatilgan, qizdirish uchun bosimi 2.0 Mpa bo`lgan suv bug`i beriladi. Apparatni pastki qismi to`sqliar (7) yordamida 3ta sektorga bo`lingan, ularni markazida qizdirish elementlari (6), xamda ochiq suv bug`i berish uchun soplo o`rnatilgan. Soploga bug` (11) SH. Orqali beriladi. YOg` kislotalari (10) SH orqali berilib (birinchi sektorga), ochiq suv bug`i bilan aralashtiriladi, 2-chi va 3-chi sektorlarga ketma-ket o`tadi. Natijada yog` kislotalari 140-150 °S gacha qiziydi xamda namsizlanib (12) quyilish trubasi orqali distillyatsion kubga so`riladi. Xosil bo`lgan suv bug`lari va uchuvchan yog` kislotalarini bug`lari, rashig xalkasidan tayyorlangan nasadka (3) orqali (13) SH orqali chiqib sovutgichga boradi. Qizdirgich-quritgich vakuum ostida ishlaydi, qoldiq bosim 5.8 kPa ga teng. Uskuna kislota chidamli po`latdan tayyorlangan bo`lib, tashqi devori 100 mm li izolyatsiya bilan qoplangan. Apparatni yoqori qismiga joylashgan 2ta qarash oynasi (4) orqali jarayon kuzatib turiladi. Uskuna quloqlar yordamida etajlar orasiga joylashtiriladi.

#### Texnik ko`rsatkichlar


Xajmi	1.7 m <sup>3</sup>
Isitish yozasi	2.7 m <sup>2</sup>
Ichki diametri	1100 mm
Balandligi	3788 mm

### YOG` KISLOTALARINI DISTILLYATSIYA QILISHDA UZLUKSIZ ISHLAYDIGAN DISTILLYATSION KUB.

Distillyatsion kub (DK) xom yog` kislotalarini distillyatsiya qilib distillangan yog` kislotalarini olish uchun xizmat qiladi.

Distillyatsion kub tsilindrsimon uskuna bo`lib, elliptik qopqoqdan (6) va tekis tagdan tashkil topgan bo`lib, uning pastki qismi vertikal to`sqliar (18) yordamida 9ta teng sektsiyalarga bo`lingan. Bu sektsiyalardan 1 tasi markazga qolgan 8 ta atrofiga joylashgan. Distillyatsion kubning pastki qismida sektsiyalar ichida birxil diametri 9 ta tsilindrsimon kameralar bor. Ularni ichiga flanets yordamida chiqazib olinadigan qizdirish elementlar (12) o`rnatilgan. Qizdirish

uchun zmeevikli yoki eletrli elementlar ishlatilishi mumkin. Zmeeviklik elementni qizdirish uchun VOT bug`idan yoki yoqori bosimli suv bug`idan foydalaniladi.



YOg` kislotalarini uzluksiz distillyatsiyalash kubi:

a – elektrisitgichli; b – bug` isitgichli. 1-to`liq payvandlangan tsilindrik korpus, 2-kuzatish oynasi, 3,7-qaytargich zontlar, 4-panjara, 5-muxofaza klaponi, 6-eliptik qopqoq, 8-юqori shtutser, 9-lioklar, 10-isitish elementi stakanlari, 11-tashqi tirkama nomerlari, 12-isitish elementlari, 13-quyish trubkalari, 14-xom yog` kislotalari kiruvchi shtutser, 15-ochiq bug` kiruvchi markaziy saplolar, 16-gudron chiqadigan truba, 17-tayanchlar, 18-bug` yoki vot uzatadigan truba, 19-ichki kollektor, 20-tashqi kollektor, I-IX sektsiyalar (I-markaziy, IX-)

Distillyatsion kubning barcha kameralari tutashgan idishlar bo`lib, ular юqori qismida quyolish trubalari yordamida bir-birlari bilan birlashtirilgan. Xom yog` kislotalari uzlucksiz (14) SH yordamida Distillyatsion kubning 1chi sektsiyasiga so`riladi va ochiq suv bug`i xar bir kamerani markaziga beriladi. Qizdirish elementi (10) stakan ichiga joylashgan. Natijada xom yog` kislotalari qiziydi va bug`ga aylanib uchaboshlaydi. Uchmagan yog` kislotalari stakandan chiqib sferik qaytargichga (19) uriladi va kamera ichiga yig`iladi, keyin ma`lum miqdorda yig`ilgandan so`ng quyilish trubasi (13) orqali keyingi sektsiyaga o`tadi, u erda yana qizdirish va uchish jarayonlari davom etadi.

YOg` kislotalarini ketma-ket 1 chi sektsiyadan 9 chi sektsiyagacha o`tishi natijasida uning xarorati 230°S gacha ko`tariladi. Yig`ilgan gudron (16) SH chiqib, ma`lum idishga yig`iladi. YOg` kislotalarini bug`lari xar bir sektsiyadan suv bug`i bilan aralashgan xolda pastki to`sinq (3), o`rtancha to`sinq (4) xamda yoqorigi to`sinq (7) orqali vakuumga ulangan (8)SH yordamida kondensatsiyaga yoboriladi. Distillyatsion kubni tozalash va sozlashni (9)chi 2ta l`iok orqali bajariladi. Distillyatsion kubning ish jarayonlarini kuzatish 4 ta ko`rish oynasi (2), termometr va monometrlar orqali olib boriladi. Kub ichidagi bosimni nazorat qilish membran muxofaza klapani (5) orqali bajariladi. Xozirgi vaqtida sanoatda asosan elektr qizdirgichlar ishlatiladi.

### **Texnik ko`rsatkichlari**

Ishchi xajmi	6.8 m <sup>3</sup>
Umumiy qizdirish yozasi:	
Suv bug`i bilan	14.6 m <sup>2</sup>
Elektr bilan	13.2 m <sup>2</sup>
Ichki diametri	1800 mm
Umumiy balandligi	5180 mm
Massasi	4680 kg

## **10-MA`RUZA: SOVUN TAYYORLASH USKUNALARI**

*Reja:Sovun pishirish uskunalari tasnifi.*

*Sovun pishirish qozoni. YOg` kislotalarini sovunlash reaktorlari.*

*TNB-2, BSHM, DON. Sovunni sovutish, kristallash va kiritish mashinalari. Vakuum-quritish qurilmasi.*

*Sovunni maxsulot shakliga keltirish va mexanik ishlash uskunalari. Keskich mashinalari. SHnekli press.*

Sovun deb, yoqorimolekulali yog`, smola va naften kislotalarini tuziga aytildi. IOvinish va kirsovun uchun ishlatiladigan sovunlar, tarkibida 10 dan 20 gacha uglerod atomi bo`lgan yog` kislotalarini natriyli yoki kaliyli tuzlaridir. Eng yaxshi sovun tarkibida 12dan 18 gacha uglerod atomi bo`lgan yog` kislotalarini natriyli va kaliyli tuzlari aralashmasidan olinadi.

Klassifikatsiyasi

Qattiq sovun mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan, yoqori unumdoorlikga ega qurilmalarda tayyorlanadi. Avvalo turli materiallalar tayyorlanib, sovun pishiriladi. Qattiq sovun olish uchun pishirilgan issiq suyoq sovun sovutiladi, kristallizatsiya qilinadi. Kristallizatsiya deb, sovunni suoq xoldan qattiq xolga o`tishiga aytildi.

Sovun tayyorlash uskunalarini quyidagi guruxlarga bo`lish mumkin:

1. Tayyorlash uskunlari
2. Sovun pishirish reaktorlari
3. Sovutish va kristallizatsiya uskunlari
4. Mexanik qayta ishlash va tovar xoliga keltirish uskunalari

Sovun pishirish uskunalarini

Sovun tayyorlash korxonalarida sovun turli usullar bilan pishiriladi. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

5. Jarayonni tashkil qilinishiga qarab: davriy va uzluksiz usul
6. Ishlatiladigan reagentni turiga qarab: kaustik va karbonat sovunlanish.
7. Texnologik belgisiga qarab: bevosita (pryamoy) va bilvosita usullar.


Sovun pishirish uskunalarini 2ga bo`lish mumkin:

- 1.Davriy ishlaydigan sovun pishirish qozoni
- 2.Uzluksiz ishlaydigan qurilmalar.

Ochiq apparatlarda sovun 100°С da va atm. Bosimda pishiriladi. YOpiq uskunlarda esa 0.2-0.25 Mpa bosim ostida pishiralid. Sovun pishirish uskunalari uglerodli po`latdan tayyorlanadi, chunki sovun kuchsiz korroziyalovchi aktivlikga ega.

### **DAVRIY ISHLAYDIGAN SOVUN PISHIRISH QOZONI**

Davriy ishlaydigan sovun pishirish qozoni po`latdan kavsharlash usuli bilan tayyorlanadi, uni devorini qalinligi 6-12 mm bo`lishi mumkin, xajmi 5 dan 250 м<sup>3</sup> gacha bo`lishi mukin. Biz xajmi 60 м<sup>3</sup> bo`lgan qozonni ko`rib chiqamiz.



Sovun pishirish qozoni:

1-tsilindrik korpusi; 2-izolyatsiya; 3-tros; 4-tayanch; 5-zmeevik; 6-shtutser; 7-shtutser; 8-zmeevik; 9-konussimon taglik; 10-lıok; 11-sharnirni sifon trubasi; 12-qul lebyodkasi; 13,14-xalqasimon purkagichlar; 15-sharnir; 16-truba; 17-suruvchi patrubok; 18-qopqoq; 19-yoritish fonari; 20-lıok; 21-ximoyalash jildi.


U tsilindrsimon korpusdan (1), konussimon tagdan (2) va qopqoq (3) dan tashkil topgan. Xosil bo`lgan SO<sub>2</sub> va ishlatilgan ochiq bug`ni atmosferaga chiqarib ioborish uchun qozonni qopqoq`ida so`ruvchi patrubok (4)bor. Qopqoq ostida xalkasimon purkagichlar (5), (6) bor, ular orqali yog` kislotalari, yog`lar, ishqor eritmasi, tuz eritmasi, issiq suv qozonga beriladi. Ko`rish oynasi (9)sovun pishirish jarayonini kuzatish uchun xizmat qildi. Issiqlik sarfini kamaytirish uchun qozonni tashqi iozasi izolyatsiya bilan qoplangan va g`iloflangan. Qozondagi jarayonni yorug`da kuzatish uchun qopqoqda yoritish fonari bor. Qozondagi yog` va ishqor eritmasi (13) barbotyor orqali beriladigan ochiq suv bug`i yordamida aralashtiriladi. Barbotyordagi teshiklar qozonni tagi tomnda bo`ladi, bu massani yaxshi aralashtirishni va barbotyor teshiklarini Sovun bilan berkilib qolishi oldini oladi. Isitmasdan aralashtirish zarur bo`lsa siqilgan xavo bilan aralashtiriladi, u (14) barbotyor orqali beriladi. Tindirilgan Sovun yadrosi nasosga ulangan sharnirli sifon truba (15) orqali quyib olinadi. SHarnirli turba zanjir (16) va lebyodka (17) yordamida xarakatlanadi. Sovun osti ishqori (18) SH orqali qozodan tushiriladi. Lıok (19) qozonni tozalash uchun xizmat qiladi. Sovun pishirish qozonlari xajmiga qarab etaj orasiga qulqlar (21) yordamida yoki 6 ta tayanch (20)ga o`rnataladi. Kir Sovun pishirish uchun qozon oddiy po`latdan, atir Sovun uchun zanglamaydigan po`latdan tayyorlanadi. Odatda qozonni diametri uni balandligiga D:N = 1÷1.3 bo`lishi kerak. Elimli Sovun pishirish 10 dan 25 soatgacha, yadroli Sovun pishirish esa 25 dan 40 soatgacha davom etadi.

Kamchiligi –suv bug`ini sarfi katta va bug`ni ishlatilishi sovunni namligini oshirib yoboradi, bu esa belgilangan namlikdagi sovun elimini olishni qiyinlashtiradi.

### Texnik ko`rsatkichlari

Ichki diametri	3700 mm
TSilindr qismini balandligi	4600 mm
Umumiy balandligi	7154 mm
SHarnirli trubani uzunligi	3200 mm
SHarnirli trubani diametri	100 mm
Izolyatsiya jozasi	78.5 m <sup>2</sup>
Izolyatsiya qalinligi	100 mm
Xajmi	60 m <sup>3</sup>

### TNB – 2 APPARATI



1 – rama; 2,3,4,5 – tsilindrlar; 6 – bu- rubashkasi; 7 – spirali aralashtirgich; 8 – elektrodvigatel; 9 – reduktor; 10 – uzatma tushqich maydonchasi; 11 – aralashtirgich; 12 – turbinali qorishtirgich; 13 – gaz yig`uvchi; 14 – zmeevik; 15 – P-xarfli gidrozotvor.

Apparat TNB-2 Tiotionnikov B.N., Naumenko P.V., Bespyatov M.P. lar tomonidan yaratilgan va taklif qilingan. Apparat (1)ga o`rnatilgan 4 ta (5,6,7,8) barabanlardan iborat. Barabanlar suv bug`i uchun g`ilof (12), maxsus lentasimon aralashtirgichlar shunday yo`nalishda aylanadiki u sovun massasini ilgariga qarab suradi. Aralashtirgichni maydonchaga o`rnatilgan reduktor (4) va el.dvigatel (3) yordamida xarakatga keltiriladi.

Yoqorigi maydonchaga chiqish uchun narvon bor. O`ng tomondagi baraban (B)ni utiga kotaktor-aralashtirgich (9) el.dvigatel bilan va gaz yig`uvchi idish o`rnatilgan. 1chi va 2 chi barabanlar o`zaro SH bilan birlashtirilgan, planetslar orasiga shiber bor, u o`tish kesimini yoqori qismini to`sib turadi, bu o`z navbatida SO<sub>2</sub> gazini katta qismini gaz yig`uvchi idishga borishini ta`minlaydi. 2chi baraban


xam gazyig`uvchi bilan ta`minlangan. Ko`pikni so`ndirish va mayda tomchilarni olib ketilishini kamaytirish maqsadida gazyig`uvchi idishda tekis setka bor. 2chi barabandansovun massasi quyilish SH orqali 3 chi barabanga o`tadi. (17)ni ichiga kaustik soda eritmasini berish uchun ko`p miqdorda mayda teshiklari bo`lgan zmeevik o`rnatilgan. (7) ya`ni 3 chi barabandan massa SH yordamida 4 chi barabanga o`tadi, bu erdasovun elimi muvofiqlashtiriladi va soapstok yadrosi bilan aralashtiriladi. Tayyorsovun P –formadagi zatvor orqalisovun yig`uvchi-korrektirovka qiluvchi bakga oqib tushadi. Xar bir barabanda, uni pastki tsilindr qismiga o`rnatilgan 3 ta teshik-teshik trubadan iborat zmeevik bor, u orqali ochiq bug` beriladi. Barabanlar ta`mirlash uchun lioq (14), termometr va monometr uchun cho`ntaklar, bo`shatish uchun kranlar bilan ta`minlangan.

### **Texnik ko`rsatkichlari**

Unumdorligi sovun bo`yicha	6000-8000 kg/soat
Apparatdagisi shchi bosim	0.17 Mpa
Suv g`ilofidagi bosim	0.3 Mpa
Temperatura	102°С
El.dvigatel miqdori	5 dona
Aylanma tezligi	1000 ayl/min
El.dvigatel lentasimon aralashtirgichniki	4.5 kVt
Aylanma tezligi	950 ayl/min
Trubinali aralashtirgichni tezligi	270 ayl/min
Lentali meshalkani tezligi	60 ayl/min
O`lchamlari:	
D <sub>b</sub>	900 mm
1chi,2chi,3chi barabanlarni uzunligi	3000 mm
4 chi barabanni uzunligi	5000 mm
Apparat massasi	12490 kg
Sovunni apparatda bo`lish vaqtি	30-40 min

### **TNB-2 APPARATINI ARALASHTIRGICHI**


Aralashtirgich tsilindrsimon vertikal idish, qopqog`i tekis va metaldan ishlangan. TSilindrni o`rtasiga stakan (5) o`rnatilgan, uni tagiga kalts.soda (6) va yog` kislotalari uchun (8) SHlar qilingan. YOg` kislotalari bilan kalts.sodani aralashtirish uchun 2ta turbinali aralashtirgichdan (10) foydalaniladi, stakan ichiga o`rnatilgan qaytaruvchi plankalar aralashtirishni kuchaytiradi, soda bilan yog` kislotalari yaxshi aralashadi. Aralashma yoqoriga ko`tarilib stakan qirg`og`idan toshib, tsilindr bilan stakan o`rtasidagi oraliqqa tushadi. Bu erda spiral unga aylanma xarakat beradi, bu o`z navbatida aralashmadan SO<sub>2</sub> ni ajralib chiqishini yaxshilaydi. SO<sub>2</sub> (13) patrubok orqali chiqarib yoboriladi. Aralashtirgich barbanga (7) flanets yordamida maxkamlangan.



7.3-rasm. TNB-2 apparat:

1 – rama; 2,3,4,5 – tsilindrлar; 6 – bu- rubashkasi; 7 – spirali aralashtirgich; 8 – elektrodvigatel; 9 – reduktor; 10 – uzatma tushqich maydonchasi; 11 – aralashtirgich; 12 – turbinali qorishtirgich; 13 – gaz yig`uvchi; 14 – zmeevik; 15 – P-харфли гидроэзотвор.

### APPARAT BSHM



7.4-rasm. BSHM apparati:

a) inspeksiyalı aralashtirgich; b) umumiy ko`rinish. 1 – ijecktsion aralashtirgich; 2 – uskunaning korpusi; 3 – dozator; 4 – sovunlashni oxirigi

etkazuvchi parrakli qorishtirgich; 5 – bug` rubashkasi; 6 – to`la sovunlagich; 7 – gazyig`gich.

BSHM apparatini mualliflari: Baykov S.F., Shevelev K.V., magnitskiy L.N. Bu apparat 2 asosiy qismlardan tashkil topgan. 1) Karbonat sovunlanish sodir bo`ladigan injektsiyali aralashtirgich; 2) Sovunlanishni oxiriga etkazuvchi va gaz ajratuvchi qism. Bunda  $\text{SO}_2$  gazi ajratiladi, karbonat massa kaustik soda bilan oxirigacha sovunlanadi va soapstok yadrosi bilan aralashtiriladi.

1) Injektsiyali aralashtirgich, injektorli 2 ta kameradan iborat. U quyidagicha ishlaydi: retsepturaga asoslanib tayyorlangan yog`li aralashma, 100-120° S gacha isitilgan xolda 1 chi kameraga beriladi. Bu kameraga bir vaqt ni o`zida ochiq bug` xam beriladi (2) soplodan. Natijada bug`-yog` emulsiyasi xosil bo`lgan u sovunlanish reaktsiyasini tezlashtiradi. Emulsiya 1chi kameradan bug` bosimi ostida diffuzor (3)ga o`tadi, uni kengayogan qismida emulsiyani tezligi biroz kamayadi, bosimi oshadi.

### **Injektsiyali 2 bosqichli aralashtirgichni umumiyo ko`rinishi**

1- 1chi aralashtirish kamerasi 2- soplo 3- diffuzor 4- soplo 5- 2chi aralashtirish kamerasi 6- 2chi diffuzor

Natijada emulsiya 2 chi kamerani soplosiga (4) o`tadi va 2chi kamerada kalts.soda bilan aralashib, karbonat massa xosil bo`lib, u o`z navbatida 2 chi diffuzor (6) orqali BSHM apparatini gazajratuvchi qismiga o`tadi.

2) BSHM sistemasini sovunlanish qismi. BSHM – sovunlash apparati quyidagicha ishlaydi: injektsion aralashtirgichda xosil bo`lagn karbonat massa 105-125°S da, bosim ostida (2) soplo orqali gazajratgich (3) ga mayda zarrachalar xolida sachratib beriladi.(3)ni tagida bug` uchun teshikli zmeevik (4) bor. Suv bug`i karbonat massadan  $\text{SO}_2$  ni ajralib chiqishini jadallashtiradi. Bug` va gazni aralashmasi spiralli (13) va sferik (14) qaytargichlar orqali gaz yig`uvchi (15) ga o`tadi. Gazdan tozalangan massa o`tkazuvchi patrubok (6) orqali sovunlanishni oxiriga etkazuvchi qism (7) – doomylitelga o`tadi, bu diametri 0.9 m, uzunligi 4.2 m bo`lgan gorizontal apparatdir. U bug` ko`yagi (8), kurakli aralashtirgich ta`minlangan. Aralashtirgich el.dvigatel (10) va reduktor (11) yordamida 25÷30 ayl/min tezlik bilan aylanadi. Karbonat massa gazajratgichdan doomylitelga kurakli ta`minlagich (16) yordamida o`tadi. (16) ni el.dvigatel (17), reduktor (18) va zanjirli uzatgich (19) orqali aylantiradi. Karbonat massa gazajratgichdan doomylitelga o`tayotganda unga 90-95°S gacha isitilgan 40-42 % li kaustik soda eritmasi sepuvchi (12) moslama yordamida qo`shiladi. Doomylitelta yog` kislotalarini neytrallash va neytral yog`ni sovunlash reaktsiyalari oxiriga etkaziladi, xamda zarur bo`lganda soapstok yadrosi qo`shiladi.  $\text{SO}_2$  ni qolgan doomyliteldan (20) gaz yig`uvchi orqali chiqarib ijoboriladi. Pishirilgan sovun apparatdan (22) patrubok orqali chiqadi. Nazorat qilish va sozlash uchun l`iok (22) dan foydalaniladi. Apparat metall konstruktsiyaga (23) o`rnatalgan.

### **Texnik ko`rsatkichlari**

Unumdorligi 60 % li sovun uchun  
El.dvigatel quvvati

7-10 t/soat  
11.8 kVt

Band qiladigan maydoni	10 m <sup>2</sup>
Uzunligi	6500 mm
Kengligi	1500 mm
Balandligi	6500 mm
Apparatni og`irligi	4300 kg
Dgazajrat.	1500 mm
D doomyl.	900 mm
D doomyl-ni uzunligi	4200 mm
N gazajrat	6500 mm
P aral.	25-30 ayl/min
Temperatura	100-105° S

## SOVUN QIRINDISINI QURITISHGA MO`LJALLANGAN VAKUUM-QURITGICH


Vakuum quritgich (VK) zanglamaydigan po`latdan yasalgan bo`lib, birqancha bo`laklardan ya`ni tsarg (1)dan tashkil topgan. Bu bo`laklar tashqi tomnidan suv uchun g`ilof bilan qoplangan va bir biri bilan flyanetslar bilan birlashtirilgan.

Quritish kamerasi:

- 1 – apparatning tsilindrik korpusi; 2 – forsunkalar; 3 – konussimon taglik; 4 – o`tkazuvchi obechayka; 5 – suv kuylagi; 6 – prujinali pichoq; 7 – o`q; 8 – kuzatuvchi oyna; 9 – chervyakli reduktor.

Obechayka ikki rangli bunker bilan birlashtirilgan. Uskunaning o`qi bo`yicha g`ovak valga ushlagich (7), oboyma (13) yordamida pichoqlar maxkamlangan. G`ovak val orqali sovunni o`tishi uchun truba o`rnatilgan bo`lib, u purkagich bilan birlashtirilgan. G`ovak val va uning ichidagi truba, xamda purkagich (9) chervyakli reduktor yordamida xarakatga keltiriladi. Purkagichni ishi ko`rish oynalari orqali kuzatib turiladi.

Quritishga mo`ljallangan sovun g`ovak val ichiga joylashtirilgan truba orqali 110-120°S da purkagich yordamida purkaladi. Purkagich 12 ayl/min tezlikda aylanadi. Birdaniga kengayish xisobiga suyoq sovun ichidagi namlik bug`lanadi, sovun esa apparat devorlariga yopishib qoaldi. YOpishgan sovun pichoqlar yordamida qirib tushiriladi. Quritgichdagi qoldiq bosim 1.3-4 kPa ga teng.



### Purkagichga sovun uzatadigan moslama

1-tsilindr formadagi setka 2-sovun berish uchun truba 3-sovunni purkagichga  
berish uchun qurilma 4-g`ilof 5-uchtarmoq 6-purkagich  
Ishlashi oldingi tekstda bor.

### **«Tayanch» so`z va iboralar.**

Sovun pishirish qozoni,sovun tayyorlash,sovutish jixozi,davriy ishlaydigan qozon,uzluksiz ishlaydigan aparatlar,vakuum-quritgich,purkagich.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Sovun pishirish uskunalariga nimalar kiradi?
2. Sovun pishirish qozonining tuzilishi va ishlashi.
3. TNB-2 apparatini tuzilishi va ishlashi.
4. BSHM apparatini tuzilishi va ishlashi.
5. Sovunni quritish uchun ishlatiladigan vakuum-quritgichning tuzilishi va ishlashi.
6. Purkagich sovun uzatadigan moslamaning tuzilishi.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
  
NAMANGAN MUXANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
  
“KIMYO-TEXNOLOGIYA” FAKULTETI  
  
“OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

**“YOG`LARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIK  
USKUNALARI”**  
fanidan



Namangan – 2020

«YOg`larni qayta ishlash texnologik uskunaları» fanidan amaliy mashg`ulotlar «Oziq – ovqat texnologiyasi» (YOg`-moy maxsulotlari bo`yicha) bakalavriat yo`nalishi o`quv rejasiga asosan tuzildi.

Uslubiy qo`llanmada o`simglik moylari ishlab chiqarish va yog`larni qayta ishlash korxonalarini uskunalarining va bu korxonalarda ishlataladigan transport vositalarining unumдорligi, elektr quvvati sarfi, suv va bug` xarajatlari, issiqlik almashish юзalari, uskuna ayrim qismlarining o`lchamlari, texnologik parametrlarini aniqlash xisoblarini bajarish yo`llari berilgan. SHu bilan bir qatorda kurs va bitiruv ishlari, loyixalariga oid bo`lgan maxsus xisoblash usullari xam keltirilgan.

Uslubiy qo`llanma Namangan muxandislik texnologiya Instituti Ilmiy-uslubiy kengashining “\_\_\_” 2020 yil “\_\_\_” - sonli majlisida ma`qullangan.

## Kirish

“YOg`larni qayta ishlash texnologik uskunalar” fanini o`rganishdan maqsad yog`-moy sanoati korxonalarida ishlatilayotgan uskunalarning vazifalari o`simlik moylari ishlab chiqarish va yog`larni qayta ishlash texnologiyasi bilan chambarchas bog`liq ekanligini asoslab, bu uskunalarning tuzilishi, ishlashi, texnik tavsiflarini mukammal bilishdan iboratdir. Uskunalarni bilish, ularning ishchi rejalarini o`rganish shu asbob yordamida bajariladigan texnologik jarayonni to`g`ri tashkil etishga yo`naltiradi. Qo`yilgan maqsadga erishish borasida xar bir bo`lim, xar bir jarayonga bog`langan uskunalarning texnik va texnologik ko`rsatgichlarini xisoblab aniqlash, olingan natijalarni taxlil etish soxa talabalarining amaliy bilimlarini oshirishga, mustaxkamlashga yordam beradi.

Korxona uskunalarini xisoblarini o`rganish o`simlik moylari ishlab chiqarish va yog`larni qayta ishlash tizimlarining texnologik bosqichlari asosida bajarilib, yog`-moy sanoatining ishlab chiqarish va qayta ishlash yo`nalishlarida keng ishlatiladigan transport vositalariga bag`ishlangan. Keyingi bosqichda esa xisob-amaliy ishlar o`simlik moylarini ishlab chiqarish korxonalarining tayyorlov, yanchish, presslash, ekstraktsiyalash tsexlari uskunalarini o`z ichiga oladi. Qo`llanmaning so`ngi bosqichi esa yog`larni qayta ishlash korxonalarini uskunalarining xisob-kitobiga bog`langan. Xar bir qismda berilgan xisoblash yo`llari talabalarning bilim darajasini yanada mustaxkamlashga, amaliy malakalarini oshirishga yordam beradi.

Amaliy mashg`ulotlarda xisoblash ishlarini bajarish davomida ba`zi-bir masalalar sharti bo`yicha etishmagan qiymatlar mustaqil ravishda shu muammoga oid bo`lgan o`quv va uslubiy qo`llanmalardan olinadi. Bunday xollarda olingan natijalar mantiqqa ega bo`lgan optimal qiymatlarga mos kelishi kerak.

Uzatma quvvati aniqlangan uskunalar uchun motor-reduktor yoki elektr motorni tanlash korxonaning xususiyati va ish muxitini e`tiborga olgan xolda bajarilishi lozim.

Xisoblash ishlarini aniq va tez bajarish uchun EXM dan foydalanish tavsiya etiladi. Masalalar to`liq ishlab bo`lingandan so`ng, maqsadga muvofiq xolda, olingan natijalar bo`yicha asoslangan xulosalar qilinadi.

### **1-amaliy mashg`ulot. Xom ashyo va maxsulotlarni tashuvchi uskunalar**

## 1.1. Vintli konveerlar (shneklar)

Vintli konveerlarning unumdorligi

$$G_u = 60 \frac{\pi D^2}{4} S n \gamma \psi, \text{ kg/soat} \quad \text{yoki}$$

$$G^1_{uu} = 60 \frac{\pi D^2}{4 \cdot 3600} S n \gamma \psi = \frac{\pi D^2 S n \gamma \psi}{240}, \text{ kg/sek}$$

bu erda  $D$  – vint diametri,  $m$ ;

$S$  – vint qadami,  $m$ ;  $S=D$  yoki  $S=0,8 D$ ;

$n$  – vintning aylanish chastotasi,  $min^{-1}$ ;

$\gamma$  – tashilayotgan maxsulotning xajmiy massasi,  $kg/m^3$ ;

$\psi$  – konveer novining to`ldirilish koeffitsenti,  $\psi = 0,25 \dots 0,4$ .

Vintning diametri quyidagi qatordan tanlab olinadi:

	0	0,1	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,8
,1;	25;	16;	2;	25;	32;	4;	5;	63;				$m$ .
Vint qadami:	0	0,1	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,	0,6
	,08;	;	125;	16;	2;	25;	32;	4;	5;	3	$m$ .	

Vintning aylanish chastotasi (standart qiymati GOST 2037-82) 6; 7,5; 9,5; 11,8; 15; 19; 23,6; 30; 37,5; 47,5; 60; 75; 95; 118; 150; 190; 236; 300  $min^{-1}$ . Amaliy aylanish chastotasi standart lyjymatdan  $\pm 10\%$  ga farq qilishi mumkin.

Vintli konveerning uzatmasi uchun elektr motorining quvvati

$$P = (0,025 \dots 0,031) (L \omega + N) G^1_{sh}, \text{ kWt}$$

bu erda  $L$  – konveerning uzunligi (40 m gacha);

$\omega$  – xarakat qarshilik koeffitsenti,  $\omega = 1,2 \dots 2$

( $\omega = 4$  tuz, soda va sh .k. maxsulotlar uchun);

$H$  – yoki ko`tarilish balandligi,  $m$ ;

$G^1_{sh}$  – konveerning unumdorligi,  $kg/sek$ .

## 1.2. Cho`michli elevatorlar

Elevatorning unumdorligi

$$G_e = 3600 k V_k Z \nu \gamma, \text{ t/soat} \quad \text{yoki} \quad \text{kg/soat}$$

bu erda  $k$  – elevator cho`michi (kovishi) xajmining foydalanish koeffitsenti.

Bu koeffitsent cho`michning konstruktsiyasiga, lentaning xarakat tezligiga, to`ldirilish uslubiga va tashilayotgan maxsulotning

xususiyatilariga bog`liq; odatda  $k = (0,3 \dots 0,6)$ ;

$V_k$  – cho`michning geometrik xajmi,  $m^3$ ;  $V_k = F_k b, m^3$

bunda  $F_k$  – cho`michning yon tomoni lozasi,  $m^2$ ;

$b$  – cho`michning eni,  $m$ ;

$$Z = 1m \text{ lenta uzunligidagi cho`michlar soni, } Z = \frac{1}{a + \Delta}$$

bu erda  $a$  – cho`mich chuqurligi,  $m$ ;

$\Delta$  – cho`michlar orasidagi masofa  $m$ ;

$v$  – lentaning xarakat tezligi,  $m/\text{sek}$ ;

$\gamma$  – tashilayotgan maxsulotning xajmiy massasi,  $t/m^3$  yoki  $kg/m^3$ .

Elektr motorining quvvati

$$N = \frac{G_s \cdot H}{\eta \cdot 367} (1,15 + k_2 \cdot k_3 v), \text{kVt}$$

bu erda  $N$  – maxsulotning ko`tarilish balandligi,  $m$ ;

$k_2=1,4$  (lentali elevator uchun);

$k_2=1,6$  (zanjirli elevator uchun);

$k_2$  – statistik kuchlanish koeffitsienti,

$k_3$  – elevator turi koeffitsenti,

$k_3=1,8$  (lentali elevatorlar uchun);

$k_3=1,3$  (zanjirli elevatorlar uchun);

1,15 – qo`sishma quvvat koeffitsenti;

$\eta$  – uzatmaning F.I.K.  $\eta=0,87$  (qayishli uzatma uchun),

$\eta=0,75$  (reduktorli uzatma uchun).

### 1.3. Lentali transporterlar

Tekis lentali transporterning unumдорлиги

$$G_t = 3600 F_t v \gamma = 576 B_t^2, \text{ c } v \gamma t g (0,35 \alpha), \text{ t/soat}$$

bu  $F_t$  – tekis lentada xarakatlanayotgan maxsulotning ko`ndalang  
erda kesimi,  $m^2$ ;

$$F_t = 0,16 B_t^2 s * t g (0,35 \alpha)$$

$V_t$  – tekis lentaning eni,  $m$ ;  $V_t=0,3; 0,4; 0,5; 0,65; 0,8; 1,0 \text{ m}$ .

$\alpha$  – maxsulotning tinch xolatidagi tabiiy qiyalik burchagi, grad;

$s$  – lentaning qiyaligini xisobga oluvchi tuzatish koeffitsenti;

Lentaning qiyaligi  $10^\circ$  gacha  $10-15^\circ$   $16-20^\circ$   $20^\circ$  dan ko`p

Koeffitsent,  $s$ : 1 0,95 0,90 0,85

$v$  – lenta tezligi,  $m/\text{sek}$ .

$v=0,25; 0,315; 0,4; 0,5; 0,63; 0,8; 1,0; 1,25; 1,6; 2,0; 2,5; 3,15; 4,0$ .

Tezlik  $0,25 \text{ m/sek}$  dan kichikroq xam qabul qilinishi mumkin.

$v=0,8-2,0 \text{ m/sek}$  (xom ashyo va oraliq maxsulotlar uchun)

$$\nu = 0,8 - 1,2 \text{ m/sec} \text{ (shulxa va pista po'choqlari uchun)}$$

$$\gamma - \text{maxsulotning xajmiy massasi, } m/m^3.$$

YOni to'siq, novli transporter lentasida xarakatlanayotgan maxsulotning kesimi olti burchakli shaklda bo'lib, uning yo'zasi

$$F_n = B_n^2 [0,16 c \operatorname{tg}(0,35\alpha) + 0,0435], \text{ m}^2 \text{ ga teng.}$$

bu erda  $V_n$  – novli lentanening eni, m. Bu xolda novli transporter lentasining unumdarligi

$$G_{tn} = 3600 F_n \nu \gamma = 160 B_n^2 \nu \gamma [3,6 c * \operatorname{tg}(0,35\alpha) + 1], \text{ m/soat}$$

Lentali transporterni xarakatga keltirish uchun zarur bo'lgan elektr quvvatini etarlicha aniqlik bilan xisoblash quyidagicha bajariladi:

$$N_t = \left( \frac{k_t \cdot q_x l \nu}{36} + \frac{k_t G_t l_t}{270} + \frac{G_t H}{270} + N_{py} \right) \frac{K}{\eta_{y_3}} 0,736, \text{ kNm}$$

↓      ↓      ↓      ↓  
 Ioksiz xarakat    IOkni siljitim    IOkni ko'tarish    IOkni bo'shatish

bu erda  $k_t$  – lentanening eni va podshipniklarning turiga bog'liq koeffitsent;

$N_{ru}$  – bo'shatuvchi aravacha ostidan o'tayotgan lentanening qarshiligini engish uchun sarflanadigan quvvat, kvt;

Lentanening eni, m	$k_t$		$N_{ru}$	
	SHarikli podshipnik	Sirg'anish podshipnigi	SHarikli podshipnik	Sirg'anishli podshipnik
0,40	0,070	0,140	0,75	1,00
0,60	0,062	0,125	1,30	1,75
0,75	0,057	0,114	1,75	2,50
1,00	0,051	0,102	2,50	3,00

$$q_l - 1m lentanening massasi, q_l = 0,015 V (i + s);$$

$$V - \text{lentanening eni, sm};$$

$$i - \text{lenta qavatlari soni};$$

$$s - \text{ustama qavat qalinligi, mm}.$$

	30,0	40,0	50,0	65,0	80,0	100,0
	3-4	3-5	3-6	3-7	3-8	4-10
	(0,8...1,0)	(1,1...1,3)	(1,4...1,6)	(1,7...1,9)	(2,0...2,2)	(2,3...2,5)

	)2i	)2i	)2i	)2i	)2i	)2i
--	-----	-----	-----	-----	-----	-----

$l$  – transporter lentasining umumiy uzunligi,  $m$ ;  
 $l_t$  – transportirovkalash yo`li uzunligi,  $m$ ;  
 $N$  – maxsulotning ko`tarilish balandligi,  $m$ ;  
 $\eta_{uz}$  – transporter uzatmasining F.I.K.  
 $k$  – transporter uzunligini xisobga oluvchi koeffitsent.

$l, m:$	5	10	15	20	30	40-60	60-90
$k$	1,3	1,25	1,2	1,1	1,05	1,0	0,95

#### 1.4. Tirnog`ichli transporterlar – redlerlar

Redlerning unumdorligi

$$G_p = 3600 \frac{q\nu}{a}, \text{kg/coam}$$

bu erda  $a$ -tirnog`ichlar orasidagi masofa,  $m$ ;  $a=0,32; 0,5 m$ ;  
 $\nu$ -tirnog`ichlar xarakat tezligi,  $^m/\text{sek}$ ;  
 $\nu=0,1...0,6 \text{ } ^m/\text{sek}$ , ko`p xollarda  $0,3...0,6 \text{ } ^m/\text{sek}$ ;  
 $q$ -bitta tirnog`ich siljitayotgan maxsulot.

$$q = \frac{B \cdot h(\epsilon_1 + \epsilon_2)}{2} \gamma, \text{ kg}$$

bu erda  $V$ -tirnog`ich eni,  $m$ ;  
 $h$ -tirnog`ich balandligi,  $m$ ;

$V$	0,2	0,25	0,32	0,40
$h$	0,05	0,055	0,06	0,065

$b_1$  va  $b_2$ -tirnog`ich siljitayotgan maxsulotning kesimi asoslari,  $m$

$b_1$	0,05	0,10	0,15	0,20
$b_2$	0,10	0,20	0,25	0,30

$\gamma$ -maxsulotning xajmiy massasi,  $kg/m^3$

#### O'rnatiladigan elektr motorning quvvati

$$N_p = \left( \frac{kG_p \cdot l}{270} + \frac{G_p \cdot H}{270} \right) \cdot \frac{0,736}{\eta_{ped}} = \frac{0,00273G_p(kl + H)}{\eta_{ped}}, kvt$$

юкни
юкни  
силжитиш
күтариш

bu erda  $k$ -siljilikayotgan maxsulot turiga bog'liq koeffitsient,

*k=2...4 mayda sochiluvchan maxsulotlar uchun;*

*k=4...6 yirik, bo`lak-bo`lak maxsulotlar uchun.*

*I-transportirovkalash yo`li masofasi, m;*

*N*-maxsulotni ko'tarilish balandligi,  $m$ ;

$\eta_{\text{red}}$  – reduktoring F.I.K.  $\eta_{\text{red}} = 0,6 \dots 0,75$ .

## **2-amaliy mashg`ulot.**

## O'simlik moylari ishlab chiqarish korxonalari uskunalarini

## **2.1. Tayyorlov tsexlari uskunaları.**

2.1.1. Urug`ning qiya o`rnatilgan tekis elakda pastga xarakati boshlanishi uchun ekstsentrifikli o`qning aylanish soni

$$n_{\min}^1 = 29,9 \sqrt{\frac{tg(\varphi - \alpha)}{R}}, \text{ ayl/min}$$

bu erda  $\gamma$ -urug`ning elak юзасига ishqalanish burchagi;

$\gamma = 13^\circ \dots 33^\circ$ ,  $30^\circ$  kungaboqar urug`i uchun;

$\gamma = 18^\circ 30' \dots 32^\circ 30'$  paxta chigit uchun;

$\alpha$ -elakning qiyalik burchagi;  $\alpha = 8, 9, 10, 11^\circ$

R-ekstsentriskning radiusi, m

$R=0.010\ldots0.020 \text{ } m$

2.1.2. Urug`ning qiya o`rnatilgan tekis elakda юqoriga xarakati boshlanishi uchun ekstsentriflik o`qning aylanish soni

$$n_{\parallel \text{min}}^{\prime \prime} = 29,9 \sqrt{\frac{tg(\varphi + \alpha)}{R}}, \text{ ayl/min}$$

2.1.3. Urug`ning elak ustida sakrab xarakati boshlanish uchun ekstsentriflik o`qning maksimal aylanish soni,

$$n_{\max} = \frac{29,9}{\sqrt{Rtg \alpha}}, \text{ ayl/min}$$

2.1.4. Ekstsentriflik o`qning amaliy aylanish soni

$$n=(1,5...2,0) n''_{\min}$$

2.1.5. Elakning eng yoqori tezligi

$$\nu_0 = \frac{\pi R n}{30}, \text{ m/sek}$$

2.1.6. Tushuvchi fraktsiya bo`yicha elakning unumdorligi

$$G_{el}=60BhS_o \text{ n y } \eta, \text{ kg/soat yoki t/soat}$$

bu erda  $V$ -elakning eni,  $m$ ;  $V=700mm; 1400 mm. 1000mm; 2000mm.$

$h$ -elak yozasidagi urug`ning qalinligi,  $m$   $h=(10...50)mm=(0,01...0,05)$

$m$

$S_o$ -ekstsentriflik valning bir aylanishda urug`ning siljishi masofasi,

$m$

$$S_o=(2...18) mm=(0,002...0,018) m$$

$\eta$ -g`ovaklanish koeffitsienti  $\eta=0,60...0,80$

2.1.7. Elakning inertsiya kuchini engish uchun kerak bo`lgan quvvat

$$N=4,97 \cdot 10^{-7} \Sigma G n^3 R^2, \text{ o.k.}$$

bu erda  $\Sigma G$  elak kuzovining xamma qismlari va ustidagi urug`lar bilan birga massasi,  $kg$

$$1 \text{ o.k.} = 0,73 \text{ kVt}$$

Jadval 1.

Masalalar echish uchun variantlar

	$\gamma, \text{ grad}$	$\alpha, \text{ grad}$	$R, \text{ mm}$
1	47	14,5	27
2	45	14,0	26
3	43	13,5	25

41	13,0	24		
39	12,5	23		
37	12,0	22		
35	11,5	21		
33	11,0	20		
31	10,5	19		
29	10,0	18		
27	9,5	17		
25	9,0	16		
23	8,5	15		
21	8,0	14		
19	7,5	13	2	
17	7,0	12	.1.	
15	6,5	11	8.	
13	6,0	10	Ur	
12	5,5	9	ug`	
11	5,0	8	nin	
			g	
			ela	
			k	
			юз	

asiga ishqalanish kuchini engish uchun kerak bo`lgan quvvat

$$N=3,71 \cdot 10^{-3} f G_{el} L \cos \alpha, \text{ o.k.}$$

bu erda  $f$ -urug`ning elak юzasiga nisbatan ishqalanish koeffitsienti;

$$f=tg \varphi$$

$L$ -elak uzunligi,  $m$ ;  $L=1400 \text{ mm}; 3500 \text{ mm}$ .

$\alpha$  -elakning qiyalik burchagi, 2.1.1. ga qarang

## 2.1.9. Ventilyatorning taqriban unumdorligi

$$V_e = \left( \frac{Do}{3,75} \right)^3 n, \text{ m}^3 / \text{cek}$$

bu erda  $D$ -ventilyator og`zining diametri,  $m$ ;

$$D_o=130\text{--}300 \text{ mm}$$

$n$ -ventilyator rotorining aylanish tezligi,  $ay/min$ ;

$$n=1000\text{...}3000 \text{ ay/min}$$

#### 2.1.10. Ventilyator xosil qiladigan xavo bosimi

$$\Delta\rho = \left( \frac{nD}{55} \right)^2, \text{ mm. suv ust.}$$

bu erda  $D$ -ventillyator rotorining sirt diametri,  $m$ ;

$$D=(260\text{...}600) \text{ mm}$$

#### 2.1.11. Ventilyator sarflaydigan quvvat

$$N_s = \frac{V_e \Delta\rho}{102\eta}, \text{ kvt}$$

bu erda  $\eta$ -ventilyatorning F.I.K.  $\eta=0,5$

#### 2.1.12. Xavo-yo`naltirgich kesimidan o`tayotgan xavo miqdori

$$V_x = \frac{\pi D^2}{4} v, \text{ m}^3/\text{cek}$$

bu erda  $D$ -xavo yo`naltirgich diametri,  $m$

$$D=200; 250; 300; 350; 400; 500; 600 \text{ mm}$$

$v$ -xavo oqimi tezligi,  $m/sek$

$$v=(5\text{...}25) \text{ m/sek}$$

Amaliy mashg`ulotlar bo`yicha masalalar variantlari

Jadval 2.

Var. №	1	2	3	4	5	6	7	8	9	1 0
$D_o,$ $mm$	3 00	29 0	2 80	2 70	2 60	2 50	2 40	2 30	2 20	2 10
$n,$ $ay/min$	1 000	15 00	2 000	2 500	3 000	2 500	2 000	1 500	1 000	1 500

<i>D,</i> <i>mm</i>	6 00	58 0	5 60	5 40	5 20	5 00	4 80	4 60	4 40	4 20
<i>v,</i> <i>m/sek</i>	5	10	1 5	2 0	2 5	2 0	1 5	1 0	5	1 0
<i>Var.</i> <i>No</i>	1 1	12	1 3	1 4	1 5	1 6	1 7	1 8	1 9	1 0
<i>Do,</i> <i>mm</i>	2 00	19 0	1 80	1 70	1 60	1 50	1 40	1 30	3 00	2 80
<i>n,</i> <i>ay/min</i>	2 000	25 00	3 000	2 500	2 000	1 500	1 000	1 500	2 000	2 500
<i>D,</i> <i>mm</i>	4 00	28 0	3 60	3 40	3 20	3 00	2 80	2 60	5 80	5 40
<i>v,</i> <i>m/sek</i>	1 5	20	2 5	2 0	1 5	1 0	5	1 0	1 5	2 0

2.1.13. Kungaboqar urug`ini yorish uchun nisbiy chaqish ishi

$$W = 185,4 + 20 \omega^{0,705}, (N*m)/kg$$

bu erda  $\omega$  – urug` namligi, %;  $\omega = 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16$  %

2.1.14. Dekaga urilib chaqilayotgan urug` tezligi yoki darraning urug`larni urish tezligi

$$\nu = 1,41 \sqrt{W}, m/sek$$

2.1.15. Darrali barabanning aylanish tezligi

$$n = \frac{19,1}{D} \nu, ayl/min$$

bu erda  $D$ –darrali barabanning diametri,  $m$

$$D=800 \text{ mm}$$

2.1.16. Darrali chaqish mashinasning unumdorligi

$$G_d = z l q, kg/sek$$

bu erda  $z$  – darralar soni;  $z=12, 14, 16$  dona

$l$  – darra uzunligi,  $l=800 \text{ mm}, 900 \text{ mm}, 1000 \text{ mm}$

$q$  – darraning  $1m$  uzunligiga to`g`ri keladigan nisbiy yoklama,

$$q = (0,038 \dots 0,044) \text{ kg}/(\text{m}^* \text{ sek})$$

### 2.1.17. Darrali chaqish mashinasining uzatmasi quvvati

$$N = \frac{G_d W + 0,01D^2 n^2 (0,01Dnla + 0,257G_d)}{1000\eta}, \text{ kVt}$$

bu erda  $a$ -deka va darralar xosil qilgan doira orasidagi masofa  $m$ ;

$$a=0,08m;$$

$$\eta - \text{darrali chaqish mashinasi F.I.K. } \eta=0,35 \dots 0,50$$

$$n - \text{barabanning aylanish tezligi, } n=(560 \dots 630) \text{ ayl/min}$$

### 2.1.18. Turli xil moyli urug`lar va ularning oraliq maxsulotlari kritik tezligi

$$v_{kp} = \sqrt{\frac{g}{k_n}}, \text{ m/sek}$$

bu erda  $g$ -erkin tushish tezlanishi,  $\text{m/sek}^2$

$k_n$ -elkanlanish (uchirish) koeffitsienti (koeffitsient parusnosti).

## 2.2. YAnchish tsexlari uskunalari

### 2.2.1. YAnchish stanoklarining unumdarligi

$$G_{nazarpu\u0107} = 3600vLs\gamma = \frac{3600\pi}{60} DLn\gamma = 188,4DLn\gamma, \text{ kg/soat yoki t/soat}$$

$$G_{amaliy} = AD Ln, \text{ kg/soat yoki t/soat}$$

bu erda  $A$ -unumdarlik koeffitsienti,

$$A=188,4 \text{ s v } \gamma, A=0,0095 \dots 0,0108;$$

$s$ -tuzatish koeffitsienti,

$s=0,822$  soya urug`i uchun yassilash stanoklarida;

$s=0,0174$  kungaboqar chaqilmasidan ajratilgan mag`iz uchun VS-5 da.

$v$ -yanchilmaning o`rtacha qalinligi,  $m$

$$v=0,1 \dots 0,6 \text{ mm}$$

$\gamma$ -yanchilmaning xajmiy massasi,  $\text{kg/m}^3, \text{ t/m}^3$ ;

$D$ -valikning diametri,  $m$ ;

$L$ -valikning uzunligi,  $m$ ;

*n*-valikning aylanish tezligi,  $ay/min.$

### Ba`zi-bir maxsulotlarning elkanlanish koeffitsienti va kritik tezligi

Jadval 3.

Maxsulot	Elkanlanish koeffitsient, $k_n$	Qarshilik koeffitsienti, $k$	Kritik tezlik, $v_k, m/sek$
Urug`lar			
Kungaboqar	0,24	0,51	6,4
Zavod aralashmalari:			
Leningrad YOMK	0,280		5,92
Krasnodor YOMK	0,184		7,30
Xvalinsk	0,189		7,21
Nikolev	0,189		7,20
Rossoshi	0,197		7,05
Navlar: Peredovik	0,297		5,75
Stepnyak	0,171		7,57
Zelenka	0,194		7,12
Smena	0,203		6,96
Soya urug`i	0,139...0,050		8,4...14,0
Z-d aralashmasi	0,121...0,041		9,0...15,5
Paxta chigit (momiq miqdori 3%)	0,14	0,44	8,5
153-f	0,232...0,212		6,5...6,8
5904-I	0,170...0,153		7,6...8,0
108-f (namligi 7%) momiq miqdori 0,5%	0,127		8,8
2,5%	0,184		7,3
4,0%	0,225		6,6
7,7%	0,264		6,1
Kanop	0,24	0,34	6,39
Kanakunjut	0,09	0,37	10,44
Zig`ir	0,41	0,53	4,89
Xantal urug`i	0,27	0,32	6,03
Raps	0,15		8,09
Er yong`oq	0,06...0,4		12,79...15,69
Ko`knori urug`i	0,53...1,57		2,5...4,3
<u>Mag`iz</u>			
Kungaboqar	0,23	0,53	6,5
Paxta chigit	0,11	0,32	9,3
Kanon	0,20	2,27	7,01
Kanakunjut	0,09	0,38	10,44
<u>Po`choq</u>			
Kungaboqar	0,96	1,42	3,2
CHigit shulxasi	0,46	0,94	4,6
Kanop	1,17	1,21	2,89
Kanakunjut	0,61	1,70	4,01

#### 2.2.2. Gorizontal o`rnatilgan valiklar diametri

$$D_e = 60d \left( \frac{k-1}{k} \right)$$

Vertikal o`rnatilgan valiklar diametri

$$D_e = 80d \left( \frac{k-1}{k} \right)$$

bu erda  $d$ -yanchilayotgan maxsulotning o`rtacha qalinligi, mm  
 $k$ -yanchish koeffitsienti,

$$k = \frac{d}{\delta}, \quad \delta - \text{yanchilma qalinligi, mm}$$

Kungaboqar mag`izi uchun  $d=3...5 \text{ mm}$ ,  $\delta=0,2...0,5 \text{ mm}$

Paxta chigit mag`izi uchun  $d=4...5 \text{ mm}$ ,  $\delta=0,3...0,6 \text{ mm}$

Soya urug`i uchun  $d=5,59...6,78 \text{ mm}$ ,  $\delta=0,1...0,3 \text{ mm}$

### 2.2.3. Valiklarning aylanish tezligi

$$n = \frac{60v}{\pi D} = 19,11 \frac{v}{D}, \quad \text{min}^{-1} \quad v = (2,5...4,5) \text{ m/sek.}$$

Jadval 4.

YAnchish tsexlari uskunalari xisobi uchun vazifalar

Var. №	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$d, \text{mm}$	5, 0	4, ,9	4, ,8	4, ,7	4, ,6	4, ,5	4, 4	4, 3	4, ,2	4, 1
$\delta, \text{mm}$	0, 28	0, ,27	0, ,26	0, ,25	0, ,24	0, ,23	0, 22	0, 21	0, ,20	0, 19
Var. №	11	1	1	1	1	1	17	18	1	20
$d, \text{mm}$	4, 0	3, ,9	3, ,8	3, ,7	3, ,6	3, ,5	3, 4	3, 3	3, ,2	3, 1
$\delta, \text{mm}$	0, 18	0, ,17	0, ,16	0, ,15	0, ,14	0, ,13	0, 12	0, 11	0, ,1	0, 09

2.2.3. Murakkab komponentli maxsulotning, masalan paxta chigit yanchilmasining issiqlik sig`imi additivlik qoidasi asosida xisoblanadi:

$$c = \frac{c_m \cdot M + c_n \cdot \Pi + c_k \cdot K + c_h \cdot H}{M + \Pi + K + H}, \quad \frac{\kappa \partial \mathcal{K}}{\kappa \varepsilon^0 C}$$

bu erda  $s_m$ ,  $s_p$ ,  $s_k$ ,  $s_n$  – moy, protein, klechatka, suvning issiqlik sig`imi;  $\frac{\kappa\partial\mathcal{K}}{\kappa^0 C}$

$M$ ,  $P$ ,  $K$ ,  $N$  – moy, protein klechatka va suvning yanchilmadagi miqdori, % yoki kg.

Jadval 5.

Issiqlik sig`imini xisoblash uchun vazifalar varianti

Nº	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$M$	3 5	3 5,5	36	36 ,5	3 7	3 7,5	38	38 ,5	39	39 ,5
$P$	4 0	3 9,9	39 ,8	39 ,7	3 9,6	3 9,5	39 ,4	39 ,3	39 ,2	39 ,1
$K$	1 5	1 4,8	14 ,6	14 ,4	1 4,2	1 4,0	13 ,8	13 ,6	13 ,4	13 ,2
$N_2O$	1 0	9 ,8	9, 6	9, 4	9 ,2	9 ,0	8, 8	8, 6	8, 4	8, 2
$s_m$	2 ,10	2 ,09	2, 08	2, 07	2 ,06	2 ,05	2, 04	2, 03	2, 02	2, 01
$s_p$	2 ,05	2 ,03	2, 01	2, 07	2 ,09	2 ,11	2, 13	2, 15	2, 17	2, 19
$s_k$	1 ,35	1 ,36	1, 37	1, 38	1 ,39	1 ,40	1, 41	1, 42	1, 43	1, 42
$s_{suv}$	4 ,19	4 ,20	4, 18	4, 17	4 ,21	4 ,22	4, 16	4, 15	4, 23	4, 23
Nº	1 1	1 2	13	14	1 5	1 6	17	18	19	20
$M$	4 0	3 9,5	39	38 ,5	3 8	3 7,5	37	36 ,5	36	35 ,5
$P$	3 9	3 9,1	39 ,2	39 ,3	3 9,4	3 9,5	39 ,6	39 ,7	39 ,8	39 ,9
$K$	1 3,0	1 3,2	13 ,4	13 ,6	1 3,8	1 4,0	14 ,2	14 ,4	14 ,5	14 ,6
$N_2O$	8 ,0	8 ,2	8, 4	8, 6	8 ,8	9 ,0	9, 2	9, 4	9, 17	10 ,0
$sm$	2 ,00	2 ,01	2, 02	2, 03	2 ,04	2 ,05	2, 06	2, 07	2, 09	2, 10
$sp$	2 ,21	2 ,19	2, 17	2, 15	2 ,13	2 ,11	2, 09	2, 07	2, 05	2, 03
$sk$	1 ,41	1 ,40	1, 39	1, 38	1 ,37	1 ,36	1, 35	1, 34	1, 33	1, 32

$s_{suv}$	4 ,15	4 ,16	4, 22	4, 21	4 ,17	4 ,18	4 20	4, 19	4, 20	4, 21
-----------	----------	----------	----------	----------	----------	----------	---------	----------	----------	----------

### 2.3. Presslash tsexlari uskunalari

#### 2.3.1. Qovurmaning issiqlik sig`imi additivlik qonunu bo`yicha

$$c = \frac{c_m M + c_n P + c_k K + c_e B}{M + P + K + B}, \text{ kkal/(kg}^{\circ}\text{S) yoki } \text{kDj/(kg}^{\circ}\text{S)}$$

bu erda  $s_m, s_p, s_k, s_v$  – moy, protein, kletchatka va suvning issiqlik sig`imi;

$M, P, K, V$  – moy, protein kletchatka va suvning qovurmadagi foizlar qiymati.

#### 2.3.2. YAnchilmani namlash uchun sarflanadigan suv yoki bug` sarfi

$$W = G \frac{W_2 - W_1}{100 - W_1}, \kappa\varrho$$

bu erda  $G$  – yanchilma miqdori, kg

$W_1$  – yanchilmaning boshlang`ich namligi, %

$W_2$  – yanchilmaning oxirgi namligi, %

#### 2.3.3. Qovurmadan uchirilayotgan namlik miqdori

$$\Delta W = G \frac{W_1 - W_2}{100 - W_2}, \kappa\varrho$$

bu erda belgilar avvalgidek, faqat qovurma uchun.

#### 2.3.4. Qozon qosqoniga kirib kelayotgan xavo miqdori

$$L = 1,6 \frac{P_n}{P_{xavo}} \cdot \Delta W, \kappa\varrho$$

bu erda  $\Delta W$  – qasqondan uchirilayotgan namlik miqdori, kg;

$P_n$ -qasqondagi bug`ning partsial bosimi (qasqon ichidagi xaroratda), ata;

*R<sub>xavo</sub>-qasqondagi xavoning partsial bosimi (qasqon ichidagi xaroratda), ata*

### 2.3.5. Zaruriy isitish iozasi

$$F = \frac{Q}{k\Delta t \tau}, \text{m}^2$$

bu erda *Q*-isitish iozasidan uzatilayotgan issiqlik miqdori, *kkal/soat*, *kdj/soat*  
*k*-umumiy issiqlik uzatish koeffitsienti, *kkal/ (m<sup>2</sup> \* soat \* <sup>0</sup>S)* *kdj/ (m<sup>2</sup> \* soat \* <sup>0</sup>S)*;  
*Δt*-jarayondagi xaroratlarning o`rtacha farqi, <sup>0</sup>S.

### 2.3.6. Qovurma bo`yicha shnekli presslarning unumdarligi

$$G = 60 \frac{\pi D_3^2}{4} Ln(1-\psi) \gamma (1-k_v), \text{ t/soat yoki kg/soat}$$

$$G=47,1 D_3^2 L n (1-\psi) \gamma (1-k_v)$$

bu erda *D<sub>3</sub>*—birnchi parrak qismidagi zeerning ichki diametri, *m*;  
*L*—birinchi parrakning uzunligi, *m*;  
*n*—shnek valining aylanish tezligi, *min<sup>-1</sup>*;  
*ψ*—birinchi parrakdagi zeer xajmining to`ldirilish koeffitsienti;  
*γ*—qovurmaning xajmiy massasi, *t/m<sup>3</sup>* yoki *kg/m<sup>3</sup>*;  
*k<sub>v</sub>*—qaytarish koefitsienti.

$$k_v = \frac{2,15}{\delta^{0,58}}, \quad \delta \text{ — kunjara chiqish tizqichining kengligi, mm} \quad \delta = (6...16) \text{ mm}$$

### 2.3.7. Qovurmaning siqilish darajasi

$$\varepsilon = \frac{V_1}{V_2}$$

bu erda *V<sub>1</sub>* – qovurmaning boshlang`ich xajmi;  
*V<sub>2</sub>* – qovurmaning oxirgi xajmi.

### 2.3.8. Qovurma siqilganda unga ta`sir etayotgan nisbiy bosim

$$P = \frac{25,2a\varepsilon^{5,5}}{e^{0,022W}}$$

bu erda  $\varepsilon$ -qovurmaning siqilish darajasi;

$a$ -qovurmaning namligi va xaroratiga bog`liq bo`lgan tajribaviy koeffitsient [1, 221 bet];

$W$ -qovurma kamligi, %;

$e$ -natural logarifm asosi.

### 2.3.9. Filtrpressning unumdarligi

$$V = k \cdot F \sqrt{\frac{P\tau}{\mu}}, m^3$$

bu erda  $k$ -filtrlash koeffitsienti [1, 222 bet];

$F$ -filtrlash iozasi,  $m^2$ ;

$P$ -filtrlash bosimi,  $kg/m^2$ ;

$\mu$ -filtrlanayotgan suyoqlik qovushqoqligi,  $(kG \text{ sek})/m^2$  [1, 222 bet];

$\tau$ -filtrlash vaqt, soat.

### 2.3.10. Fuzaajratgich xisobi

Fuzaajratgichni o`lchamlarini aniqlash uchun olib boriladigan xisoblarda, moy uskuna vannasining ostki qismida bo`lishligini e`tiborga olgan xolda, to`ldirishni koeffitsenti 0,4 ga teng deb olinadi. Bu vaqtida fuzaajratgichning sig`imi

$$V = 2,5G\tau / \rho, m^3$$

bu erda  $G$ -presslash tsexidan chiqayotgan moy miqdori,  $kg/soat$ ;

$\tau$ -moyning fuzalovushkadan o`tish vaqt, soat;  $\tau = (0,5 \dots 1,0) \text{ soat}$

$\rho$ -moyning zichligi,  $kg/m^3$ .

Bir vaqtning o`zida sig`im

$$V=L \cdot B \cdot H, m^3$$

bu erda  $L$ ,  $B$  va  $N$  – vannaning uzunligi, eni va balandligi. Qoida bo`yicha

$$N=(1,5 \dots 2,5) \text{ m}, V=(2 \dots 4) \text{ m}. L=(1,0 \dots 1,5)V.$$

Fuzaajratgich zanjirli mexanizmining quvvati

$$P=(0,2 \dots 0,3) P_t \cdot v, kvt$$

bu erda  $P_t = (2500...4000) N$  (tortish kuchi);  
 $v$ -zanjirning xarakat tezligi,  $m/sec$ ;  $v=(0,1...0,3) m/sec$ .

## 2.4. Ekstraktsiya tsexlari uskunaları

2.4.1. Kungaboqar moyi benzinli mistsellasining qaynash xarorati:

a) kontsentratsiyasi 20% gacha bo`lgan mistsella uchun

$$t_{m_1} = 73p^{0,57} + \frac{0,5x}{p^{0,52}}, {}^0C$$

b) kontsentratsiyasi 50...70% gacha bo`lgan mistsella uchun

$$t_{m_2} = \frac{1000}{\frac{13}{p^{0,39}} - \frac{0,0425x}{p^{0,72}}}, {}^0S$$

v) kontsentratsiyasi 70% dan oshiq bo`lgan mistsella uchun

$$t_{m_3} = \frac{1000}{\frac{16}{p^{0,65}} - \frac{0,0925x}{p^{0,95}}}, {}^0S$$

Ikkinci va uchinchi formulalarning qo'llanilish doirasi yordamchi tenglama bilan aniqlanadi.

$$K_n = 73 \cdot 19 r^2$$

bu erda  $r$ -bosim, ata;

$x$ -mistsellaning kontsentratsiyasi, %;

$K_n$ -ikkinchi yoki uchinchi formulalardan qaysi biri ishlatalishi lozim ekanligini ko`rsatuvchi chegaraviy kontsentratsiya.

## 2.4.2. Temperatura depressiyasi

$$\Delta t = \frac{1,985T_{kin}^2}{(\frac{100}{x} - 1)rM}, {}^0C$$

bu erda  $T_{kin}$ -erituvchining qaynash xarorati,  ${}^0K$ ;

$x$ -depressiya aniqlanadigan mistsella kontsentratsiyasi, %;

$r$ -erituvchining  $T_{kip}$  xaroratida ichki bug`lanish issiqligi (skryitaya

teplota ispareniya),  $kDj/kg$ ;  
 $M$ -erigan moddaning molekulyar massasi.

#### 2.4.3. Benzinning o`rtacha molekulyar massasi

$$M=60+0,3t+0,001t^2$$

bu erda  $t$ -benzinning qaynash xarorati,  $^0S$ .

#### 2.4.4. Mistsellaning kontsentratsiyasi $x_n$ dan $x_k$ gacha oshganda uchirilgan eritma miqdori

$$B = G_{m_t} \left(1 - \frac{x_n}{x_k}\right), \kappa\varrho$$

bu erda  $G_{mts}$ -bug`latilayotgan mistsella miqdori,  $kg$ ;  
 $x_n$ -mistsellaning boshlang`ich kontsentratsiyasi, %;  
 $x_k$ -mistsellaning oxirgi kontsentratsiyasi, %.

#### 2.4.5. Mistsellaning issiqlik sig`imi additivlik qoidasi asosida xisoblanadi

$$c_{m_t} = \frac{c_m M + c_p P}{M + P}, \kappa\varrho\Delta\mathcal{H}/(\kappa\varrho^0 C)$$

bu erda  $s_m$ -moyning aniq xaroratidagi issiqlik sig`imi,  $kDj/(kg * ^0S)$ ;  
 $s_r$ -erituvchining aniq xaroratdagi issiqlik sig`imi,  $kDj/(kg * ^0S)$ ;  
 $M, R$ -moy va erituvchining mistselladagi miqdori.

#### 2.4.6. Suiq benzinning issiqlik sig`imi

$$s_b = 0,471+0,00005 t, \text{ kkal/}(kg * ^0S) \quad \text{yoki} \quad s_b = 1,972+0,00021 t, \text{ kDj/}(kg * ^0S)$$

bu erda  $t$ -issiqlik sig`imi aniqlanayotgan xarorat,  $^0S$ .

#### 2.4.7. Benzin bug`larining issiqlik sig`imi

$$s_{p.b.} = 0,356+0,00091 t, \text{ kkal/}(kg * ^0S) \quad \text{yoki} \quad s_{p.b.} = 1,491+0,00381 t, \text{ kDj/}(kg * ^0S)$$

#### 2.4.8. Erituvchi bug`larining issiqlik miqdori

$$i_p = s_p t_{cp} + r + s_{n.p.} (t_{nep} - t_s), \text{ kDj/kg}$$

bu erda  $s_p$ -suiq erituvchining  $t_{cp}$  xaroratdagi issiqlik sig`imi,  $kDj/(kg \cdot {}^0S)$   
 $t_{cp}$ -erituvchining o`rtacha qaynash xarorati,  ${}^0S$ ;  
 $r$ -erituvchining ichki bug`lanish issiqligi,  $kDj/kg$ ;  
 $s_{n.p.}$ -erituvchi bug`larining issiqlik sig`imi,  $kDj/(kg \cdot {}^0S)$ ;  
 $t_{nep}$ -erituvchi bug`larining qizdirilgan xarorati,  ${}^0S$ ;  
 $t_s$ -erituvchi bug`larining kondensatsiyalanish xarorati,  ${}^0S$ .

#### 2.4.9. Erituvchini xaydash uchun kerak bo`lgan ochiq bug` miqdori

$$D_{o.n.} = \frac{B \cdot r}{c_{o.n.}(t_{nep} - t_{yx})}, \kappa\varrho$$

bu erda  $V$ -xaydalayotgan erituvchi miqdori,  $kg$ ;  
 $r$ -erituvchining ichki bug`lanish issiqligi,  $kDj/kg$ ;  
 $s_{v.n.}$ -suv bug`ining issiqlik sig`imi,  $kkal/(kg \cdot {}^0S)$ ;  
 $t_{nep}$ -qizdirilgan suv bug`ining xarorati,  ${}^0S$ ;  
 $t_{ux}$ -chiqib ketayotgan suv bug`ining xarorati,  ${}^0S$ .

#### 2.4.10. SHrotidan erituvchi uchirilayotganda bug`lanib ketayotgan suvning miqdori

$$G_{\text{et}}^{ucn} = B \frac{M_{\text{e.n.}}}{Mp} \cdot \frac{P_{\text{e.n.}}}{Pp}, \kappa\varrho$$

bu erda  $V$ -xaydalagan erituvchi miqdori,  $kg$ ;  
 $M_{v.p.}$ -suv bug`ining molekulyar vazni;  
 $M_{r}$ -erituvchi bug`larining molekulyar vazni;  
 $R_{v.n.}$ -suv bug`larining partsial bosimi,  $ata$ ;  
 $R_r$ -erituvchi bug`larining partsial bosimi,  $ata$ .

#### 2.4.11. Zaruriy isitish yoki sovitish iozasi

$$F = \frac{Q}{k \cdot \Delta t_{cp} \cdot \tau}, \mathcal{M}^2$$

bu erda  $Q$ -isitish iozasidan berilayotgan issiqlik miqdori,  $kDj/soat$ ;  
 $k$ -umumiy issiqlik uzatish koeffitsenti,  $kDj/(m^2 \cdot soat \cdot {}^0S)$ ;  
 $\Delta t_{cp}$ -jarayonning o`rtacha xaroratlar farqi,  ${}^0S$ ;  
 $\tau$  -jarayon muddati,  $soat$ .

#### 2.4.12. Jarayonning o`rtacha xaroratlar farqi

$$\Delta t_{cp} = \frac{\Delta t_1 - \Delta t_2}{2,3 \lg \frac{\Delta t_1}{\Delta t_2}}, {}^0 C$$

$$agar \quad \frac{\Delta t_1}{\Delta t_2} < 2 \quad bo`lsa \quad \Delta t_{cp} = \frac{t_1 - t_1^1}{2} + \frac{t_2 - t_2^1}{2}, {}^0 C$$

bu erda  $\Delta t_1$ -xaroratlarning boshlang`ich farqi,

$$\Delta t_1 = t_1 - t_1^1$$

$\Delta t_2$ -xaroratlarning oxirgi farqi,

$$\Delta t_2 = t_2 - t_2^1$$

#### 2.4.13. Issiqlik uzatish umumiy koeffitsienti

$$k = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \Sigma \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_2}}, \kappa \varDelta \text{жс} / (m^2 \cdot coam^0 \cdot C)$$

bu erda  $\alpha_1$ -issiqlik manbaidan devorga issiqlik berish koeffitsienti,  
 $k \varDelta \text{жс} / (m^2 * soat * {}^0 S)$ ;  
 $\delta$ -devor qaliligi,  $m$ ;  
 $\lambda$ -devorning issiqlik o`tkazish koeffitsienti,  $k \varDelta \text{жс} / (m * soat * {}^0 S)$ ;  
 $\alpha_2$ -devordan maxsulotga issiqlik berish koeffitsienti,  $k \varDelta \text{жс} / (m^2 * soat * {}^0 S)$ .

### 3-amaliy mashg`ulot. YOg`larni qayta ishlash korxonalarini uskunalarini

#### 3.1. YOg` va moylarni rafinatsiyalash uskunalarini

##### 3.1.1. Koagulyator-arashtirgichning kerakli soni

$$Z = V\tau / (60V_1), \text{дона}$$

bu erda  $V$ -qayta ishlanayotgan moylar aralashmasi va gidroagent miqdori,  
 $m^3 / soat$ ;

$V = G / \rho$ , bunda  $G$ -aralashma massasi,  $kg / soat$ ;

$\rho$ -aralashma zichligi,  $kg/m^3$ ;

$\tau$ -moylar aralashmasi va gidroagentning koagulyatorda bo`lish vaqt, (30...40) min;

$V_1$ -koagulyatorning ishchi sig`imi,  $m^3$ ,

$$V_1=1,5 \text{ } m^3 \text{ bo`lsa } Z=0,011 \text{ } V\tau .$$

### 3.1.2. Koagulyator aralashtirgichi elektr motorining quvvati

$$P = 0,0013k\rho n^3 d^5, \text{ k} \text{em}$$

bu erda  $k$ -aralashtirgichning turi va aralashtirish rejimiga bog`liq Reynolds kriteriysi bilan xarakterlanadigan quvvat koeffitsenti

$$Re_n = nd^2 \cdot \rho / \mu,$$

$\rho$ -aralashtirilayotgan suyoqlik zichligi,  $kg/m^3$ ;

$n$ -aralashtirgichning aylanish chastotasi,  $sek^{-1}$ ;

$d$ -aralashtirgich kurakchasi diametri,  $m$ ;

$\mu$ -aralashtirilayotgan suyoqlikning dinamik qovushqoqligi koeffitsenti,  $Pa \cdot sek$ .

Quvvat koeffitsenti grafikdan aniqlanadi [7, 85 bet, 10-rasm].

### 3.1.3. Neytralizatorda bug`ning sarfi

$$D=(5,6...5,7) G_1$$

bu erda  $G_1$ -neytralizatoragi rafinatsiya qilinadigan moy massasi (5, 10 yoki 20  $t$ ).

3.1.4. Apparatning devori orqali yo`qolayotgan issiqlikni kompensatsiya qilish uchun issiq suv sarfi

$$W=(0,6...0,7)A/\Delta t_v, \text{ m}^3/\text{soat}$$

bu erda  $A$ -neytralizator-ajratgichning tashqi iozasi,  $m^2$ ;

$\Delta t_v$ -issiq suvning boshlang`ich va oxirgi xarorati farqi,  $^0S$ .

## 3.2. Rafinatsiyalangan yog`larni iovish va quritish uskunalari

### 3.2.1. Rafinatsiya qilingan moyni iovishdan oldin isitish uchun bug`ning sarfi

$$D = [G_1 c_1 \Delta t_1 + G_2 c_2 \Delta t_2 + A \alpha_0 \tau (t_{cm} - t_e)] / r_n, \text{ kg/tsikl}$$

bu erda  $G_1$ -apparatning massasi,  $kg$ ;

$s_1$ -apparat metallining nisbiy issiqlik sig`imi;  $s=0,48 \text{ kDj}/(kg * {}^0S)$

$\Delta t_1$ -apparatning boshlang`ich va oxirgi xaroratlari farqi,  ${}^0S$ ;

$G_2$ -isitilayotgan yog` massasi,  $kg$ ;

$s_2$ -isitilayotgan yog`ning nisbiy issiqlik sig`imi;  $kDj/(kg * {}^0S)$

$\Delta t_2$ -yog`ning boshlang`ich va oxirgi xaroratlari farqi,  ${}^0S$ ;

$A$ -apparatning sirt ıozasi,  $m^2$ ;

$\alpha_0$ -apparat devoridan xavoga issiqlik berish koefitsienti,  $kVt/(m^2 * {}^0S)$   $\alpha_0=9,3+0,058 t_{st}$

$\tau$  -ish tsikli vaqt 6,5...8 soat=23400...28800 sek.

$t_{st}$ -devor ıozasi xarorati,  ${}^0S$ ;

$t_v$ -xavo xarorati,  ${}^0S$ ;

$r_n$ -bug`ning nisbiy kondensatsiyalanish issiqligi,  $kDj/kg$ .

### 3.2.2. Iovish apparatida yog`ni quritish uchun bug` sarfi

$$\mathcal{D} \cong 0,01132G(x_n - x_k), \kappa\varrho$$

bu erda  $G$ -quritilayotgan moy miqdori,  $kg/soat$ ;

$x_n$  va  $x_k$  – moyning boshlang`ich va oxirgi namligi, %

### 3.2.3. Vakuum-quritish apparatida moyni quritish va deaeratsiya qilish uchun issiqlik sarfi

$$Q=0,01G(x_n-x_k) r, \text{ kDj/soat}$$

bu erda  $r$ -apparatdagi qoldiq bosimdagи nisbiy bug`lanish issiqligi,

$$r=(2450...2416) \frac{\kappa \mathcal{D} \varrho c}{\kappa \varrho};$$

### 3.2.4. Moydagи qoldiq namlikning uchishi xisobiga moy xaroratining pasayishi

$$\Delta t = Q/(Gc), {}^0C$$

bu erda  $s$ -yoqori xaroratdagi moyning nisbiy issiqlik sig`imi,  $kDj/(kg * {}^0S)$ ,

$$s=(2,05...2,09) \text{ kDj}/(kg * {}^0S)$$

### 3.2.5. So`rilayotgan xavo massasi

$$G_{xavo}=G(x_n-x_k) \cdot 10^{-3}, \text{kg/soat}$$

### 3.2.6. Vakuum-quritish apparatining ichki diametri

$$D_{vn} \geq (0,0024...0,003) \sqrt{G(x_n - x_k)} \nu^{\prime\prime}, \text{m}$$

bu erda  $\nu^{\prime\prime}$  apparatdagi qoldiq bosimda bug`ning solishtirma xajmi,  $\text{m}^3/\text{kg}$ .

### 3.2.7. Bug`lanish va deaeratsiya zonasining sig`imi

$$V_n = (9...11,1) G(x_n-x_k) \nu^{\prime\prime} 10^{-6}, \text{m}^3$$

### 3.2.8. Bug`lanish va deaeratsiya zonasining balandligi

$$h_n = 1,274 V_n / D_{vn}^2, \text{m}$$

### 3.2.9. Separatsiya (ajralish) zonasi balandligi

$$h_s = 0,32 / V_n / D_{vn}^2, \text{m}$$

### 3.2.10. Quritilgan moy qabul qilish zonasi balandligi

$$h_m = 0,064 G / D_{vn}^2 \rho, \text{m}$$

bu erda  $\rho$  -quritilgan moy zichligi,  $\text{kg/m}^3$

### 3.2.11. Apparatning to`liq balandligi

$$N = h_n + h_s + h_m \text{ yoki}$$

$$N = (1,594 V_n + 0,064 G / \rho) / D_{vn}^2, \text{m.}$$

### 3.2.12. Apparatning to`liq sig`imi

$$V = G [(11,25...13,875) \nu^{\prime\prime} (x_n - x_k) 10^{-6} + 0,05 / \rho], \text{m}^3$$

### 3.2.13. Gorizontal rotatsion-plenkali apparatda fosfatid emulsiyasini quritish uchun bug` sarfi

$$D=(1,16\ldots 1,17)G_1(\omega_1 - \omega_2)/(100 - \omega_2) = (1,16\ldots 1,17)G_2(\omega_1 - \omega_2)/(100 - \omega_1), \text{ kg/soat}$$

bu erda  $G_1$ -fosfatid emulsiyasining sarfi,  $\text{kg/soat}$ ;  
 $G_2$ -fosfatid kontsentratining sarfi,  $\text{kg/soat}$ ;  
 $\omega_1$ -fosfatid emulsiyasining namligi, %;  
 $\omega_2$ -fosfatid kontsentratining namligi, %.

### **3.3. YOg`larni oqlash va dezodoratsiyalash uskunalari**

#### **3.3.1. Gorizontal oqlash apparatida yog`ni isitish uchun bug` sarfi**

$$D=(0,03\ldots 0,04) G, \text{ kg/soat}$$

bu erda  $G$ -rafinatsiyalanayotgan moy miqdori,  $\text{kg/soat}$

#### **3.3.2. D-5 davriy dezodoratorida isituvchi bug`ning sarfi**

$$D=(0,2\ldots 0,24) G, \text{ kg/soat}$$

bu erda  $G$ -dezodoratsiyalanayotgan yog` miqdori,  $\text{kg/soat}$ :

D-5 apparatida ochiq bug`ning sarfi

$$D_0=(0,115\ldots 0,145) G, \text{ kg/soat}$$

#### **3.3.3. A1-MND-5 tipidagi plenka-plastinkali dezodoratorda ochiq bug`ning sarfi**

$$D_0=(0,023\ldots 0,025) G, \text{ kg/soat};$$

yopiq isitish bug`ning sarfi

$$D=0,074 G, \text{ kg/soat};$$

yog`ni isitish, aynan dezodoratsiyada va besh bosqichli bug` ejektorli vakuum sistemada umumiy bug` sarfi

$$D_{ob}=0,37 G, \text{ kg/soat};$$

bug` ejektorli sistemada

$$D_{ej}=(0,21\ldots 0,249) G, \text{ kg/soat};$$

suvning sarfi

$$W=(0,027 \dots 0,04) G, kg/soat$$

### 3.3.4. Dezodoratsiyalangan moyni sovitish uchun suv sarfi

$$W=0,24 G_m s_m \Delta t_m / \Delta t_v, kg/soat$$

bu erda  $G_m$ -sovoutilayotgan moy sarfi,  $kg/soat$ ;

$s_m$ -moyning nisbiy issiliq sig`imi;  $s_m=2 kDj/(kg \cdot {}^0S)$

$\Delta t_m$ -moyning boshlang`ich ( $110{}^0S$ ) va oxirgi ( $45 \dots 50{}^0S$ ) xaroratlari farqi,  ${}^0S$ ;

$\Delta t_v$ -sovituvchi suvning oxirgi ( $40{}^0S$ ) va boshlang`ich ( $20 \dots 30{}^0S$ ) xaroratlari farqi,  ${}^0S$ .

Soddalashtirilgan ko`rinishda

$$W=(0,001 \dots 0,0012) G_m, m^3/soat$$

## 3.4. YOg`larni gidrogenizatsiyalash uskunaları

3.4.1. YOg`-moy sanoatida gidrogenizatsiya uchun qo'llanilayotgan avtoklavlarning unumdarligi salomas bo'yicha margarin maxsuloti uchun 33, konditer yog`lari uchun 24, atir sovun uchun 25, xo`jalik sovuni uchun 20, yod soni 30 dan oshiq bo`lgan stearin uchun 20 t/kuniga. Uchta avtoklavdan iborat avtoklavlar batareyasi uchun muvofiqlik 140, 70, 95, 85 va 75 t/kuniga.

Zaruriy batareyalar soni

$$n=G/G_b,$$

bu erda  $G$ -qayta ishlanayotgan yog` miqdori,  $kg/kun (kg/soat)$ ,  
 $G_b$ -uchta avtoklavdan iborat batareya unumdarligi.

3.4.2. Zaruriy sharoitda avtoklav batareyalariga qo'shimcha davriy ishlaydigan avtoklavlar o'rnatilgan. SHunday avtoklavlar ishlataliganda 3 MPa bosimli bug`ning sarfi

birinchi marta iorgizilganda

$$D=(1,04 \dots 1,07) \Delta t_1 (G_1 s_1 + G_2 s_2) / (\tau_1 r_n), kg/soat$$

avtoklavlarning barqaror ishida

$$D^1 = (1,05 \dots 1,08) \Delta t_1^1 (G_1^1 s_1^1 + G_2 s_2) / (\tau_1 r_n), \text{kg/soat}$$

bu erda  $G_1, G_2$ -moy va avtoklav massasi, kg;

$s_1$ -moyning o`rtacha nisbiy issiqlik sig`imi, (masalan,  $t_n=70^0S$  va  $t_k=200^0S$ ),  $kDj/(kg * {}^0S)$ ;

$s_1^1$ -moyning o`rtacha nisbiy issiqlik sig`imi (masalan,  $t_n=120^0S$  va  $t_k=200^0S$ ),  $kDj/(kg * {}^0S)$ ;

$s_2$ -apparat materialining nisbiy issiqlik sig`imi (po`lat uchun  $s_2=0,48$   $kDj/(kg * {}^0S)$ );

$\Delta t_1$  va  $\Delta t_1^1$ -avtoklavlar birinchi marta jorgizilganda va barqaror

ishida boshlang`ich  $t_n, t_n^1$  va oxirgi  $t_k$  xaroratlar orasidagi farq,  ${}^0S$ ;

$\tau_1$  va  $\tau_1^1$  - avtoklavlarni boshlang`ich va barqaror ishida isitish vaqtini ( $\tau_1$  va  $\tau_1^1=0,5 \dots 0,9$  soat);

$r_n$ -bug`ning nisbiy kondensatsiyalanish issiqligi,  $kDj/kg$ .

3.4.3. Avtoklavlarda gidrogenizatsiya jarayoni issiqlik ajralish bilan sodir bo`ladi. Davriy avtoklavda birinchi soatda ajralayotgan issiqlik

$$Q^1 = (3,3 \dots 3,5) \Delta j^1 G_1, \text{kDj/soat}$$

bu erda  $\Delta j^1$ -moy yod sonining birinchi ish soatida kamayishi.

Gidrogenizatsiyada to`la ajralayotgan issiqlik

$Q=(3,3 \dots 3,5) \Delta j G^+, \text{kDj}$  bu erda  $\Delta j$ -butun ish tsiklida yod sonining to`la kamayishi.

+Texnik adabiyotda bu nisbat  $Q=10,5 \Delta j G_1$  miqdorda xisoblanadi.

3.4.4. Gidrogenizatsiyada issiqlik ajralish xisobiga avtoklavga berilayotgan vodorod isiydi, yog`ning xarorati oshadi, yo`qolayotgan issiqlik kompensatsiyalanadi. Vodorodni isitish uchun issiqlik sarfi

$$Q_v = G_v s_v \Delta t_v, \text{kDj/soat}$$

bu erda  $G_v$ -vodorod sarfi,  $m^3/\text{soat}$ .

Ozuqa salomasi ishlab chiqarishda

$$G_v = (950 \dots 1100) \Delta j G_1 / (10^6 SK)$$

Texnik salomas ishlab chiqarishda

$$G_v = (1050 \dots 1250) \Delta j G_1 / (10^6 SK),$$

bu erda  $S - 1 m^3$  nam vodorodda quruq gazning miqdori (birlik ulushlarida),  
xaroratga bog'liq xolda:

K-berilgan xaroratdagi vodorod xajmini normal sharoitdagi xajmga  
o'tkazish koeffitsienti;

$t, {}^0S$	0	5	10	15	20	25	30	35
$S$	0,994	0,992	0,988	0,983	0,977	0,969	0,959	0,945
$K$	1	0,982	0,965	0,948	0,932	0,916	0,901	0,886

$s_v$ -vodorodning issiqlik sig`imi,  $s_v = 1,3 kDj / (m^3 * {}^0S)$

$\Delta t_v$ -vodorodning boshlang`ich va oxirgi xaroratlari farqi,  ${}^0S$ .

3.4.5. Gidrogenlanayotgan yog`ning xaroratini qo'shimcha ko'tarish uchun  
issiqlik sarfi

$$Q_j = G_1 c_j \Delta t_j, kDj$$

bu erda  $G_1$ - gidrogenlanayotgan yog`ning massasi, kg;

$S_j$ -gidrogenlanayotgan yog`ning  $\Delta t_j$  xaroratlar intervalidagi o'rtacha  
nisbiy issiqlik sig`imi,  $kDj / (kg * {}^0S)$ ;

$\Delta t_j$ -gidrogenlash xarorati va qo'shimcha isitilgan yog` xaroratlari  
farqi,  ${}^0S$ .

3.4.6. Yo`qolayotgan issiqlikning kompensatsiyasi uchun issiqlik sarfi.

$$Q_p = A \tau \alpha_0 (t_{st} - t_{voz}), kDj$$

bu erda  $A$ -avtoklavning sirt iozasi,  $m^2$ ;

$\tau$  - jarayon muddati, sek;

$\alpha_0$ -avtoklav devoridan xavoga konvektsiya va nurlanish bilan umumiy  
issiqlik berish koeffitsienti ( $\alpha_0 = 9,3 + 0,058 t_{cm}$ ),  $vt / (sm^2 * {}^0S)$ ;

$t_{st}$  va  $t_{voz}$ -muvofiglikda devor va xavo xarorati,  ${}^0S$ ; avtoklav devori  
teploizolyatsiya qilingan iozasi xarorati  $40 {}^0S$  deb olinadi.

Apparatga berilayotgan yog`ni boshlang`ich isitish uchun ketayotgan  
qo'shimcha issiqlik miqdori

$$Q_{izb} = Q - Q_v - Q_j - Q_p$$

### 3.4.7. YOg`ning avtoklavda bo`lish vaqtি

$$\tau \approx 1,8V\rho / G_b, \text{coam}$$

bu erda  $V$ -avtoklavning to`liq moy sig`imi,  $m^3$ ;  
 $\rho$ -salomasning gidrogenizatsiya xaroratidagi zichligi,  $kg/m^3$ ;  
 $G_b$ -avtoklavlavr batareyasi unumdorligi,  $kg/soat$ .

### 3.4.8. Moyning avtoklavlarda xarakat tezligи

$$v = 354 \cdot 10^{-6} G_b / (d^2 \rho), \text{ m/sek}$$

bu erda  $d$ -avtoklav korpusi diametri,  $m$ .

3.4.9. Uchta avtoklavli batareyada triatsilglitseridlarning vodorod bilan to`yinish darajasi  $1 : 0,5 : 0,25$  nisbatda bo`ladi.

Birinchi avtoklavda isitish uchun bug` sarfi

$$D_1 = [s_v(G_v \cdot t_v^k - G_v^1 t_v^n) + A \tau \alpha_0 (t_{st} - t_{voz}) + G_b(s_1^1 t_1^1 - s_1 t_1 x - s_2 t_2 x^1 - q \Delta j_1)] / r_n, \text{ kg/soat}$$

bu erda  $s_v$ -vodorodning issiqlik sig`imi,  $s_v = 14,4 \text{ kDj} / (\text{kg} * {}^0\text{S})$ ;

$G_v$  va  $G_v^1$ -avtoklavga kirayotgan va chiqayotgan vodorod miqdori,  $kg/soat$ ;

$t_v^n$  va  $t_v^k$ -kirayotgan va chiqayotgan vodorod xarorati,  ${}^0\text{S}$ ;

$A$ -avtoklavning tashqi یозаси,  $m^2$ ;

$\tau$ -jarayon vaqtি,  $\tau = 3600 \text{ sek}$ ;

$\alpha_0$ -issiqlik uzatish umumiyl koeffitsienti,  $kVt / (m^2 * {}^0\text{S})$

$\alpha_0 = 9,3 + 0,058 \cdot t_{st}$ -tashqi devor یозаси xarorati,  ${}^0\text{S}$

$t_{st}$  va  $t_{voz}$  – apparat devori va tsex xavosi xarorati,  ${}^0\text{S}$ ;

$G_b$ -yog` massasi,  $kg$ ;

$s_1$  va  $c_1^1 - t_1$  va  $t_1^1$  xaroratda yog`ning issiqlik sig`imi,

$kDj / (\text{kg} * {}^0\text{S})$ ;

$t_1$  va  $t_1^1$  -avtoklavga kirayotgan va chiqayotgan yog`ning

xarorati,  ${}^0\text{S}$ ;

$t_2$  – avtoklavga berilayotgan katalizatorning moyli suspenziyasi

xarorati,  ${}^0\text{S}$ ;

$x, x^1$  – gidrogenizatsiya qilinayotgan moy va moyli katalizator

suspenziyalarining massa ulush birligi,  $x^1 = 1 - x$

$q$ -gidrogenizatsiya qilinayotgan moyning yod soni bir birlikka

kamayganda ajraladigan issiqlik miqdori,  $q = 3,3 \dots 3,5 \text{ kDj/kg}$

(3.4.3. ga qarang);

$\Delta j_1$ -birinchi avtoklavda yog`ning yod sonining kamayishi;

$r_n$ -isituvchi bug`ning kondensatsiyalanish issiqligi,  $r_n=1800 \text{ kDj/kg}$ .

Avtoklavlarda bug` sarfini xisoblab, xar bir avtoklavdan chiqayotgan salomasning xaroratini xam aniqlash mumkin. Ammo bu qiymat amaliy ma'lumotlar asosida xam qabul qilinish imkonini bor. Kungaboqar, soya va paxta moyidan olinayotgan barcha turdag'i ozuqa salomasi xarorati birinchi avtoklavdan so'ng  $190\text{-}200^{\circ}\text{S}$ , ikkinchi va uchinchilaridan so'ng  $210\text{-}220^{\circ}\text{S}$  deb olinadi.

#### 3.4.10. Katalizatorni qaytarish uchun retortada $3\text{-}4 \text{ MPa}$ bosimli bug`ning sarfi.

$$D_p \approx 0,25G_k, \text{кг/цикл}$$

bu erda  $G_k$  - retortaga yoklangan, quruq qaytarilmagan katalizator miqdori, kg.

#### 3.4.11. Uzluksiz gidrogenizatsiya kolonnalarida yog`larni to'yintirish uchun $3\text{-}3,5 \text{ MPa}$ bosimli bug`ning sarfi (birinchi va ikkinchi kolonnalarda),

$$D \approx 0,0013[G(\Delta t + 1,5\Delta j) + 614\Delta t_e - 368A], \text{кг/сочам}$$

bu erda  $G$ -yog`lar va suspenziyalangan nikel-mis katalizatori aralashmasi sarfi, kg/soat;

$\Delta j$  - gidrogenlanayotgan yog`ning birinchi va ikkinchi kolonnada yod soni kamayishi qiymati;

$\Delta t$  - yog` va katalizator aralashmasi boshlang`ich va oxirgi xaroratlari farqi,  $^{\circ}\text{S}$ ;

$\Delta t_v$  - vodorodning boshlang`ich va oxirgi xarorati farqi,  $^{\circ}\text{S}$ ;

$A$  - birinchi ikki kolonnaning sirt yozasi,  $m^2$ .

#### 3.4.12. Vodorod ishlab chiqarish uchun zaruriy elektrolizyorlar soni

$$n = G_v / V_e, \text{dона}$$

bu erda  $G_v$  - vodorodning soatbay sarfi,  $m^3/\text{соат}$  [3.4.4. formulasiga qarang];

$V_e$  - elektrolizorning unumдорлиги,  $m^3/\text{соат}$ .

#### 3.4.13. Bitta elektrolizyor uchun o`zgaruvchan tokning sarfi

$$R_1 = 5,6 V_e, \text{kVt};$$

shu narsa doimiy tok uchun

$$R_2=5,8 V_e, kVt.$$

Sanoatda suvni elektroliz qilib  $1000 m^3 N_2$  va  $500 m^3 O_2$  olish uchun ( $6500 \dots 7000$ )  $kVt$  soat elektroenergiya,  $0,9 m^3$  distillangan suv, savutish uchun ( $60\dots65$ )  $m^3$  suv sarflanadi.

Konversiya usuli bilan  $1000 m^3$  texnik vodorod olish uchun ( $270 \dots 300$ )  $m^3$  tabiiy gaz, ( $2500 \dots 3000$ )  $kg$  suv bug`i, ( $220 \dots 250$ )  $m^3$  yoqilg`i gazi talab etiladi.

### **3.5. Margarin va mayonez ishlab chiqarish uskunalari**

#### **3.5.1. Tanklarining sut o`tkazish qobiliyati**

$$M = V \cdot Z \cdot \tau / \tau_1 + \tau_2 + \tau_3, m^3/kuniga (sut).$$

bu erda  $V$  - tankning ishchi xajmi,  $m^3$ ;

$Z$  - sutkada smenalar soni;

$\tau$  - smena davomiyligi, *soat*;

$\tau_1$  - tankning to`ldirilish muddati, *soat*;

$\tau_2$  - sutni saqlash va qayta ishlash muddati, *soat*;

$\tau_3$  - tankni bo`shatish muddati, *soat*.

#### **3.5.2. Gorizontal rezervuardan sutni oqizib olish uchun vaqt sarfi**

$$\tau_3 = (0,000213 \dots 0,000228) V / (d^2 \sqrt{H_{\max}}), soat$$

bu erda  $d$  - oqizish trubkasining diametri,  $m$ ;

$H_{\max}$  - rezervuardagi sutning eng yuqori satxi,  $m$ .

#### **3.5.3. Vertikal rezervuardan sutni oqizib olish vaqtি.**

$$\tau_3 = (0,000167 \dots 0,000179) D^2 \sqrt{H} / d^2, soat$$

bu erda  $D$  – rezorvuar diametri,  $m$ ;

$N$  – sut satxi balandligi,  $m$ .

#### **3.5.4. Zaruriy tanklar soni**

$$n = G_{sut} / (\rho \cdot V), dona yoki n = G_{sut} / M_{sut}, dona$$

bu erda  $G_{sut}$  - sutning sutkadagi sarfi, kg;

$\rho$  - sutning zichligi,  $kg/m^3$ ;

$M_{sut}$  - bitta tankning sutkabay unumdorligi, kg.

Olingen qiymat  $n$  yaqin katta butun son tomoniga yaxlitlanadi.

### 3.5.5. Sutni tankda sovitish uchun suv sarfi.

$$W_{oxz} = 0,93 \cdot V \cdot \rho \cdot \Delta t / \Delta t_e, \text{kg}$$

bu erda  $\Delta t$  - sutning boshlang`ich va oxirgi xaroratlari farqi,  $^0S$ ;

$\Delta t_v$  - sovituvchi suvning boshlang`ich va oxirgi xaroratlari farqi,  $^0S$ .

### 3.5.6. Sovitilgan sutni saqlashda muzdek suvning sarfi.

$$W_{axz}^1 = (0,86...1,3) A \cdot \Delta t_{cp} / \Delta t_e, \text{kg/coam}$$

bu erda  $A$  - tankning sirtqi yozasi,  $m^2$ ;

$\Delta t_{sr}$  - tsexdagi xavo va tankdagi sut xaroratlarining o`rtacha farqi,  $^0S$ .

### 3.5.7. Sovitilayotgan sutni aralashtirish uchun odatda aylanish tezligi

